

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIYA OSOYISHTALIGI VA JAMOAT
SALOMATLIGI XIZMATI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
“KRISTAL MED SERVIS” MCHJ

“TASDIQLAYMAN”

O‘z R SSV Fan va ta‘lim
boshqarmasi boshlig‘i v.v.b.
A.T. Maxmudov
2021 y "21" *iyun*
№ 6 bayonnoma

“KELISHILDI”

O‘z R SSVning Tibbiy
ta‘limni rivojlantirish
markazi direktori
N.R. Yangiyeva
2021 y "4" *iyun*
№ 6 bayonnoma

COVID-19 VA O‘TKIR RESPIRATOR
VIRUSLI INFEKSIYALAR
(O‘quv-uslubiy qo‘llanma)

O‘quv-uslubiy qo‘llanma infeksionistlar, epidemiologlar, pulmonologlar, reanimatologlar, gematologlar, oilaviy shifokorlar, tibbiyot oliygohlari talabalari, magistrarlari, klinik-ordinatorlari va hamshiralar uchun mo‘ljallangan.



«Renessans press»
Тошкент
2021

Tuzuvchilar:

Tuychiyev Laziz Nadirovich - Toshkent tibbiyot akademiyasi, yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor.

Yusupaliyev Baxodir Qaxramonovich - Respublika Sanitariya-epidemiologiya o'soyishtaligi va jamoat salomatligi xizmati rahbari, tibbiyot fanlari doktori.

Mirtazayev Omonturdi Mirtazayevich - Toshkent tibbiyot akademiyasi epidemiologiya kafedrasini professori, tibbiyot fanlari doktori.

Valiyev Abduvosid Ganiyevich - Tibbiyot fanlari doktori, professor.

Malikov Olim Malikovich - Toshkent tibbiyot akademiyasi, gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasini assistenti, tibbiyot fanlari doktori.

Qurbonov Botir Jurabayevich - Respublika Sanitariya-epidemiologiya o'soyishtaligi va jamoat salomatligi xizmati rahbari muovini, tibbiyot fanlari nomzodi.

Jumamurodov Sobirjon Tursunboy O'g'li - Toshkent tibbiyot akademiyasi mikrobiologiya virusologiya, immunologiya kafedrasini assistenti

Taqrizchilar:

Sharapov Maxmudjon Boqixonovich - Tibbiyot fanlari doktori, professor. AQSh, SDSning O'zbekistondagi ofisi.

Matnazarova Gulbaxor Sultonovna - Toshkent tibbiyot akademiyasi epidemiologiya kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori.

Toshkent tibbiyot akademiyasi "Markaziy uslubiy hay'ati" tomonidan ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsiya etilgan.

Majlislar bayoni № 7. 9-mart 2020-yil bayonnoma bilan tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.

Toshkent tibbiyot akademiyasi "Ilmiy kengashi" tomonidan ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsiya etilgan.

Majlislar bayoni № 8, 24-mart 2021-yil

Ilmiy kotib t.f.d. professor

Ismailova G. A.

MUNDARIJA

Annotatsiya	4
Covid-19	7
Qisqacha tarixiy ma'lumot	7
Etiologiyasi	11
Patogenezi	12
Patologik anatomiyasi	14
Covid-19 epidemiologiyasi	15
Covid-19 ning standart ta'rifi	20
Epidemiologik nazorat	22
Covid-19 infeksiyasining klinikasi	24
Covid-19 ning tashxisoti. Bemorlarni tekshirish rejasi (algoritmi)	29
Covid-19 infeksiyasini davolash	35
Covid-19 infeksiyasida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar	51
Covid-19 infeksiyasida profilaktik chora-tadbirlar	55
Covid-19 infeksiyasi epidemiyasiga qarshi kurashni tashkil qilish	59
Ilovalar	66
Gripp	67
Adenovirusli infeksiya	88
Paragripp infeksiyasi	100
Rinovirus infeksiyasi	109
Respirator-sintitsial infeksiya	115
Reovirus infeksiyasi (ECHO-10t)	122
Qisqartirilgan so'zlar	128
Foydalanilgan adabiyotlar	129

ANNOTATSIYA

2020-yili Butun dunyoda Covid-19 infeksiyasining shiddatli tarqalishi yuz berdi. Qisqa muddat ichida Osiyo, Amerika, Yevropa, Afrika, Avstraliya qit'alarida ushbu infeksiyaning pandemiyasi kuzatildi. Covid-19 infeksiyasi O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Ushbu infeksiya O'zbekistonda 2020-yil mart oyidan boshlab ro'yxatga olinib boshladi.

Covid-19 ning birinchi aniqlanishi va tarqalishi Xitoy Xalq Respublikasida 2019-yil dekabr oyida sodir bo'ldi. Ushbu infeksiyaning epidemik o'chog'i XXR Uxanь shahrida (Xubey provinsiyasi) qayd qilindi.

2020-yil 11-fevralida Butun dunyo viruslarni taksonomik nomlash markazi Covid-19 infeksiyasining qo'zg'atuvchisiga SARS-COV-2 deb nom berdi.

11-fevral 2020-yili Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BJSST) ushbu yuqumli kasallikka Covid-19 (coronavirus disease 2019) nomini berdi.

Yangi Covid-19 sog'liqni saqlash vazirligi, sanitariya epidemiologiya xizmati, barcha toifadagi shifokorlar, hamshiralar oldiga ushbu kasallikka tashxis qo'yish uni davolash va profilaktikasi borasida muhim vazifalarni yechish muammosini qo'ydi.

Hozirgi kunda Covid-19 ning epidemiologiyasi, patogenezi, klinikasi, laboratoriya tashxisi borasida dunyo olimlari, yetakchi mutaxassislar va tajribali shifokorlar tomonidan izchil o'rganishlar qilinayapti, ammo bu borada hozirgacha aniq ma'lumotlar yo'q. Dunyo miqyosida olimlar, mutaxassislar, shifokorlar hozirgi kunda Covid-19 borasida yangi-yangi ma'lumotlar taqdim qilib turibdi.

O'quv-uslubiy qo'llanma Butun dunyoda ushbu mavzu bo'yicha adabiyot manbalarida chop etilgan ma'lumotlar tahliliga va o'zbekistonlik olimlar - virusologlar, epidemiologlar, infeksiyonistlar, reanimatologlar, pulmonologlar, gematologlar va boshqa mutaxassislarning Covid-19 tashxisi, uni davolash va profilaktikasi borasidagi amaliy tajribalari borasidagi ma'lumotlarga asoslanib tayyorlandi.

Covid-19 bilan Butun dunyoda va O'zbekistonda kasallanish dinamikasi, O'zbekistondagi koronavirusga qarshi kurash markaziy shtabi epidemiologik monitoring bo'limi epidemiolog vrachi Aziz Nishonov taqdim etgan rasmiy ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma infeksiyonistlar, epidemiologlar, pulmonologlar, reanimatologlar, gematologlar, oilaviy shifokorlar, tibbiyot oliygohlari talabalari, magistrarlari, klinik-ordinatorlari va hamshiralar uchun mo'ljallangan.

А Н Н О Т А Ц И Я

В 2020 году по всему миру наблюдалось распространение коронавирусной инфекции COVID-19. За короткий срок пандемия охватила Азию, Америку, Европу, Африку, Австралию.

COVID-19 не обошла и Узбекистан. Эта инфекция в Узбекистане стала регистрироваться с марта 2020 года. Первые сообщения о новой коронавирусной инфекции пришли из Китая в декабре 2019 года (в городе Ухань провинции Хубэй), где возникла вспышка инфекционного заболевания, вызванного неизвестным ранее вирусом.

Международный комитет по таксономии вирусов присвоил новому вирусу наименование SARS-CoV-2 (коронавирус тяжелого острого респираторного синдрома-2). 11 февраля 2020 г. ВОЗ объявила о присвоении данному заболеванию названия «COVID-19».

Перед министерством здравоохранения, санитарно-эпидемиологической службой, врачами, медицинскими сестрами стояла задача: как определить диагноз, лечение и профилактику новой инфекции «COVID-19».

В настоящее время ученые с мировым именем, ведущие специалисты и опытные врачи изучают эпидемиологию, патогенез, клинику, лабораторную диагностику этого заболевания, но пока все безрезультатно. Специалисты всего мира преподносят всё новые и новые сведения об этой инфекции.

Учебно-методическое пособие подготовлено на основе анализа мировой литературы, опубликованные по этой теме, а также на основании практического опыта работы с COVID-19 Узбекских ученых: вирусологов, эпидемиологов, инфекционистов, реаниматологов, пульмонологов, гематологов и др.

В учебно-методическое пособие включены материалы эпидемиологического мониторинга заболеваемости COVID-19 по всему миру, а также динамика заболеваемости этой инфекции по Узбекистану, предоставленные врачом-эпидемиологом Центрального штаба по борьбе с коронавирусной инфекцией в Узбекистане Азизом Нишоновым.

Это учебно-методическое пособие предназначено для врачей инфекционистов, эпидемиологов, пульмонологов, реаниматологов, врачей общей практики, студентов медицинских вузов, магистров, клинических ординаторов и медицинских сестёр.

ANNOTATION

A worldwide spread of COVID-19 infection was observed in 2020. In a short time, the pandemic has enveloped Asia, America, Europe, Africa, Australia.

COVID-19 has not bypassed Uzbekistan. This infection has been registered in Uzbekistan since March 2020. The first reports of a new coronavirus came from China in December last year (in the city of Wuhan, Hubei province), where there was an outbreak of an infectious disease caused by a previously unknown virus.

The international Committee on virus taxonomy named the new virus SARS-CoV-2 (severe acute respiratory syndrome coronavirus 2). WHO has announced the naming of this disease "COVID 19" on February 11, 2020.

The Ministry of health, the sanitary and epidemiological service, doctors and nurses had a task: how to determine the diagnosis, treatment and prevention of a new infection "COVID-19".

Currently, world-renowned scientists, leading specialists and experienced doctors are studying the epidemiology, pathogenesis, clinic, and laboratory diagnostics of this disease, but so far all to no avail. Experts from all over the world present more and more information about this infection.

The manual is based on the world literature on this topic, as well as on the experience of working of Uzbek scientists with the COVID-19: virologists, epidemiologists, infectious diseases specialists, resuscitators, pulmonologists, etc.

The manual includes materials of epidemiological monitoring of COVID-19 disease worldwide, as well as the dynamics of the disease of THIS infection in Uzbekistan, provided by Aziz Nishonov, the epidemiologist of the center for combating coronavirus infection in Uzbekistan.

This manual is aimed at infectious disease specialists, epidemiologists, pulmonologists, resuscitators, medical students, masters, nurses and General practitioners.

COVID-19

Covid-19 – infeksiyasi – bu tizimli kasallik bo‘lib, immun tizimining, o‘pka, va yurak faoliyatining buzilishi, shuningdek buyrak va ichak faoliyatining ishdan chiqishi bilan xarakterlanadi. Isitma, traxeya, bronx va o‘pkaning virusli total yallig‘lanishi (pnevmoniya) bilan kechadigan og‘ir kasallik hisoblanadi. Ushbu yuqumli kasallik o‘ta xavfli bo‘lib, muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. 2020-yildan boshlab pandemiya shaklida butun dunyoga tarqaldi. 2020-yildan ushbu kasallik 200 dan ortiq davlatlarda epidemiya shaklida qayd etildi. Covid-19 O‘zbekistonda ham tarqaldi.

Qisqacha tarixiy ma’lumot

Covid-19 infeksiyasi 2019-yil noyabr oyida Xitoy xalq respublikasining (XXR) Uxan shahrida qayd etildi. Dastlabki bemor ushbu shahar fuqarosi bo‘lib, yuqori harorat, intoksikatsiya, nafas yetishmasligi belgilari bilan og‘ir ahvolda shifoxonaga yetkazilgan. Bemor og‘ir pnevmoniya xastaligidan vafot etgan.

Bemor kasallikni yuqtirgan infeksiya manbai aniqlanmagan. Ushbu bemor kasallangandan oldin Uxan shahridagi dengiz mahsulotlari sotiladigan bozorda – qushlarning xom go‘shini va ilonlarni sotish bilan shug‘ullanganligini inobatga olib, kasallikni bozorda go‘sh mahsulotlaridan yuqtirgan deb taxmin qilingan.

Qisqa muddat ichida ushbu kasallik Xitoy davlatining boshqa hududlarida ham qayd etila boshlangan. 2020-yildan boshlab esa Rossiya, Turkiya, Eron, Saudiya Arabistoni, Italiya, Ispaniya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh davlatlarida epidemiya shaklida tarqalgan.

Mikroorganizmlarga nom qo‘yuvchi Xalqaro qo‘mita 2019-yil 11-dekabrda, yangi koronavirus kasalligini qo‘zg‘atuvchi virusga SARS-Cov-2 deb rasmiy nom berdi. Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (BJSST) ushbu kasallikni Covid-19 (“coronavirus disease -2019”) deb atashni tavsiya qildi.

2020-yilning aprel oyiga kelib kasallik yer yuzining 200 dan ortiq mamlakatlarida epidemiya shaklida qayd etildi, Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining qo‘shma majlisida 11-fevral 2020-yilda Covid-19 infeksiyasining butun dunyoda tarqalishini pandemiya deb e’lon qilingan.

Ushbu epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar ko‘rilishi natijasida Uxan shahrida Covid-19 tarqalib ketishining oldi olindi. Ammo xastalik qisqa muddat ichida ko‘pgina davlatlarga tarqaldi. Xitoyda Covid-19 epidemiyasini jilovlash, ya’ni epidemiyaga qarshi va profilaktik chora-tadbirlarning o‘z vaqtida

o‘tkazilishi samara berdi, kasallanish keskin kamaydi epidemiyaga qarshi ko‘rilgan tadbirlar “Xitoy modeli” deb ataldi.

Xitoy davlatida Covid-19 ning oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar o‘tkazildi.

1. Uxan shahri va Xitoyning ushbu infeksiya qayd etilgan provinsiyalarida shahardan chiqish va chetdan kirish to‘xtatildi.

2. Aholiga uyda qolish, ko‘cha va maydonlarga sababsiz chiqish man etildi. Tibbiy niqobsiz (maska taqmasdan) yurish qat’iy man qilindi. Oziq-ovqat sotiladigan marketlardan tashqari barcha magazinlar, bozorlar epidemiologik vaziyat tugaguncha yopib qo‘yildi.

3. Qisqa muddat ichida koronavirusga chalingan bemorlar uchun infeksiyon shifoxonalar qurildi.

4. Koronavirus infeksiyasiga chalingan bemorlarni davolash uchun, yuqori malakali shifokorlar, hamshiralar boshqa hududlardan jalb qilindi.

5. Barcha shahar ko‘chalari, aholi istiqomat qiladigan uylarni dezinfeksiya qilinishi tashkillashtirildi.

6. Epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni buzgan aholiga jinoiy va ma’muriy javobgarlik chora-tadbirlari o‘tkazildi.

7. Kasallik chiqqan hududlarga avia, temir yo‘l transporti va avtomobillarning kirib chiqishi to‘xtatildi.

8. Aholiga kerakli tibbiy niqoblar, dezinfeksiya moddalarini o‘z vaqtida yetkazib berish tashkillashtirildi.

9. Og‘ir bemorlarga sun’iy nafas olish apparatlari bilan ta’minlashga erishildi.

10. Koronavirus infeksiyasini aniqlash maqsadida PSR, IFA diagnosticumlari keltirildi va qo‘llanildi.

Aholini alohidalash, uydan chiqmaslik, kasallik chiqqan joyni karantinga olish, uning epidemik tarqalishining oldini olish maqsadida so‘rab surishtirib, muloqotda bo‘lganlarni aniqlash, ushbu tadbirlarni qo‘llash Covid-19 ning Xitoy davlatida keng tarqalib ketishining oldini oldi.

2020-yilning mart oyidan boshlab Covid-19 infeksiyasi kamayganligini e’tiborga olib, Uxan shahrida va Xitoyning boshqa hududlarida karantindan asta-sekin bosqichma-bosqich chiqishga ruxsat berildi.

Yangi paydo bo'lgan Covid-19 kasalligi, sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislar oldiga kasallikning profilaktikasi tashxisoti, bemorlarni davolash bilan bog'liq bo'lgan bir qator vazifalarni qo'ydi.

Hozirgi paytda Covid-19 ning etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenizi, klinik xususiyatlari va davolash usullari haqidagi ma'lumotlar ko'pgina mamlakatlarda o'rganilmoqda, yangi-yangi axborotlar bilan to'ldirilmoqda.

Mazkur uslubiy qo'llanma dunyoda, jumladan BJSST mutaxassislari, Xitoy, Amerika, Yevropa va Rossiya mamlakatlarida Covid-19 bilan kasallanishni, davolash va profilaktikasini nazorat qiluvchi markazlar ma'lumotlari, shuningdek, BJSST, Rossiya Federatsiyasi sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining Covid-19 bo'yicha chop qilgan "Vaqtinchalik uslubiy tavsiyanomalar", shuningdek, ushbu mavzu bo'yicha adabiyot manbalarida chop etilgan axborotlar tahlili, O'zbekistonlik olimlar – virusologlar, epidemiologlar, infeksiyonistlar, reanimatologlar, pulmonologlar, gematologlar va boshqa mutaxassislarning Covid-19 ning tashxisi, uni davolash va profilaktikasi borasidagi amaliy tajribalari ma'lumotlari asosida tayyorlandi. (Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatiga qarang).

O'zbekiston Respublikasida Covid-19 qayd etish 2020 yil mart oyidan boshlandi. Dastlabki bemor Fransiyadan turistik sayohatdan qaytgan O'zbekistonlik fuqaro bo'lib, ular qisqa vaqt oralig'ida oila a'zolariga va qarindoshlariga kasallikni yuqtirgan. Shundan keyin Covid-19 bilan kasallangan bemorlar chet elda bo'lgan O'zbekistonlik turistlar orasida qayd etila boshladi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi sanitariya epidemiologik nazorat inspeksiyasi mamlakatimizda qayd etilgan Covid-19 infeksiyasini favqulotda holat deb baholadi. Mamlakatda karantin e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida Covid-19 infeksiyasiga qarshi kurash komissiyasi tuzildi. Komissiya qarorlari va topshiriqlarini bajarishga barcha vazirliklar, hokimiyatlar, ichki ishlar xodimlari, prokuratura, shahar va hududiy sanitariya-epidemiologiya xizmati, keng tarmoqli shifoxonalar, Virusologiya, Epidemiologiya mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy tekshirish institutlari, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi xodimlari, nodavlat tashkilotlar, Oliy Majlis, yuqori malakali shifokor epidemiologlar, infeksiyonistlar, reanimatologlar, kardiologlar va boshqa tor

mutaxassislar jalb qilindi. Respublika Prezidenti bir necha marta mamlakat aholisiga Covid-19 infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo'yicha murojaat qildi.

Mamlakatimizda tez fursatlarda quyidagi tadbirlar o'tkazildi. Ushbu tadbirlar fevral oyining oxiri va mart oyining boshida boshlandi va hozirgi kungacha davom ettirilmoqda.

11. Chet elda bo'lgan va respublikaga qaytib kelgan barcha O'zbekiston fuqarolari 14 kunga alohidalandi. Kelgan fuqarolarni kundalik tibbiyot nazorati, termometriya, Covid-19 ga infeksiyasiga tekshirish yo'lga qo'yildi.

12. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari vaqtincha chet elga chiqishi taqiqlandi.

13. Maktab yoshgacha bo'lgan bolalar bog'chalari, maktablar, kollejlarda, oliy ta'lim muassasalari, institutlar epidemiya tugaguncha faoliyati to'xtatildi. Darslar onlayn tarzda davom ettirildi.

14. Teatrlar, kinoteatrlar, stadionlar, restoranlar, oshxonalar, kichik va katta buyum do'konlari, mehmonxonalar o'z faoliyatini epidemiologik holat barqaror bo'lguncha to'xtatdi.

15. Avia va temir yo'lining aholiga xizmat qilish turlari orqali Respublika hududlariga va chet elga chiqish vaqtincha to'xtatildi.

16. O'zbekiston fuqarolari zaruriy vaziyat vujudga kelmaguncha o'z xonadonlarida qolishlari va oilalar uchun karantin tashkillashtirildi.

17. Shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish qoidalari har kuni televideniya va radio kanallari orqali aholiga tushuntirib turildi.

18. Respublikaning barcha hududlarida jamoa joylar, ko'chalar, davlat tashkilotlari, aholi yashaydigan uylar, pod'ezdlarni doimiy har kuni dezinfeksiya qilish ishlari tashkil qilindi.

19. Aholidan kasallik yuqmasligi uchun burun va og'izni berkitib turish himoya niqoblarni kiyish qat'iy talab qilindi. Shu bilan birga aholining uch kishidan ko'p bo'lib yig'ilishi taqiqlandi. Shaxsiy mashinalarni maxsus ruxsatsiz boshqarish, skuterlar, velosipedlar bilan uydan tashqariga chiqish taqiqlandi.

20. Uyda bemorlar kuzatilsa, ularning issig'i chiqsa, kechiktirmasdan shifokorga murojaat qilish ta'kidlandi va maxsus tez yordam xizmati tashkil qilindi.

Aholi o'rtasida Covid-19 infeksiyasi aniqlanganda bemorlarni alohidalash, muloqotda bo'lganlarni aniqlash uchun sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi hududiy markazlari xodimlari, ichki ishlar xodimlari, milliy gvardiya jalb qilindi. Natijada Respublikada Covid-19 ning keng tarqalib ketishining oldi olindi.

ETIOLOGIYASI

Koronaviruslar (Coronaviridae) – RNK tutuvchi viruslar. Elektron mikroskop ostida ko'rilganda tojsimon (korona) ko'rinishiga ega. Ushbu viruslar tabiatda keng tarqalgan, odamlar va hayvonlar organizmida ko'payib kasallik tug'diradi.

Koronaviruslar RNK musbat zanjirga ega va o'ziga yarasha replikatsiya (qon hujayralar ichiga kirish) xususiyatga egaligi aniqlangan.

Hozirgi kunda antigenlik hususiyati bo'yicha koronaviruslar 4 guruhga bo'linadi: Alphacoronavirus, Betacoronavirus, Gammacoronavirus, Deltacoronavirus. Koronaviruslar odamlarda bir qancha respirator kasallarni keltirib chiqaradi – yengil shakldagi o'tkir respirator virusli infeksiyalar (O'RVI) to og'ir shakldagi o'tkir respirator kasalliklargacha (TORS yoki SARS).

Hozirgi davrda odamlar orasida yengil shakldagi mavsumiy o'tkir respirator kasalliklarni chaqiruvchi 4 xildagi (Hcov-229E, -OC43, -NL63 va HKU1) koronaviruslar va og'ir shakldagi respirator kasalliklarni chaqiradi, o'ta patogenlikoronaviruslar – yangi sharq respirator belgili (sindrom) kasallik virusi (MERS) va yangi paydo bo'lgan koronavirus infeksiyasi (Covid-19) virusi (SARS-Cov-2).

SARS-Cov-2 – RNK saqlovchi virus bo'lib, Coronaviridae oilasiga, Betacoronavirus turiga kiradi. Ushbu virus o'ta patogenligi tufayli, mikroorganizmlarning II guruh patogenligiga kiradi. Covid-19 qo'zg'atuvchi virus ko'rshapalaklarda uchrashi ham isbotlangan.

Hozirgi kunda koronaviruslarning xususiyatlari, antigen tuzilishlari o'zgaruvchanligi, immunologik mutanosibliigi monoklonal antitelalar hosil bo'lishi, interleykinlar o'zgarishi, test-sistemalar, davolash uslublarini yaratish borasida dunyoning ko'zga ko'ringan virusologlari, immunologlari, laboratoriya ilmiy xodimlari tomonidan ilmiy ishlar jadal olib borilmoqda.

Koronaviruslar tashqi muhitga chidamli. Kasallangan bemorlardan ajralgan viruslar +40°C – 30°C haroratda bir necha soatdan to 14 kungacha tashqi muhitda

saqlanib qoladi. Tashqi harorat $+40^{\circ}\text{C}$ – 50°C bo'lgan taqdirda ham viruslar tashqi muhitda bir necha kun saqlanib qolishi mumkin. Bemor organizmidan yo'talganda, aksa urganda ajralgan virus buyumlarda, qo'lda, uy predmetlarida 3 kundan to 7 kungacha saqlanib turadi. Virus 1.0% xlor va xlor tutuvchi moddalarga chidamsiz, 70% spirtga ta'sirchan. Koronavirus tarkibida lipidlar qobig'i bo'lganligi sababli ishqor tutuvchi sovun va ishqoriy moddalar ta'sirida tez nobud bo'ladi.

PATOGENEZI

Covid-19 infeksiyasining patogenezini yaxshi o'rganilmagan. Covid-19 virusi yuqori va quyi nafas yo'llarining epiteliy hujayralari va ichaklar enterotsitlari ichiga kirib olish qobiliyatiga ega. Epiteliy va enterotsitlar qobig'idagi angiotenzin – o'zgarib II fermentga (APF2) aylanadi. Shu omil viruslarning hujayralarga kirib olish qobiliyatini oshiradi. Viruslar nafas olish organlari, qizilo'ngach, ichak, yurak, bosh miya gipofiz hujayralarni qobig'ida joylashadi. Ammo SARS-Cov-2 virusning ko'proq to'planadigan asosiy joyi alveolalar hujayrasidir. Ko'p holda bemorlarda rinofarengit yoki enterit jarohatlanishi kuzatiladi, isitma chiqmaydi (subklinik shakli). Ayrim bemorlarda viruslar jarohatlashi hech qanday klinik belgilarsiz kechadi (Innaparat shakli), ammo, bunday bemorlar viruslarni tashqariga chiqarib turishi aniqlangan, ular virus tashuvchilik holatini vujudga keltiradi. Bemorlarda ikkilamchi immunitet tanqisligi kuzatiladi va viruslar qonga o'ta boshlaydi. Virus qobig'idagi lipidlar ya'ni koronavirus glikoproteini bemor endoteliotsitlariga, ya'ni yurak, buyrak va boshqa organlar kapillyar qon tomir hujayralariga nisbatan tropik xususiyatga ega bo'lganligi uchun viruslar tez orada qonga o'tadi.

Covid-19 virusining angiotenzin – retseptori, ferment II ga aylanadi. Bemor organizmining barcha organlaridagi kapillyarlar jarohatlanishi kuzatiladi. Birin-ketin parenximatoz organlarda destruksiya, degradasiya, hattoki nekroz kuzatiladi. Covid-19 da asosiy jarohatlanish parenximatoz organlarning funksional yetishmasligiga olib keladi. Destruksiya jarayoni yuqori va quyi nafas yo'llarida kuzatiladi. Shu tufayli bemorlar yo'talganda, aksirganda, gapirganda juda ko'p miqdorda viruslarni tashqi muhitga chiqaradi. Birlamchi virusemiya, endovaskulit, destruksiya, degradatsiya, nekroz bemor isitmasini ko'taradi, intoksikatsiya alomatlarini vujudga keltiradi.

Koronavirus Covid-19 ning eng ayanchli klinik ko‘rinishi o‘pkaning diffuz yallig‘lanishi (pnevmoniya). Shu bilan boshqa organlar funksional yetishmasligi kuzatiladi. Shuni qayd etish kerakki, Covid-19 virusi surunkali kasalliklari bor bemorlarda va yoshi katta bemorlarda shiddatli rivojlanadi. Ushbu bemorlar orasida o‘lim holatlari ko‘payadi.

Surunkali yurak xastaligi, surunkali o‘pka xastaligi, surunkali jigar, buyrak kasalligi bo‘lgan bemorlar, hamda qandli diabet kasalligi bor bo‘lgan bemorlar Covid-19 ga moyilligi juda yuqori va xastalikning birinchi kunidan boshlab asoratlar rivojlanadi.

Covid-19 kasalligini boshidan o‘tkazgan bemorlarda immunitet shakllanadi va uzoq vaqt saqlanib turadi. Ikkilamchi immuniteti past bo‘lgan bemorlarda, hamda kasallikni subklinik, innaparat shaklda boshidan kechirgan bemorlarda immunitet sust shakllanadi. Shu tufayli ushbu bemorlarda koronavirus infeksiyasi bilan qayta kasallanishi holati bo‘lishi mumkin. Maxsus immunitet boshqa guruhga mansub koronavirus chaqirgan kasallikdan himoya qila olmaydi.

Covid-19 infeksiyasining patogenezida quyidagi bosqichlar kuzatiladi:

1-bosqich. Viruslarning organizmga kirish bosqichi. Covid-19 epiteliotrop va toksigen xususiyatga ega bo‘lganligi uchun yuqori nafas yo‘llaridagi epiteliy hujayralarini zararlaydi. Zararlangan epiteliy hujayralarda viruslarning tez ko‘payishi kuzatiladi.

2-bosqich. Yuqori nafas yo‘lidagi zararlangan epiteliy hujayralarida kuchli degradatsiya, deskvamatsiya, kapillyar tomirlarning yemirilishi, zararlangan epiteliylarning yemirilishi va viruslarning tashqi muhitga chiqishi kuzatiladi. Bemorlarda yuqori nafas yo‘llarining kataral yallig‘lanishi qayd etiladi.

3-bosqich. Infektsion-allergik o‘zgarishlar davri. Ushbu bosqichda bemor organizmining yuqori nafas yo‘llarida autoallergiya jarayoni, toksikoz (zaharlanish) kuzatiladi. Og‘izda maza bilmaslik, yuqori isitma, quruq yo‘tal, nafas olishning qiyinlashishi, hid sezmaslik, laringit, trixeit, bronxit, soxta krup, bronxialit alomatlari kuzatiladi. Hid va ta‘m bilmaslik virusning markaziy asab tizimiga o‘tib, hid bilish nervlarini jarohatlashi bilan bog‘liq.

4-bosqich. Virusli-bakterial jarohatlanish davri. Bemor organizmida virusemiya, toksinemiya va bakterial jarohatlanish kuzatiladi. Bemorlarda ikki taraflama bronxit, ikki taraflama pnevmoniya, miokardit, entsefalit, seroz

meningit, nefrit kabi klinik ko‘rinishlar asorat sifatida kuzatiladi. Covid-19 bilan kasallangan bemorlarda og‘ir pnevmaniya, o‘tkir nafas yetishmasligi, og‘ir miokardit, o‘tkir buyrak yetishmasligi kuzatiladi. Qon quyuqlashuvi natijasida, giperkoagulyatsiya, tromboz hollari ham kuzatilishi mumkin.

5 - bosqich. Immunitetning jadallanish va antitelalar chiqish davri. Ushbu davrda bemorlar qonida virusga qarshi maxsus aglyutininlar, gemagglyutininlar, hujayra immuniteti, ayniqsa qon hujayra immunitetlari shakllanadi. Demak, Covid-19 chaqirgan kasallik patogenezida birlamchi virusemiya, viruslar toksinlari, ikkilamchi endogen bakteriyalarning faollashishi, xastalikning kechishi, asoratlari va oqibatlari tuzalgandan so‘ng virusga qarshi immunitetni shakllantiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, Covid-19 ning toksini hamda allergik jarayoni eng avval markaziy va periferik asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada bemor organizmi kapillyar va qon tomirlarining zararlanishiga olib keladi. O‘z vaqtida ikkilamchi bakteriyalar faolligining oshishi og‘ir asoratlarga (pnevmoniya) olib kelishi va ushbu asoratlardan o‘lim holatlari qayd etilishi mumkin. O‘lim holatining ko‘payishi Covid-19 ni o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar guruhiga mansubligini isbotlaydi.

Endogen bakterial flora (streptokokk, stafilokokk, pnevmokokk va h.k.) Covid-19 xastaligining og‘ir kechishi, kasallikning cho‘zilishi, og‘ir bronxit, pnevmoniya, laringotraxeit, miokardit, nefrit, seroz meningit, meningoentsefalit kabi asoratlar sababi hisoblanadi. Chunki endogen bakteriyalar nafas olish tizimining himoya funksiyasini keskin kamaytiradi. Natijada allergiya (virusli) autoallergiya, ikkilamchi immunodefitsit holati rivojlanadi.

PATOLOGIK ANATOMIYASI

Covid-19 infeksiyasini boshidan o‘tkazgan bemorlarda morfologik o‘zgarishlar kasallikning og‘irligi va davriga qarab har xil ko‘rinishda bo‘ladi.

Kasallikning dastlabki davrida (eksudativ davr) alveolalar jarohatlanishi, o‘tkir bronxeolit, alveolararo to‘qimaning yallig‘lanishi, shish (otek) intersatsial to‘qimaning gemorragik suyuqlik bilan to‘lishi kuzatiladi. Makroskopik ko‘rilganda o‘pka to‘q qizil rangda, qonli bo‘ladi, o‘pka qalinlashadi. O‘pkaning vazni oshadi. Gistologik tekshirishda xarakterli gistologik o‘zgarishlar kuzatiladi, mayda tomirlarda trombozlar qayd qilinadi.

Alveola va bronxiolalardagi epiteliyal hujayralarning yallig'lanishi oqibatida jalin membranalarda fibringa boy suyuqlik yig'iladi. Shu bilan birga o'lgan epiteliyal hujayralar bilan birga fibroz to'qimasi o'pkani qamrab oladi. Fibrozlar alveolalarning va mayda bronxlarning ichida va tashqi intersetsial bo'shliqni egallaydi (fibrozli alveolit, fibrozli bronxeolit, fibrozli pnevmoniya). Fibrozlar keyinchalik granulyatsion to'qimaga aylanadi, o'pkaga havo kirish to'xtaydi. O'pka alveolalari, bronxlardagi epiteliyal nekrozga va metoplazmaga uchraydi. Hujayralar va to'qimalardan gialuron kislotasini chiqarib yuborishi va ular bilan alveolyar bo'shliqni to'ldirishi va alveolalarda gaz almashinuvining buzilishi bilan hujayralararo to'qima va o'pka tomirlari devorlariga zarar etkazadi (o'pkada muzli shisha) va o'pkaning mayda tomirlarida tromblar paydo bo'ladi.

COVID-19 EPIDEMIOLOGIYASI

Covid-19 ning epidemiologiyasi hozirgi kunda o'rganilayapti. Birinchi bo'lib ushbu infeksiya Xitoy Xalq Respublikasida qayd etildi (XXR) va ushbu davlatning barcha hududlariga tarqaldi. Ushbu infeksiyaning epidemik o'chog'i Xubey provinsiyasi hisoblanadi. 2020-yil yanvar oyining oxirlarida ko'pgina mamlakatlarda XXRga borib kelgan shaxslar orasida kasallik qayd qilina boshladi. Fevral oyining oxirlarida epidemiologik vaziyat Janubiy Koreyada, Eronda va Italiyada yomonlashdi, keyinchalik esa ushbu vaziyat dunyoning ko'pgina mamlakatlarida kuzatildi.

Ushbu pandemiyaning birlamchi kasallik manbai aniqlangani yo'q. XXR Uхань (Xubey provinsiyasi) shahrida qayd etilgan birinchi kasallik so'rab surishtirilganda, bemor bozordan dengiz baliqlari, ekzotik hayvonlar go'shtini (ilon, ko'r shapalak, pangolitlar) pishirmasdan, yarim pishirilgan holda iste'mol qilganligi aniqlandi.

Covid-19 infeksiyasining epidemiya va pandemiya shaklida kechishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi.

1. Aholining zichligi
2. Aholining migratsiyasi (chet elga chiqib kelishi)
3. Aholi yashaydigan xonalar va maydonlarning sanitariya-gigiena holatining yomonligi.

4. Aholining uch nafar va undan ortiq holda bir joyga yig'ilishi (to'ylar o'tkazish, konsertlarda, san'at saroylarida aholining yig'ilishi, umumiy ovqatlanish xonalariga bir vaqtda yig'ilish)

5. Bolalarning bog'chalarga va maktablarga borib guruhlar va sinflarda yig'ilishi.

6. Oliy va o'rta ta'lim institut va universitetlarida, kollejlarda ta'lim olayotgan talabalarning bir joyda yig'ilishi.

7. Epidemiya kuzatilayotgan vaqtda fuqarolar to'ylar va ma'rakalar o'tkazishi.

8. Epidemiya kuzatilayotgan vaqtda fuqarolarning masjidlarga, senagoglarga, cherkovlarga borishi.

9. Oilaviy poliklinika va shifoxonalarda koronavirus bilan kasallangan fuqarolarni tashxis qo'ymasdan qabul qilish va davolash.

10. Shaharlarda va viloyat hududlarida maxsus ruxsatnomasi bo'lmagan shaxsiy avtomashinalarda odam olib yurish.

11. Chet eldan kelayotgan O'zbekiston va chet el fuqarolarini tekshiruvdan o'tkazmasdan turib shaharga kiritish.

Ushbu omillar Covid-19 infeksiyasining keng tarqalib epidemiyaga va pandemiya shakliga o'tishiga sabab bo'ladi. Hozirgi paytga (2021 yil aprel) kelib ushbu kasallik dunyoning 213 dan ortiq mamlakatlarida qayd qilingan.

Butun dunyoda Covid-19 bo'yicha epidemiologik vaziyat 2021 yil 24 aprel holatiga ko'ra:

Kasallanganlarning umumiy soni – 146 253 173 nafar;

O'lganlar – 3 099 626 nafar.

Dunyoda Covid-19 bilan kasallanish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan mamlakatlar (2021-yil 24-aprel holatiga)

1. AQSh – 32 735 704
2. Hindiston – 16 602 456
3. Braziliya – 14 238 110
4. Frantsiya – 5 440 946
5. Rossiya – 4 744 961
6. Turkiya – 4 550 820
7. Buyuk Britaniya – 4 401 109

Jadval-1**O‘zbekiston Respublikasining har xil hududlarida Covid-19 tarqalganligi
(2021-yil 23-aprel holatiga)**

№	Hududlar	Qayd etilgan bemorlar soni	Sog‘ayganlar	
			Abs.	%
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	999	954	95
2	Andijon viloyati	2426	2388	98
3	Buxoro viloyati	1660	1607	97
4	Jizzax viloyati	956	912	95
5	Qashqadaryo viloyati	1675	1648	98
6	Navoiy viloyati	741	723	98
7	Namangan viloyati	2824	2794	99
8	Samarqand viloyati	3143	2969	94
9	Sirdaryo viloyati	1381	1346	97
10	Surxondaryo viloyati	1197	1160	97
11	Farg‘ona viloyati	953	939	99
12	Xorazm viloyati	1046	1035	99
13	Toshkent viloyati	16917	16424	97
14	Toshkent shahri	52761	50637	96
15	Respublika bo‘yicha	88679	85536	97

Bemorlar yo‘talganda, aksirganda va balg‘am chiqarganda kasallik sog‘lom odamga yuqadi. Ayrim bemorlarda fekal-oral yo‘l bilan ham kasallik yuqishi mumkin. Covid-19 virusi tashqi muhitga chiqsa, oziq-ovqatlarni, ro‘zg‘orda ishlatiladigan idish tovoqlarni, suvni va boshqa predmetlarni zararlashi mumkin.

Covid-19 yuqori kontagioz infeksiya bo‘lib bemor bilan yaqin muloqotda bo‘lganlarga tez yuqadi, tibbiyot xodimlarining kasallanganligini bunga misol qilsa bo‘ladi.

Covid-19 epidemik jarayonining kelib chiqishida va rivojlanishida 3 ta bo‘g‘in (zveno) qatnashadi.

Birinchi bo‘g‘in kasallik qo‘zg‘atuvchisining manbai (subklinik, inapparat holda kechgan bemorlar, yengil, o‘rta og‘ir va og‘ir shaklda kechgan bemorlar, virus tashuvchi)

Ikkinchi bo‘g‘in – yuqish yo‘llari, yuqish mexanizmi.

A) havo-tomchi

B) maishiy-muloqot

V) fekal-oral

Ushbu yuqish yo‘llari orqali Covid-19 bemor va virus tashuvchidan sog‘odamlarga yuqadi.

Uchinchi bo‘g‘in - Covid-19 ga nisbatan aholining moyilligi. Ushbu kasallik virusi ilgari aholi orasida tarqalmaganligi, aholi bu virus bilan to‘qnashmaganligi tufayli, aholi orasida populyatsion immunitet yo‘q. Shuning uchun ham aholining moyilligi yuqori. Ushbu infeksiya bilan barcha yoshdagi kishilar kasallanadi. Yosh bolalarda kasallik yengil, sublinik shaklda kechsa, katta yoshdagi kishilar va qariyalarda ushbu infeksiya og‘ir va o‘ta og‘ir shaklda kechadi.

Yo‘ldosh (qo‘shimcha) kasalliklari bo‘lgan kishilarda (surunkali o‘pka kasalliklari, surunkali yurak-tomir kasalliklari, surunkali jigar va buyrak kasalliklari, qandli diabet kasalliklari) Covid-19 og‘ir, o‘ta og‘ir va asoratli o‘tadi.

Covid-19 epidemiologik nuqtai nazardan qisqa muddat ichida aholi o‘rtasida keng tarqalishi (epidemiya) va pandemiya holatini vujudga keltiruvchi infeksiya hisoblanadi.

Kasallik qo‘zg‘atuvchisining manbai.

Covid-19 infeksiyasining manbai odamlar. Ushbu kasallik (antroponoz) ya’ni faqat inson organizmini jarohatlash qobiliyatiga ega. Covid-19 bemorlari inkubatsion davrning oxirgi 2 kunida kasallikning dastlabki belgilari boshlanganda tashqi muhitga viruslarni chiqara boshlaydi. Virus kasallikning avj olgan davrida, ayniqsa pnevmoniya asorati qayd etilganda maksimal holatda tashqi muhitga chiqish qobiliyatiga ega. Shuni ta’kidlab o‘tish zarurki, belgisiz, yengil holda kechgan bemorlar epidemiologik nuqtai nazardan eng xavfli guruhga kiradi.

Chunki ushbu guruhga mansub bemorlar ko‘pchilik bilan muloqotda bo‘ladi va kasallikning keng tarqalishiga sababchi hisoblanadi. Kasallikning belgisiz kechishi ham epidemiologik nuqtai nazardan xavfli hisoblanadi. Ushbu bemorlar koronavirus infeksiyasini sog‘lomlarga ko‘proq yuqtiradilar.

Xulosa qilib aytganda, koronavirus infeksiyasini yuqtirgan har bir bemor epidemiologik nuqtai nazardan xavfli hisoblanadi. Bir nafar bemor o‘rtacha 400-500 kishiga kasallikni yuqtirishi mumkin.

Kasallikning yuqish yo‘llari.

Covid-19 ning yuqish yo‘llari 3 xil.

a) havo-tomchi

b) maishiy-muloqot

v) fekal-oral

A) Covid-19 ning keng tarqalishida asosiy yuqtirish yo‘li havo-tomchi yo‘li hisoblanadi. Bemor yo‘talganda, aksirganda va nafas olib chiqarganda koronaviruslarni tashqi muhitga chiqara boshlaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, virus bemor yo‘talganda, aksirganda, chiqargan tomchi suyuqligi tarkibida tashqi muhitga chiqadi. Havo tomchi yo‘li bilan tashqi muhitga chiqqan viruslar bemor qo‘lini, ko‘z shillik pardasini, tashqi muhitdagi predmetlarni zararlaydi. Bemorlar kasallik davrida gigiyenik himoya niqobini tutmagan bo‘lsa, viruslarni tashqi muhitga maksimal ravishda chiqaradi.

B) Koronaviruslarning yuqori muloqot xususiyatga ega bo‘lganligi sababli maishiy-muloqot yo‘li bilan yuqishi kuzatiladi. Tashqi muhitga chiqqan viruslar sochiqda, dastro‘molda, yuvish jo‘mraklarida, pulda, temirda, inson tanasida 2 kundan to 7 kungacha saqlanadi. Ushbu predmetlarni sog‘lom odamlar ishlatsa, kasallikni o‘ziga yuqtirishi mumkin. Epidemiologik tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki, sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilmagan insonlarga Covid-19 boshqa odamlarga nisbatan ko‘proq yuqishi kuzatilgan.

V) Fekal-oral yo‘li bilan Covid-19 bemor odamdan sog‘lom odamga yuqishi isbotlanmagan. Lekin shuni ta’kidlash lozimki, koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar balg‘ami bilan viruslar katta miqdorda oshqozon-ichak traktiga tushadi va bemor najasi orqali tashqi muhitga chiqadi. Ushbu holat ko‘pincha bemor bolalarda kuzatiladi. Sanitariya-epidemiologiya qoidalarini buzgan ota-onalar, bemor bolaning yaqinlari ushbu kasallikni o‘zlariga fekal-oral yo‘li bilan yuqtirishi mumkin.

Covid-19 kasalligiga moyillik

Covid-19 bo'lgan moyillik o'ta yuqori.

Ushbu kasallik bilan chaqaloqlar, yosh bolalar kasallanganligi kuzatilgan. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda ushbu kasallik butun dunyoda qayd etilgan. Chaqaloqlar va yosh bolalarda o'tkazilgan tajribalar hozircha ularda immunitet nechog'lik davom etishi yaxshi o'rganilmagan. Koronavirus infeksiyasini boshidan o'tkazganlarda immunitet qay holda saqlanib qolishi, aglyutininlar, gemaglyutipinlar, komplimentlar holati, hujayra immuniteti holati yaxshi o'rganilmagan. Umumiy kasallanganlarning 10.0%-15.0% 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qiladi. Asosiy kasallar 15 yoshdan yuqoridagilarda qayd etilgan. Shuni qayd etish kerakki, ushbu infeksiya 60 yosh va undan kattalarda og'ir o'tishi natijasida o'lim ko'rsatkichi yuqoriligi xarakterlidir. Shu bilan birga Covid-19 odam organizmining immun tizimidagi yetishmasligiga bevosita bog'liqligi ham isbotlangan.

Hozirgi kunda Covid-19 infeksiyasining mavsumiyligi aniqlanmagan.

Covid-19 virusi +40⁰S dan to 50⁰S gacha saqlanib qolib, viruslar kuchayishi isbotlangan. Demak, ushbu infeksiya yoz oylarida ham davom etishi mumkin.

Covid-19 ning standart ta'rifi

Shubhali holat – O'tkir respirator infeksiya (O'RI) klinik belgilari mavjud (tana harorati 37,5⁰C dan baland, aniq tashxis bo'lmagan quyidagi klinik belgilardan birontasi yoki bir nechtasi mavjud bo'lsa: quruq yo'tal, hansirash, ko'krak qafasida siqilish sezish, pulsoksimetrda qonning kislorod bilan to'yinganligi (SpO₂) ≤ 95%, tomoqda og'riq, burun bitishi, hid bilish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qolishi (giposmiya yoki anosmiya) ta'm bilish qobiliyatining yo'qolishi (disgevziya), kon'yuktivit, lohaslik, mushaklarda og'riq, bosh og'rig'i, qusish, ich ketishi, terida toshmalar paydo bo'lishi).

Ehtimolli (klinik jihatdan tasdiqlangan) holat

O'tkir respirator infeksiya (O'RI) klinik belgilari mavjud (tana harorati 37,50 dan baland, aniq tashxis bo'lmagan quyidagi klinik belgilardan birontasi yoki bir nechtasi mavjud bo'lsa: quruq yoki balg'amli yo'tal, hansirash, ko'krak qafasida siqilish sezish, (SpO₂) ≤ 95%, tomoqda og'riq, burun bitishi, hid bilish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qolishi (giposmiya yoki anosmiya) ta'm bilish

qobiliyatining yo‘qolishi (disgevziya), kon’yuktivit, lohaslik, mushaklarda og‘riq, bosh og‘rig‘i, qusish, ich ketishi, terida toshmalar paydo bo‘lishi).

Quyidagi epidemiologik belgilardan hech bo‘lmaganda birontasi mavjud bo‘lsa:

Klinik belgilari paydo bo‘lgunicha 14 kun mobaynida xorijiy mamlakatlarga borganligi;

Kasallik boshlangunicha 14 kun oldin nazoratdagi Covid-19 bemori bilan yaqin muloqatda bo‘lganligi;

Kasallik boshlangunicha 14 kun oldin, Covid-19 tashxisi laboratoriyada tasdiqlangan bemor bilan muloqatda bo‘lganligi;

Covid-19 ga shubha qilingan yoki tashxisi tasdiqlangan kishi bilan ish yuzasidan muloqatda bo‘lganligi.

PZRda SARS-Cov-2 ga tekshirilishidan va epidemiologik anamnezidan qat’iy nazar yuqorida 1-punktida ko‘rsatilgan klinik belgilar bo‘lsa, shu bilan birga kompyuter tomografiyasida o‘pkada patologik belgilar aniqlansa.

PZRda tekshirish imkoniyati bo‘lmasa, kompyuter tomografiyasida o‘pkada patologik belgilar aniqlansa, yuqorida 1-punktida ko‘rsatilgan klinik belgilar mavjud bo‘lsa.

Tasdiqlangan holat

1. Klinik belgilar bo‘lishi yoki bo‘lmasligidan qat’iy nazar SARS-Cov-2 ning RNK si yoki antigeni PZR usuli bilan laboratoriyada aniqlansa.

2. Covid-19 klinik jihatdan tasdiqlangan kishida IgA, IgM, IgJ antitelolar aniqlansa.

Muloqatda bo‘lgan shaxs - Covid-19 tashhisi klinik jihatdan tasdiqlangan (ehtimolli holat) yoki laboratoriyada tasdiqlangan Covid-19 tashxisi bo‘lgan bemorlar bilan ularda kasallik belgilari paydo bo‘lguncha 2 kun oldin yoki kasallikning 14 kun davomida muloqatda bo‘lgan kishilar. Bunday muloqot bemor bilan 1 metrdan kam bo‘lgan masofada 15 daqiqa mobaynida bo‘lishi mumkin. Himoya kiyimlarini kiymasdan bemorni parvarish qilishda sodir bo‘lishi mumkin.

Epidemiologik nazorat

Epidemiologik nazoratning maqsadi odamlar orasida Covid-19 kasalligi virusi tarqalishini kamaytirish, ushbu kasallik bilan bog‘liq bo‘lgan kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlarini kamaytirishdir.

Epidemiologik nazoratning vazifalari:

Bemorlarni tezlik bilan aniqlash, ularni alohidalash, laboratoriyada tekshirishni va nazoratni tashkil qilish;

Covid-19 bilan bog‘liq bo‘lgan o‘lim holatlarini kamaytirish;

Muloqotda bo‘lganlarni aniqlash va ularni nazoratga olish, karantin chora-tadbirlarini o‘tkazish;

Kasallikning avj olish holatlarini, ayniqsa xavfli guruh aholi orasida ko‘payishini aniqlash;

Pandemiyaning sog‘liqni saqlash tizimiga va jamiyatga ta‘sirini baholash;

Kasallikning ko‘p yillik dinamikasini va SARS-Cov-2 virusining evolyutsion o‘zgarishini kuzatish;

SARS-Cov-2 virusi bilan gripp va boshqa respirator kasalliklari viruslarining birgalikda yashashi va aholi orasida aylanib yurishini o‘rganish;

Epidemiologik nazoratdan foydalanish

Covid-19 ustidan bo‘ladigan epidemiologik nazorat, mamlakatda foydalanilayotgan epidemiologik nazoratni moslashtirishni va uni mustahkamlashni talab qiladi.

Covid-19 ustidan tashkil qilingan epidemiologik nazoratdan ba‘zi hududlarda kasallanish holatlari va virus tarqalishi to‘xtatilgandan keyin ham foydalanish mumkin. Bunday nazorat yangi paydo bo‘ladigan sporadik holatlarni va Covid-19 avj olishlarini o‘z vaqtida aniqlashga yordam beradi.

Covid-19 ning epidemiologik nazorati quydagilarni o‘z ichiga oladi:

– odatdagi epidemiologik nazorat tizimidan foydalanish, uni moslashtirish va mustahkamlash;

– laboratoriyalar imkoniyatini kuchaytirish;

– kasallik holatlarini, muloqotda bo‘lganlarni o‘z vaqtida aniqlash uchun jamoat sog‘liqni saqlash va sanitariya-epidemiologiya xizmati sohasidagi kadrlar imkoniyatidan kengroq foydalanish, ularni vaziyatga moslashtirish;

– Covid-19 kasalligi aniqlanganda sog‘liqni saqlash vazirligiga albatta xabar beriladigan kasalliklar ro‘yxatiga kiritish;

– kasallanishning hisob-kitobini o‘z vaqtida va muntazam olib borish;

Muloqotda bo‘lganlarga qilinayotgan chora-tadbirlarni monitoring qilib boradigan tizim yaratish.

Tibbiy-sanitariya yordamining birlamchi zvenosida epidemiologik nazorat

Bunday epidemiologik nazorat jamoada paydo bo‘ladigan sporadik kasalliklarni aniqlashga yordam beradi.

Covid-19 kasaligiga gumon qilingan yoki tasdiqlangan bemorlar aniqlanganda zudlik bilan 24 soat ichida tuman sog‘liqni saqlash bo‘limiga, tuman sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat sog‘ligini saqlash xizmati markazlariga xabar berish kerak. O‘z vaqtida va tezlik bilan qilingan hisobot va tahlil yangi paydo bo‘lgan bemorlarni va muloqotda bo‘lganlarni aniqlashga va ular orasida chora-tadbirlarni tashkil qilishga yordam beradi.

Shuning uchun har bir holat uchun eng kamida quyidagi axborotlarni yig‘ish lozim: bemorning yoshi, jinsi, yashash manzili, kasallik boshlangan vaqti, tekshiruv (test) natijalari.

Shifoxonalar (bolnitsa) darajasida epidemiologik nazorat

Covid-19 kasaligiga gumon qilingan yoki tashxisi tasdiqlangan bemorlar shifoxonaga yotqizilgandan keyin 24 soat ichida sog‘liqni saqlash organlariga xabar berish kerak.

Bemor haqida quyidagi ma’lumotlar beriladi:

– yoshi, jinsi va yashash manzili;

– kasallik boshlangan davri, tekshirishga namuna olingan payti, shifoxonaga yotqizilgan vaqti;

– laboratoriya tekshiruvining turi va natijasi;

– bemor tibbiyot xodimi bo‘lsa uni ko‘rsatish kerak;

– xabar berilayotgan paytida bemorning ahvoli (bemor shifoxonaga yotqizilgan, sun‘iy nafas oldirishda yotibdi, reanimatsiya bo‘limiga qabul qilindi va h.k.);

– kasallikning natijasi (shifoxonadan chiqib ketgan yoki o‘lgan kuni).

Dozorli epidemiologik nazorat

Bunday epidemiologik nazoratda maxsus (dozor) uchastkalarda Covid-19 ga qo'shimcha tekshiruvga (dopolnitelnoe testirovanie) ajratilgan bemorlar bir xil aholi guruhi vakillari, har xil jinsli, har xil yoshdagi kishilar bo'lishi maqsadga muvofiq.

Dozorli epidemiologik nazorat yordamida aniqlangan Covid-19 bemorlari davlat hisobotiga kiritilishi lozim, ular haqida tegishli kanallar orqali axborot berilishi kerak.

Dozorli epidemiologik nazoratning afzalligi shundaki, bunday nazoratda laboratoriya tekshiruvi tizimli standart asosida o'tkaziladi. Bunday laboratoriya tekshiruvi natijalariga, boshqa kasalliklarda, jumladan grippga o'xshash kasalliklar, o'tkir respirator infeksiyalar yoki zotiljamda o'tkaziladigan tekshiruv natijalari ta'sir ko'rsatmaydi.

Yil mobaynida o'tkir respirator kasalliklarda o'tkaziladigan dozorli epidemiologik nazoratda olinadigan namunalarni, Covid-19ga ham tekshirish tavsiya etiladi.

O'lim darajasining epidemiologik nazorati

Shifoxonalarda Covid-19 tufayli sodir bo'lgan o'limlar soni haqida har kuni hisobot beriladi. Boshqa muassasalarda, uy sharoitida Covid-19 tufayli sodir bo'lgan o'lim holatlari haqida har kuni, hech bo'lmaganda har haftada axborot berilishi lozim.

Shifoxonalarda va shifoxonalardan tashqarida Covid-19 tufayli sodir bo'lgan o'limlar haqidagi axborotda bemorning yoshi, jinsi va o'lgan joyi ko'rsatilishi kerak.

Serologik epidemiologik nazorat

Ma'lum guruh aholini maxsus serologik usullar yordamida tekshirib, ulardagi antitelolar darajasini aniqlash, ushbu guruh aholisi orasida SARS-Cov-2 virusi bilan zararlanganlar ulishini aniqlashga yordam beradi. Doimiy o'tkaziladigan serologik epidemiologik nazorat butun aholi orasida yoki aholining ma'lum guruhlarida (masalan ma'lum bir yoshdagi aholi guruhlari orasida) kasallikning tarqanganlik darajasini baholashga yordam beradi.

COVID-19 Infeksiyasining klinikasi

COVID-19 o'ta kontagiozli, o'tkir respirator, virusli infeksiya bo'lib, umumiy intoksikatsiya, yuqori va quyi nafas yo'llarining yallig'lanishi, respirator

belgilar, isitma, laringo-traxeit, bronxit, bronxiolit, total pnevmoniya bilan kechadigan, o'lim beradigan og'ir yuqumli kasallik hisoblanadi.

Kasallik davrlari:

1. Inkubatsion davr
2. Xastalikning boshlanish davri
3. Nafas yo'llarining yallig'lanishi davri (avj olgan davr)
4. Asoratlar davri (pnevmoniya-zotiljam)
5. Tuzalish davri
6. Rekonvalesentsent davri.

Yashirin davri odatda 2-14 kun bulib o'rtacha 5-7 kunni tashkil etadi.

Covid-19 o'tkir respirator virusli infeksiyalarga xos bo'lgan klinik belgilar bilan kechadi:

- Tana haroratining ko'tarilishi ($> 90\%$) holatlarda;
- Yo'tal (quruq yoki kamroq balg'amli) 80% holatlarda;
- Hansirash 30% holatlarda;
- Charchoq his qilish 40% holatlarda;
- Ko'krak qafasining siqilishi seziladi ($> 20\%$);

Shu bilan birga tomoqda og'riq, burun bitishi, hid bilan ta'm bilish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qolishi, kon'yuktivit belgilari ham kuzatilishi mumkin. Kasallikni yuqtirgandan 6-8 kunlari nafas olish juda qiyinlashadi.

Bemorlarda kasallikning dastlabki kunlarida mushak og'rig'i, mialgiya (11%), bosh og'rig'i (8%), qon tuflash (2-3%), ich ketishi (3%), qusish, yurak urishining tezlashuvi kuzatilishi mumkin.

Covid-19ning klinik shakllari.

- O'RVİ (faqat yuqori nafas yo'llari shikastlanishi;
- Pnevmoniya (nafas yetishmasligi alomatlari yo'q);
- O'tkir respirator distress sindromi (o'tkir nafas yetishmasligi bilan kechuvchi pnevmoniya);
- Sepsis, septik infeksiyon-toksik shok;
- DBCsindromi, tromboz va trombo emboliya.

Gipoksimiya (saturatsiya $-SPO_2 < 88\%$) 30%dan ko'proq bemorlarda kuzatiladi.

Kasallikning og'ir yoki yengil kechishiga binoan Covid-19 tasnifi.

Yengil shakli

Tana harorati 38,5° darajadan past, 3 kundan ko‘p emas, yo‘tal, holsizlik, tomoqda og‘riq.

KT-15% jarohat, – SPO2-94%

O‘rtacha og‘irlikdagi shakli

Tana harorati 38,5° darajadan yuqori, 4-5 kundan ortiq.

Nafas olish tezligi bir daqiqada 22 tadan ko‘p

SPO2 < 93%

Jismoniy harakatda hansirash

Kompyuter tomografiyada (rentgen tekshiruvda) o‘pkada, virusli kasalliklarda kuzatiladigan o‘zgarishlar bo‘lishi (jarohat hajmi kamroq yoki o‘rtacha, KT 1-2, 25-50%)

Qon plazmasidagi SRB>10mg/l

Og‘ir shakli

Nafas olish tezligi bir daqiqada 24 tadan ko‘p

SPO2<93%

PaO2/Fi O2<300ml simob ustuni

Es hushning pasayishi

To‘rg‘un bo‘lmagan gemodinamika (qon bosimi 90/60dan kam, siydik ajralishi soatiga 20ml.dan kam)

Kompyuter tomografiyada (rentgen tekshiruvda) o‘pka virusli kasalliklarida kuzatiladigan tipik o‘zgarishlar (jarohat hajmi anchagina KT 3-4, 50-75%)

Arterial qondagi loktat >2 mmol’/l

O‘ta og‘ir shakli

Doimiy febril harorat

O‘tkir respirator distres sindromi

O‘tkir nafas yetishmovchiligi (sun’iy nafas oldirish shart)

Septik shok

Ko‘pgina organlarning funksiyasi buzilgan

Kompyuter tomografiyada (rentgen tekshiruvda) o‘pka virusli kasalliklarida kuzatiladigan tipik o‘zgarishlar (jarohat hajmi juda katta KT 4)

Odatda virus yuqtirganlarning yarmida (50%) kasallik belgilarsiz kechadi. Klinik belgilari mavjud bo‘lgan bemorlarning 80% kasallik yengil, o‘tkir respirator virusli infeksiya shaklida o‘tadi. Xitoy xalq respublikasida qayd

qilingan, tashxisi tasdiqlangan bemorlarning 15% og‘ir, 5% o‘ta og‘ir shaklda uchragan.

Kasallikning og‘ir va o‘ta og‘ir shakllari ko‘proq katta yoshdagi qariyalarda, qo‘shimcha kasalliklari (qandli diabet, gipertoniya va boshqa yurak-qon tomir kasalligi) mavjud bo‘lgan kishilarda kuzatilgan.

Katta yoshli qariyalarda kasallikning klinik xususiyatlari.

Qariyalarda kasallikning atipik shakllari (haroratsiz, yo‘talsiz, hansirash kuzatilmadan) bo‘lishi mumkin.

Ko‘pincha Covid-19 klinik belgilari yengilroq, kasallikning og‘irligiga mos kelmasligi mumkin, bunday holat kasallik oqibatlarini jiddiy bo‘lishiga to‘g‘ri kelmaydi.

Qariyalarda Covid-19 organizm funksiyalarining buzilishi, yiqilib tushishga, konyuktivlarga, taxikardiya va qon bosimining tushib ketishiga sabab bo‘ladi.

Covid-19 ning jiddiy asoratlari (pnevmoniya, distress sindromi, ko‘pgina organlar funksiyasining buzilishi) ko‘pincha qariyalarda va qo‘shimcha kasalliklari bor kishilarda kuzatiladi.

Viruslarning o‘ta patogenligi, toksigenligi, organizm immun tizimining jarohatlanishi xastalikning og‘ir asoratlariga olib keladi.

Asoratlar bo‘lishiga olib keladigan omillar:

- qandli diabet;
- yurak qon-tomir kasalligining surunkali kechishi;
- surunkali o‘pka kasalligi;
- surunkali buyrak kasalliklari;
- allergik kasalliklar;
- surunkali nevrologik kasalliklar;
- anemiya;
- ikkilamchi immun tanqisligi;
- nevrologiya, nevrerit, radikulonevrerit;

Bolalarda esa:

1. Anemiya.
2. Gipotrofiya.
3. Raxit.
4. Bronx-o‘pka kasalliklari.
5. Ikkilamchi immun tanqisligi.
6. Timiko-limfotsitar yetishmasligi (timomegaliya).

7. Nevralgiya, nevrit, radikulo-nevrit.

8. Disbakterioz.

Bolalarda koronavirus Covid-19 xastaligida ko‘pincha quyidagi asoratlari kuzatiladi:

- kataral-yiringli belgi;
- gaymorit;
- seroz meningit;
- glomerulonefrit (toksik nefrit);
- pnevmoniya;
- nevrit, nevralgiya, radikulonevrit;

Covid-19 xastaligining asorati – pnevmoniya

Aralash pnevmoniya virus-bakterial uyushmasi natijasida ro‘y beradi. Bemorlarda o‘choqli, segmentar, qo‘shilib ketadigan, krupoz pnevmoniyalar kuzatiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘pkada kuzatiladigan pnevmoniya holatida nafaqat bronxiola, alveolalar, balki barcha oraliq to‘qimalar ham yallig‘lanish jarayonida ishtirok etadi. Yallig‘lanishda hosil bo‘ladigan suyuqlik (ekssudat) o‘pkani, o‘pka bo‘laklari oralig‘idagi bo‘shliqni alveolyalar orasini to‘ldiradi, natijada o‘pka fibrozi rivojlanadi. Pnevmoniyaning boshlang‘ich bosqichlarida aniqlash ancha qiyin. Covid-19 ning asorati sifatida pnevmoniya ko‘proq kasallikning birinchi haftasining oxirida, ikkinchi haftasining boshlarida kuzatiladi. Ammo lekin pnevmoniya kasallikning boshlanishida (3-4 kunlarida) ham kuzatilishi mumkin.

Bunday holda o‘pkaning shikastlanishi odatdagi bakterial pnevmoniya bo‘lmay, atipik pnevmoniya ammo o‘pka to‘qimalariga va tomir devorlariga gialuron kislotasi ta’sir qilib, alveolalarni to‘ldiradi. Natijada paydo bo‘lgan pnevmonit, alveolyar qoplamani, ajratuvchi membranalarni yo‘q qiladi. Qon tomirlar devorining shikastlanishi natijasida o‘pkaning perfuziyasi kuzatiladi (o‘pka to‘qimasi qonli suyuqlik bilan to‘yinadi) kapillyarlar va mayda tomirlarda tromboz kuzatiladi.

Pnevmoniya holatini o‘z vaqtida aniqlash qiyin. Pnevmoniya tashxisini qo‘yishda klinik belgilar, hamda rentgenologik, (MSKT) tekshirishlar orqali tashxis qo‘yiladi. Bemorlarda kuchli charchoqlik, holsizlik, hansirash, quruq yo‘tal-quvillash, ko‘p uxlash, bosh og‘riq, diareya, hid bilish qobiliyatining yo‘qolishi, sianoz, burunning bitishi, nafas olganda ko‘krak qafas mushaklari, qorin mushaklari, diafragmaning zo‘riqishi kuzatiladi.

Bemorlarning oʻpkasida kuchli sirkulyator, mikrotsirkulyator oʻzgarishlar kuzatiladi. Oʻpka yetishmasligi, yurak qon-tomir yetishmasligi, arterial bosimning tez tushib ketishi, sianoz, akrotsianoz holati kuzatiladi, kasallik tez rivojlanadi. Bemorlarda kislorodga boʻlgan talab kuchayadi. Oʻpka yetishmasligi, distress sindrom, total pnevmoniya kuzatiladi.

Patologik jarayonga plevra qoʻshiladi (plevropnevmoniya). Bemorlarda fibroz va yiringli plevritlar kuzatiladi. Ushbu jarayonning vujudga kelishida oʻpkada mavjud boʻlgan pnevmokokklar, stafilokokklar, streptokokklar va boshqa bakteriyalar muhim rol oʻynaydi. Pnevmoniya jarayoni kuzatilayotgan bemorlarda miokardit, toksik nefrit, seroz meningit asoratlari qoʻshiladi. Xulosa qilib aytganda, Covid-19 pnevmoniyasida poliorgan yetishmaslik holati kuchayadi va tezda davolash oʻtkazilmasa, oʻlim holati qayd etiladi.

COVID-19 NING TASHXISOTI. BEMORLARNI TEKSHIRISH REJASI (ALGORITMI)

Covid-19 kasalligining tashxisi klinik tekshiruvlar, epidemiologik anamnez materiallari va laboratoriya tekshiruv natijalariga asoslanadi.

Covid-19 infeksiyasini tekshirish rejasi (algoritmi)

Covid-19 infeksiyasiga tashxis qoʻyish uchun bemorning shikoyatlari, kasallik tarixi (anamnesis morbi) epidemiologik anamnez, kasallik rivojlanish tarixi (anamnesis vitae), obyektiv maʼlumotlar va laboratoriya tahlili natijalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bemor shikoyatlari.

1. Bemor shikoyatlarini aniqlashda, bemorlarda respirator belgilar rivojlanishi, intoksikatsiya belgilar borligi, isitma, oʻpkaning jarohatlanishi (hansirash) ich ketish alomatlari paydo boʻlishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Covid-19 infeksiyasining xarakterli belgilari (charchoqlik, bosh ogʻrigʻi, uyquning buzilishi, ishtahaning pasayishi, mushaklar va boʻgʻimlarda ogʻriqlar) isitma (et uvishishi, badanning qizishi, terlash). Respirator belgilar (yoʻtal, quruq, balgʻamli, ogʻiz qurishi, hid va tamni bilmasligi). Oʻpkadagi oʻzgarishlar (hansirash, koʻkrak qafasda ogʻriq), ichakda oʻzgarish (ich ketish, qorinda ogʻriq). Shuni taʼkidlash lozimki, bemorni surishtirganda, kasallikning ilk davrida ingichka ichakning funksional buzilishi (ichak quldirashi, qorinda havo yigʻilishi, axlatning suyuqlashishi) muhim ahamiyat kasb etadi.

Epidemiologik anamnez yig'ilganda bemor 14 kun ichida chet elda bo'lganligi va kelgan davlatda Covid-19 epidemiyasi bor, yo'qligi aniqlanadi.

14 kun mobaynida Covid-19 ga shubha qilingan va karantinga olingan bemorlar bilan muloqotda bo'lganlardan, Covid-19 bilan kasallangan bemorlar bilan 14 kun ichida muloqotda bo'lganligi haqida epidemiologik anamnez (ma'lumot) yig'iladi.

Bemorda surunkali kasalliklar bor yo'qligi aniqlanadi: surunkali yurak qon-tomir kasalliklari, surunkali bronx-o'pka kasalliklari, qandli diabet kasalligi bor yo'qligi, ushbu kasalliklar bilan necha yillardan beri ro'yxatga olinganligi. Shu bilan birga bemor qarindoshlarida yuqorida ko'rsatilgan somatik kasalliklar bor-yo'qligi, allergik kasalligi, bolalarda emlash kalendari, ayollarda ginekologik anamnez yig'iladi.

Fizikal tekshirish uslublari:

Termometriya (isitma o'lchash).

Bemorning umumiy ahvoli, hushidami yoki yo'qmi, bemorning faolligi.

Teri holati: toshmalar bor yo'qligi, teri oqarganligi, akrotsianoz bor-yo'qligi, ko'z shilliq pardasi qizarganmi yoki yo'qmi (kon'yunktivit).

Yurak qon-tomirdagi o'zgarishlar – puls, yurak tonlari o'lchami, auskultativ yurak tonlari, sistolik shovqin bor-yo'qligi.

Arterial bosim o'lchovi.

Nafas tizimidagi o'zgarishlar: nafas olish soni (HOz), nafas olishning yuzaki yoki chuqurligi, ko'krak qafasini palpatsiya, perkussiyadan o'tkazilishi, jarohat joylarini aniqlashda yordam beradi.

O'pka auskultatsiyasi – o'pkada dag'al nafas olish, quruq, ho'l xirillashni aniqlash, kripitatsiya yoki o'pkada nafas olishning umuman eshitilmasligi.

Pulsoksimetriya.

Oshqozon ichak tizimini ko'zdan o'tkazish: qorinni ko'rikdan o'tkazish, qurillash bor-yo'qligi, qorinda og'riq bor-yo'qligi, jigar va qorataloq o'lchami (kurlov usuli bilan), bemor axlatidagi o'zgarishlarni aniqlash, ya'ni ich ketish soni, rangi, hidi, axlatda qon, shilimshiq bor-yo'qligi.

Buyrak va siydik chiqarish organlaridagi o'zgarishlarni aniqlash, ertalabki siydikdagi o'zgarishlar, siydik o'lchami, rangi, hidi, quyuc suyuqligi, tuzlar bor-yo'qligi, buyrak sohada og'riq bor-yo'qligi, Pasternak belgisining o'zgarishlari.

Bemorlar asab tizimidagi o'zgarishlar: meningit, etsefalitik o'zgarishlar bor-yo'qligi, parezlar - paralichlar bor-yo'qligi.

Farengoskopiya - og'iz va hiqildoq shilliq qavatidagi o'zgarishlarni aniqlash.

Laboratoriya tekshiruvlari ularning hajmi, soni, vaqti kasallikning og'ir yengilligiga qarab tanlanadi. Ambulatoriya sharoitidagi, yengil shakldagi bemorlar uchun laboratoriya tekshiruvlari shart emas kasallikning o'rtacha og'irlikdagi, og'ir va o'ta og'ir shakillardagi bemorlarga quyidagi laboratoriya tekshiruvlari o'tkaziladi.

Umumiy laboratoriya tekshiruv uslublari

Umumiy qon tahlili: eritrotsit, gemoglobin, rangli ko'rsatkich (gematokrit), leykotsit, trombosit, leykotsitlar formulasi, eritrotsitlar cho'kish tezligi (EChT).

Bemorlarda, limfopeniya, leykopeniya, trombositopeniya, eritrotsit va gemoglobin ko'tarilishi xarakterli.

O'tkir respirator destruktiv sindromda (O'RDS) – leykotsitoz, limfopeniya, trombositopeniya. DVS - sindromi bormi, yo'qmi, qaysi davrdaligini aniqlash.

Umumiy siydik tahlili: makroskopik, mikroskopik o'zgarishlar. Bemorlarning ertalabki siydigi hajmi, rangi, mikroskopik o'zgarishlar (eritrotsitlar, leykotsitlar, silindrlar, bakteriyalar, siydikda bioximik ko'rsatkichlar (oqsil, glyukoza, ketonlar), bemorlarda o'tkir buyrak yetishmasligi ko'rsatkichlari, infeksiyon toksik karaxtlik (ITK), o'tkir buyrak yetishmasligida (O'BE) sodir bo'ladi.

Bioximik tahlil ko'rsatkichlar (mochevina, kreatenin, qonda elektrolitlar), jigar fermentlari: bilirubin, qonda qand miqdori ko'rsatkichi, albumin, globulin va uning fraksiyalari aniqlanadi. Ushbu bioximik ko'rsatkichlar Covid-19 infeksiyasida asoratlar bo'lganda, hamda poliorgan jarohatlanishda o'zgaradi va Covid-19 bemorlarini davolashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonda S reaktiv oqsil (SRO) holati. S-reaktiv oqsil bemorning og'irligiga qarab o'zgarish boshlaydi va ayniqsa pnevmoniya asoratining qay darajada o'zgarishiga qarab bashorat qilinadi.

Prokalsitonitni qonda aniqlash.

Bemor arterial qonida gazlarni aniqlash RaO_2 $Ra SO_2$, Rn , bikarbonatlar, laktatlarni aniqlash, o'tkir nafas yetishmasligi (O'NE) holatini aniqlashda yordam beradi.

Bemor qonida koagulogramma ko'rsatkichlarini aniqlash. Koagulogramma ko'rsatkichi Covid-19 xastaligida faqat og'ir asoratlar qayd qilinganda o'zgaradi:

DVS-sindromi, poliorgan yetishmasligida, oʻtkir oʻpka yetishmasligi (OʻOʻE) da kuzatiladi.

Tibbiyot asboblari yordamida tashxis qoʻyish.

Pulsoksimetriya apparati yordamida SpO₂ aniqlanadi. Pulsoksimetriya juda sodda skrining uslub boʻlib, bemorlarda gipoksiya holatini aniqlashda yordam beradi.

Nur yordamida diagnoz qoʻyish.

Kompyuter tomografiya uslubi oʻpkani rentgenologik tekshirish informativ uslub boʻlib, oʻpkada virusli pnevmoniya alomati borligi va pnevmoniya oʻpkaning qaysi boʻlimlarida shakllanganligi haqida axborot beradi.

Kompyuter tomografiya uslubi yordamida bemorlar bir necha guruhga boʻlinadi:

- KT - virusli pnevmoniyasi bor bemorlar.
- KT - bakterial pnevmoniyasi bor bemorlar.
- KT - virus-bakterial pnevmoniyasi bor bemorlar.
- KT - oʻpkada yalligʻlanish bor yoʻqligidan dalolat beradi.

Covid-19 infeksiyasida KT asosan intersittsial toʻqimada, alveolalarda, bronxiolalarda yalligʻlanish darajasini aniqlab beradi (oʻpkada intersittsial toʻqimadagi infiltrativ yalligʻlanish koʻrsatkichini aniqlab beradi).

Covid-19 infeksiyasida KT ni qayta qilinishi, olib borilgan davolash choralari samara bermaganda bajariladi.

Rentgenologik tekshiruvlar.

Covid-19 infeksiyasida virusli pnevmoniya asorati shakllanganligini aniqlashda oʻpkani rentgenologik tekshirish yaxshi natija bermaydi.

Covid-19 xastaligida virusli pnevmoniya asorati tuzalish arafasida rentgenologik tekshiruv oʻpkaning qay darajada tuzalayotganidan xabar berishi mumkin.

Ultratovush tekshiruvlar.

Ultratovush tekshiruvlari (UTT) yordamchi uslub boʻlib, oʻpka ichida boʻlimlararo boʻshliqda, oʻpka tagida havo borligi yoki suyuqlik yigʻilganlik darajasini aniqlashda UTT oʻtkaziladi.

Elektrokardiografiya (EKG)

EKG barcha bemorlarga oʻtkaziladi. Ushbu uslub informativ boʻlmay, bemorlarda yurak qon tomirlarda oʻzgarishlar borligini aniqlash, toksik miokardit vujudga kelganligini aniqlashda yordam beradi.

PTSR-tashxisot

Covid-19 maxsus laboratoriya uslublariga virus nuklein kislotasini aniqlash kiradi. PTSR uslubi Covid-19 virusining RNKsini aniqlashga qaratilgan. Bemorning biologik suyuqliklarida SARS-COV-2 virusini aniqlashda ishlatiladi.

PZR usuli bilan isitmasi chiqqan bemorlar, epidemiologik jihatdan noxush bo'lgan davlatlardan kelganlar, hamda muloqotda bo'lganlar tekshiriladi.

Ushbu uslubning samarali bo'lishida, materialda viruslar borligini aniqlashda, bemorlardan olinadigan sinamalarning to'g'ri va sifatli olinishi ahamiyatga ega. Olingan sinama materiallari laboratoriyalarga ehtiyotlik bilan, sanitariya-gigiyenik qoidalariga rioya qilingan holda yetkazilishi shart.

Biomateriallarni olishdan tortib to laboratoriyaga yetkazguncha tibbiyot xodimlari himoya kostyumlarida bo'lishi shart.

PZR Covid-19 (SARS – COV-2) o'tkazilishi kerak bo'lgan kishilar:

- O'zbekiston Respublikasiga kirib kelgan chet el va O'zbekiston fuqarolari, ularda O'RVI belgilari bo'lsa;

- Respirator belgilari kuzatilgan va Covid-19 ga shubha qilingan bemorlar yoki sog'lom kishilar.

- Covid-19 bilan kasallangan bemorlar bilan muloqotda bo'lganlar.

- Pnevmoniya tashxisi bilan kelgan bemorlar.

- 60 yosh va undan katta yoshda bo'lgan va ularda shamollash alomati kuzatilsa, PZR ga tekshiriladi.

- Covid-19 infeksiyasi bilan muloqotda bo'lgan tibbiyot xodimlari.

- Yopiq tashkilotlar ishchilari (internat, litsey, qariyalar uylari, qamoqxonalar).

O'tkir respirator infeksiya belgilari bo'lgan SARS – COV-2 RNK sini aniqlash uchun, tibbiyot muassasalariga murojaat qilganda, quyidagi epidemiologik ma'lumotlari bo'lgan shaxslar PZR usulida tekshiriladi:

- murojaat qilguncha 14 kun mobaynida chet eldan qaytib kelganlar;

- oxirgi 14 kun ichida Covid-19 tufayli tibbiy nazoratdagi kishilar bilan yaqin muloqotda bo'lganlar;

- oxirgi 14 kun ichida Covid-19 laboratoriya usuli bilan tasdiqlangan bemor bilan yaqin muloqotda bo'lganlar;

- Covid-19 bemorlari va ushbu kasalikka gumon qilinganlar biologik materiallari bilan muloqotda bo'lgan tibbiyot xodimlari;

- tugʻishgacha 14 kun oldin Covid-19 bilan kasallanganligi tasdiqlangan yoki unga gumon qilingan onalardan tugʻilgan chaqaloqlar.

Biologik materiallar olish

PZR tekshiruv uchun quyidagi sinamalar olinadi: burun, ogʻiz, tomoq, bronxdan chiqqan suyuqlik (fibrobronxoskop orqali olinadi), endotraxeal, nazofarengial, balgʻam, qon, bemor axlati, oʻpkaning autopsiyasi, biopsiyasi tekshiruvga olinadi.

Eng asosiy material burun hiqildoq, ogʻiz hiqildoqdan olingan material. Sinamalar maxsus konteynerlarda laboratoriyaga yetkaziladi. Olingan biologik materiallar maxsus transportlarda laboratoriyalarga keltiriladi. Tekshiruvga eppendorf probirkalari ishlatilishi mumkin. Ushbu probirkalar ichida 0.7 ml steril fiziologik eritma solingan boʻladi.

Surtma olish uchun Zond-tampon ishlatiladi. Zond tampon steril boʻlishi, plastinkali tayoqcha viskozali yoki neylonli qoplamaga ega boʻlishi maqsadga muvofiq. Yogʻochli zondlar va paxta qoplamalarini ishlatilishi qatʻiyan mumkin emas.

Olingan surtmalar potensial zararli hisoblanadi.

Surtma oluvchi tibbiyot xodimlari va transport haydovchilari Covid-19 talablariga koʻra maxsus niqoblarda, himoya kombinzonlarida boʻlishi shart.

Biomaterial olingan kishilar ismi, sharifi, yoshi, adresi (manzili) olingan vaqti, soati, kim tomonidan olinganligi, qaysi transportda surtma olib kelinganligi haqida maʼlumot olinadi.

PZR uslubi bajariladigan laboratoriya maxsus ruxsatnomaga ega boʻlishi kerak, sanitariya-epidemiologiya xizmati ruxsatnomasi olingan boʻlishi, laboratoriya xodimlari oʻta xavfli kasalliklar bilan ishlash boʻyicha oʻqitilgan boʻlishi maqsadga muvofiqdir.

PZR Covid-19 ijobiy natija bergan boʻlsa laboratoriya rahbari hududiy sanitariya epidemiologiya markaziga, bemor yotgan kasalxona rahbariga tez xabar berishi shart.

Agar PZR da Covid-19 ga ishonarli boʻlmagan javob olinsa, qoʻshimcha gripp, paragripp, adenovirus infeksiyasi va boshqa OʻRVI kasalliklariga PZR sinamasi yoki boshqa uslublar yordamida (serologik, immunologik tekshiruv) oʻtkaziladi.

SARS - COV-2 ga nisbatan bemorlarda paydo boʻladigan antitelolarni aniqlash, tashxis uchun qoʻshimcha, yordamchi ahamiyatga ega.

IgA - antitelolar kasallik boshlanganidan 2-kundan boshlab aniqlana boshlaydi, 2-haftasida eng yuqori cho‘qqisiga yetadi va uzoq vaqt saqlanib qoladi. IgM - antitelolar 7-kundan aniqlana boshlaydi, 2 oygacha saqlanib qoladi. IgG - antitelo 3-haftasida aniqlanadi.

Covid-19 infeksiyasini davolash.

Covid-19 infeksiyasini davolash kompleks ravishda olib boriladi. Avvalam bor bemorlar Covid-19 infeksiyon klinikalariga tez fursatda yotqiziladi. Bemorlarga yotoq rejimi, dieta, sanitariya-epidemiologik rejim o‘rnatiladi.

Bemorlarga etiotrop, patogenetik, simptomatik davolash o‘tkaziladi. Davolanish rejasi individual (har bir kasalga ahvoriga qarab, klinik varianti, og‘irligi, kasallik davri, yoshi, yondosh kasalliklari bor-yo‘qligi, dori-darmonlarga bo‘lgan ta’sirchanligiga qarab) olib boriladi.

Davolashdan asosiy maqsad: viruslarni organizmdan tezda chiqib ketishi, kasallikning o‘pkaga o‘tishining, asoratlarning oldini olish, organ va tizimlarning tez tiklanishiga qaratiladi.

Covid-19 pandemiyasi boshlangandan buyon, bemorlarni davolash protokoli bir necha marotaba o‘zgardi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda davolash protokolining 8-varianti qo‘llanilmoqda.

Katta yoshdagilar uchun tavsiya etiladigan davolash sxemasi.

Bemorlar bilan muloqotda bo‘lganlarni quyidagicha davolanadi:

Tsink preparati-100mg kuniga 1 mahal- 10 kun;

D vitamini 2000-5000 ME, emizuvchi ayollar uchun 4000-5000 ME;

S vitamini – 300-500 mg/sut;

Suyuqlik qabul qilish - 1 kg tana vazniga 40 ml/sut (masalan, 70 kg og‘irlikka -2800 ml);

Bir kunda 4-5 marta ovqatlanish;

Engil jismoniy mashqlarni bajarish;

10 kun davomida kasallik belgilari paydo bo‘lmasa o‘zini-o‘zi alohidalashni to‘xtatish mumkin.

Kasallikning oldini olish maqsadida:

Gidroksixloroxin - 200 mg haftada 1 marta 2 ta tabletka, jami 2 hafta hamda 8 hafta kasallik o‘chog‘ida ishlaydiganlar uchun, shu jumladan tibbiyot xodimlariga ham beriladi;

Xloroxin 250 mg haftada 1 marta 2 ta tabletka, jami 2 hafta hamda 8 hafta kasallik o‘chog‘ida ishlaydiganlarga, shu jumladan tibbiyot xodimlariga beriladi;

Homilador ayollarga, bolalarga va yurak qon tomir tizimi xastaliklari bor shaxslarga tavsiya etilmaydi.

Belgisiz shakldagi bemorlarni davolashda uyda alohidalanganda telefon orqali UASH tomonidan nazorat olib boriladi.

Gidroksixloroxin - 1chi kun 200 mg dan 2 mahal, keyingi 4 kun 200 mg dan 1 mahal yoki Xloroxin 250 mg 1-kun 2 mahal, keyingi 4 kun 250 mg dan 1 mahal.

Tsink preparati-100mg kuniga 1 mahal- 10 kun;

D vitamini 2000-5000 ME, emizuvchi ayollar uchun 4000-5000 ME;

S vitamini – 300-500 mg/sut 15 kun;

Suyuqlik qabul qilish - 1 kg tana vazniga 40 ml/sut (masalan, 70kg og'irlikka -2800 ml);

Bir kunda 4-5 marta ovqatlanish;

Engil jismoniy mashqlarni bajarish;

Agar 10 kun ichida kasallikni og'ir belgilari paydo bo'lmasa o'zini-o'zi alohidalashni to'xtatish mumkin.

Tavsiya etilmaydi:

COVID-19 infeksiyasining belgisiz shaklini davolashda yoki profilaktika maqsadida antibiotiklarni va boshqa dorilarni buyurish;

Vena ichiga suyuqliklar yoki mushak orasiga manipulyatsiyalar qilish:

Bolalar, homilador ayollar, yurak faoliyati buzilgan bemorlar uchun xloroxin yoki gidroksixloroxin (+/- azitromitsin);

Virusga qarshi preparatlar immunosupressorlar, immunostimulyator, immunomodulyatorlar;

Rekonvalestsentlar plazmasi;

Tizimli kortikosteroidlar.

Kasallikning yengil shaklidagi bemorlarga tavsiya etiladi:

Bemorlarni uyda alohidalash va telefon yoki aloqaning alternativ usullari (telegram, Imo, WhatsApp, Zoom va xk.) orqali UASH tomonidan nazorat qilish.

Tibbiy yordamga tezkor murojaat talab qiluvchi xavf belgilari haqida bemorni ogohlantirish zarur - uzoq davom etadigan isitma ko'krak qafasidagi og'riqlar nafas siqilishi va doimiy yo'tal;

Bemorlarga shoshilinch tibbiy yordamni talab qiladigan asoratli belgilar – SpO2 93 % dan pasayishi, tanada og'riq, nafas qisilishi, es-hushi o'zgarishi, qon bosimining tushishi.

Paratsetamol – kuniga 4 mahal 1500-2000mg/sut;

Ibuprofen – 3 mahal kuniga 1200 mg/sut.

Virusga qarshi preparatlar – Favipiravir preparati (kasallikning birinchi 5 kunida qo‘llaniladi) og‘irligi 75 kg gacha bo‘lgan bemorlarga 1-kun 1600 mg dan kuniga 2 marta, so‘ngra 2- kundan 10-kungacha kuniga 600 mg dan 2 marta; og‘irligi 75 kg va undan yuqori bo‘lgan bemorlarga 1-kun 1800 mg dan 2 marta va 2-kundan 10-kungacha kuniga 3 marta 800 mg dan.

Tsink preparatlari – 10 mg 1 mahal 10 kun;

D vitamini - 2000-4000 Yed, emiziklilarga 4000-6000 Yed;

S vitamini -500-1000 mg/sut;

Antiagregant hamda antikoagulyant terapiya.

Gastroprotektorlar - omeprazol, lansoprazol 40 mg/sut,

Og‘iz/burunni tuzli eritma bilan (0.5 litr suv uchun 1 choy qoshiq tuz) yoki dengiz suviga asoslangan maxsus eritma bilan yuvish;

Rinoreyani davolash uchun dekonjestantlarini masalan, nafazolin, Ksilometazolinni qo‘llashdan iborat;

Yo‘tal paydo bo‘lganda Atsetitsistein (ATsTs) – 600 mg sutkasiga;

Bromgeksin 8 mg 2 tabletkadan 3 mahal yoki ambroksol 30 mg 1 tabletkada 3 mahal;

Suyuqlik ichish, 1 kg vazn uchun 40 ml (masalan, vazn 70 kg bo‘lsa 2800 ml / sutkasiga)

Engil ovqatlanish, kuniga 4-5 mahal.

Tavsiya etilmaydi:

Davolashda yoki profilaktika maqsadida antibiotiklar buyurish;

Bolalar, homilador ayollar, yurak faoliyati buzilgan bemorlar uchun xloroxin yoki gidroksixloroxin (+/- azitromitsin) qo‘llash;

Immunosupressorlar, immunostimulyator, immunomodulyatorlar;

Rekonvalesentlar plazmasi;

Virusli pnevmoniyani davolashda tizimli kortikosteroidlar;

Nebulayzer terapiya qo‘llash tavsiya etilmaydi.

Kasallikning o‘rta og‘ir shaklida bemorlar kasalxonaga yotqizishni talab qilmasligi mumkin, ammo barcha gumon yoki tasdiqlangan holatlarda izolyatsiya zarur.

Ixtisoslashgan tibbiy muassasada yoki uyda izolyatsiya qilish to‘g‘risida qaror klinik ko‘rinishni, qo‘llab-quvvatlovchi terapiya zarurligini, og‘ir

asoratlarning rivojlanishi mumkin bo'lgan xavf omillarini hisobga olgan holda individual ravishda qabul qilinishi kerak.

Uyda davolanayotgan bemorlar va ularni parvarish qilayotganlar shoshilinch yordamga murojaat qilishlari kerak bo'lgan asoratlarning belgilari haqida habar berish kerak.

Paratsetamol - kuniga 4 mahal 1500-2000 mg/sut

Ibuprofen - 3 mahal kuniga 1200 mg/sut;

Virusga qarshi preparatlar – Favipiravir preparati (kasallikning birinchi 5 kunida qo'llaniladi) og'irligi 75 kg gacha bo'lgan bemorlarga 1-kun 1600 mg dan kuniga 2 marta, so'ngra 2- kundan 10-kungacha kuniga 600 mg dan 2 marta; og'irligi 75 kg va undan yuqori bo'lgan bemorlarga 1-kun 1800 mg dan 2 marta va 2-kundan 10-kungacha kuniga 3 marta 800 mg dan. Remdesivir kasallikning birinchi 10 kunida qo'llaniladi, vena ichiga 1- kun 200 mg, keyingi kunlarda 100 mg kuniga.

Antikoagulyantlar barcha kasalxonaga yotqizilgan bemorlarga buyuriladi, agar qarshi ko'rsatma mavjud bo'lmasa – Enoksaparin 40 mg/sut yoki davolash dozasi 1.5 mg/kg kuniga 1 marta yoki 1 mg/kg kuniga 2 mahal; past molekulyar geparinlar bo'lmasa – Geparin natriy 5000 ME kuniga 4 marta 7-10 kun davomida (VSK nazorati ostida), so'ngra past molekulyar geparinlarga o'tish zarur.

Antiagregant terapiya.

Kichik dozali kortikosteroidlarni qo'llashga ko'rsatmalar:

Kasallikning avj olib og'irlashib borishida;

S-reaktiv oqsil (SRB) 18 mg/l dan yoki me'yordan 3 barobar oshganda hamda dinamikada ko'tarilib borgan hollarda;

Doimiy isitma 38.5 S ko'tarilgan hollarda;

Havodan nafas olganda SpO₂ 92% dan pasayishi yoki kislorodning 4 l/min oqimi bilan nafas oldirishga zaruriyat tug'ilganda;

Deksametazon dozasi 0.1 mg/kg/sut 1 mahal ertalab yoki kunning 1chi (soat 1300 gacha) yarmida parenteral yoki og'iz orqali (masalan 0.1*80 kg =8 mg);

Spirolakton nahorga kuniga 1 marta 50-100 mg/sut;

Mikroblarga qarshi vositalarni (antibiotik) faqat ko'rsatma bo'lsa yoki bakterial infeksiya qo'shilgan holatda (umumiy qon tahlilida leykotsit yuqori bo'lgan va yiringli balg'am ajralgan hollarida);

Gastroprotektorlar - omeprazol, lansoprazol 40 mg/ sut,

Peroral regidratatsion terapiya (suv muvozanatini ta'minlash)- ko'p miqdorda suyuqlik ichish (kompot, qaynatma ovqatlar, sharbatlar, choy, suv va boshqalar);

Kuniga 4-5 marta ovqatlanish;

Infuzion terapiyani iloji boricha ishlatmaslik kerak;

Nafas olish texnikasini mashqlari – o'pkaning nafas funksiyasi va qon aylanishini yaxshilashga qaratilgan usullar:

Masalan:

Pron-pozitsiyada nafas olish (kuniga kamida 10-12 soat).

Chuqur nafas olish va nafasni 5 soniya davomida ushlab turishni 5 marotaba takrorlash so'ngra 6 marta chuqur nafas olgandan keyin yaxshilab yo'talish (niqob taqqan holda).

Bosh ostidagi yostiq bilan qoringa yotib, 10 daqiqa davomida sekin va chuqur nafas olishni kuniga bir necha marotaba takrorlash;

Tavsiya etilmaydi:

Immunosupressorlar, immunostimulyator, immunomodulyatorlar;

Rekonvalestsentlar plazmasi;

Kasallikning og'ir shakli bilan og'rikan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatadigan shifoxonalar pulsoksometr, kislorod yetkazib berish tizimlari hamda zarur jihozlar (burun kanyulalari, Venturi niqoblari va nafas olish uchun mo'ljallangan niqoblar) bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Xavf alomatlari bor yoki bunday alomatlarga ega bo'lmagan lekin $SpO_2 < 90\%$ bo'lgan har qanday bemor uchun darhol kislorod – terapiyasini boshlash tavsiya etiladi.

Paratsetamol – kuniga 4 mahal 1500-2000 mg/sut;

Ibuprofen – 3 mahal kuniga 1200 mg/sut;

Virusga qarshi preparatlar - Remdesivir kasallikning birinchi 10 kunida qo'llaniladi, vena ichiga 1- kun 200 mg keyingi 5 kun 100 mg kuniga.

Dezintoksikatsion terapiya – regidratatsiya – (suv balansini ta'minlash) maqsadida ko'p miqdorda ichimlik tavsiya etiladi. (kompotlar, damlamalar, sharbatlar, choy, suv va boshqalar) degidratatsiya alomatlari kuzatilgan hollarda infuzion terapiya tavsiya etiladi;

Kuniga 4-5 marta ovqatlanish;

Spironolakton nahorga kuniga 1 marta 50-100 mg/sut;

Antikoagulyantlar barcha kasalxonaga yotqizilgan bemorlarga buyuriladi. Agar qarshi ko'rsatma mavjud bo'lmasa – Enoksoparin 40 mg/sut yoki davolash dozasi 1.5 mg/kg kuniga 1 marta yoki 1mg/kg kuniga 2 mahal; past molekularli geparinlar bo'lmasa.

Geparin natriy 5000 -7000 ME kuniga 4 marta 7-10 kun davomida (VSK nazorati ostida), so'ngra past molekularli geparinlarga o'tish zarur. Geparin-Na yoki fraksion bo'lmagan geparin to'g'ridan-to'g'ri antikoagulyant bo'lib, tabiiy antikoagulyant antitrombin-III orqali ta'sir qiladi. II-X- koagulyatsiya omillarni bloklaydi. Bemorlarning qonida antitrombin-III miqdori kamayadi. Geparin tomir ichiga yuborilganda 4-6 soat va teri ostiga yuborilganda 8-12 soat davomida ta'sir qiladi.

Fraksionlanmagan geparin ishlatilganda (odatda 5-7 kundan keyin), Covid-19 infeksiyasiga chalingan bemorlarda (geparin terapiyasiga qaramay) geparin ta'siridan kelib chiqadigan qon tomir trombozi rivojlanishi mumkin. Fraksion geparin ta'sirida trombositlar IV omilni ajratadi, u geparin va Ig: G, A, M, bilan birikib immun-komplekslarini hosil qiladi va trombosit membranasiga joylashadi, va immun hujayralar uchun nishon bo'lib qoladi, hamda mayda tomirlarga ta'sir qiladi. Natijada trombozlar paydo bo'lishiga olib keladi, trombositlar miqdori kamayadi (ular geparin-Na ta'sirida yo'q qilinadi). Shuning uchun fraksion bo'lmagan geparindan uzoq vaqt foydalanish mumkin emas (7-8 kundan ortiq). Antitrombin-III ning va trombositlar sonining kamayishi bilan kechuvchi holat kichik va ba'zan katta tomirlarda tromboz hosil qilishi mumkin. Shuning uchun, fraksion bo'lmagan geparinni qo'llanilgandan keyin bir necha kun o'tgach, past fraksionli geparinga o'tish juda muhim, bu trombositlarga ta'sir qilmaydi va antitrombin-III ga juda oz ta'sir qiladi.

Trombositopeniya holati bilan antikoagulyant sifatida Fondonopyrinux antikoagulyantini ishlatish mumkin, chunki u geparin-Na ta'siriga ega bo'lmay (trombositlarga va antitrombin-III ta'sir ko'rsatmaydi) va trombozlar hosil bo'lishining oldini oladi. Ikkinchi tarafdin bilvosita antikoagulyantlar (Kumarin hosilalari) yordamida davolashni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Antiagregant terapiya

Deksametazon dozasi 0.1 mg/kg/sut 1 mahal ertalab yoki kunning 1chi (soat 1300 gacha) yarmida parenteral yoki og'iz orqali (masalan 0.1*80 kg =8 mg);

Mikroblarga qarshi vositalarni (antibiotik) faqat ko'rsatma bo'lsa yoki bakterial infeksiya qo'shilgan holatda (umumiy qon tahlilida leykotsit yuqori bo'lgan va yiringli balg'am ajralgan hollarida.);

Antibakterial davolashni boshlashdan avval yoki buyurilgan antibakterial preparatni o'zgartirishdan oldin bakteriologik tekshiruv o'tkazish tavsiya etiladi.

Antibakterial davolashning na'munaviy sxemasi:

Antibiotikoterapiyani birinchi navbatda himoyalangan penitsillinlar bilan boshlash zarur:

Amoksitsilin/ klavulan kislotasi eritmasi 1000-200 mg dan kuniga 3 mahal v/i;

2-3 avlod sefalosporinlari yoki ftorxinolonlar (levoflaksatsin eritmasi 500-1000 mg dan kuniga 1 mahal v/i 5-7 kun davomida);

Boshlang'ich antibakterial davo 48-72 soat mobaynida samarasiz bo'lgan taqdirda, mikrobiologik tahlil natijalaridan kelib chiqib, antibiotik dori vositasini o'zgartirish tavsiya etiladi.

Antioksidant va mukolitik sifatida parenteral atsetilsistein (ATsTs) 600-1200 mg/sut;

Gastroprotektorlar - omeprazol, lansoprazol 40 mg/ sut,

Askorbin kislotasi, sink preparatlari asosiy davo sifatida davom ettirish tavsiya etiladi.

Oksigenoterapiya fonida - nafas olish texnikasini, o'pkaning nafas funksiyasi va qon aylanishini yaxshilashga qaratilgan usullar:

Bu maxsus burun kanyulalari yordamida yuqori oqimdagi kislorod berish (1 daqiqada 20-30 litr kislorod).

1-2 soat ichida, agar nafas olish faoliyati yaxshilanmasa (havoning yetishmasligi, tez nafas olish) bo'lsa, unda invaziv bo'lmagan (sun'iy nafas oldirish apparatini (SNA) qo'llab, maxsus maskalardan foydalaniladi.

Shu bilan birga, invaziv bo'lmagan mexanik nafas oldirish, kasallikning og'ir holatlarida samarasiz bo'lishi ham mumkin ($Ph < 7.35 Pa Co_2 > 45$ im. Qon saturatsiyasi $< 80\%$ va hk). Bunday holatda traxeya intubatsiyasini qo'llab invaziv sun'iy nafas oldirishga o'tiladi. Invaziv mexanik nafas oldirishga ko'rsatma bo'lib, bu nafas olish faoliyati mexanikasining buzilishi, taxipnoe va tez nafas olish (1 daqiqada 35 marta) bemorlarning qonida atsidoz va SO_2 ko'payishi.

Sun'iy nafas oldirish uzoq vaqt davom etsa u o'pkaga mexanik zarar yetkazishi mumkin. Alveolalarning shikastlanishi va qon tomirlari devorlarining shikastlanishiga olib keladi.

Bemorlarda invaziv sun'iy nafas oldirish bo'lishiga qaramay, gipoksemiya, O₂ to'yinganligi <70% va undan past bo'lishi, membranalar va qon tomir devorlarining gialuron kislotasi ta'siri tufayli alveolalar suyuqlik bilan to'lib qolishi o'pka perfuziyasidan dalolat beradi.

Organizimda gaz almashinuvi keskin buziladi va invaziv sun'iy nafas oldirish nafaqat samarasiz, balki zararli hisoblanadi. Bunday hollarda vena-venoz, vena-arterial payvand qilish bilan qonni ekstrakorporal membrana oksigenatsiyasi (EKMO) usuli bemor hayotni saqlab qolishga yordam beradi.

Pron-pozitsiyada nafas olish (kuniga kamida 16 soat)

Chuqur nafas olish va nafasni 5 soniya davomida ushlab turishni 5 marotaba takrorlash so'ngra 6 marta chuqur nafas olgandan keyin yaxshilab yo'talish (niqob taqqan holda).

Bosh ostidagi yostiq bilan qoringa yotib, 10 daqiqa davomida sekin va chuqur nafas olishni kuniga bir necha marotaba takrorlash;

“Sitokin bo‘roni ” ni davolash:

Sitokin bo‘roni - bu qonga sitokinning nazoratsiz chiqarilishi (IL-6, TNF, CPB, FNO va boshqalar) va T-limfotsitlar-killer, makrofaglar, semiz hujayralari va boshqalar faollashadi. Bemorda doimiy va uzoq muddatli isitma kuzatiladi, tana harorati 38-39 ° C va undan yuqori ko'tarilgan bo'lsa, terida gemorragik toshma, gepatosplenomegaliya va ko'plab organlar yetishmovchiligi kuzatiladi. Bemorlarning ongi chalkash, nafas tez-tez (1 daqiqada 40-45 martadan ko'p) va tartibsiz bo'lib, bo'yin mushaklari nafas olishda qatnashadi.

Qonda: leykopeniya, mutloq limfopeniya, trombositopeniya va AlAt, AsAt qon fermentlari me'yorga nisbatan 4-5 marta ko'payadi. Qon tomirlari shikastlanishi xarakterli (kichik, o'rta arteriya va vena tomirlar) ko'p sonli tromblar paydo bo'ladi. Qonda giperkoagulyatsiya holati kuzatiladi.

Sitokinli bo'ronni davolashda kislorodli terapiyadan (invaziv mexanik nafas oldirish va EKMO), antitromb terapiyasidan va natriy heparinni kuniga 30-40 ming birlikda tayinlash bilan antikoagulyant davosi olib boriladi. So'ngra past fraksiyali heparin qo'laniladi. Bunday holatda, reopoliglyukin, yangi muzlatilgan qon plazmasi (antitrombin-III darajasini oshirish uchun) quyiladi.

Glyukokortikosteroidlarni sitokin boʻronlarida qoʻllash biroz munozarali. Deksametazonning minimal dozasi, baʼzi tadqiqotchilarning fikriga koʻra, tanadagi virusning tarqalishiga yordam beradi.

Bemorlar odatda dastlab mexanik sunʼiy nafas oldirish apparatiga ulanadi, agar u samarasiz boʻlsa, traxeya intubatsiya qilinadi va invaziv mexanik nafas oldirishga oʻtiladi.

Ammo bu yerda oʻpkaning shikastlanish darajasini KT (kompyuter tomografiyasi) yordamida hisobga olish kerak, agar oʻpkaning shikastlanishi III-IV darajali boʻlsa, u holda invaziv mexanik ventilyatsiyadan emas balki, bemorlarga EKMO usulini qoʻllab oksigenatsiya venoz-venoz, vena-arteriyal anastomozlaridan foydalaniladi.

Il-6 ingibitorlari yoki metilprednizolon bilan puls terapiya:

Totsilizubam – 4-8 mg/kg dan (bir martada 800 mg dan koʻp yuborish mumkin emas) tomir ichiga sekin tomchilash orqali (kamida 1 soat davomida) yuboriladi, kutilgan natija olinmagan taqdirda (8-12 soatdan soʻng SRB miqdorining yanada oshib borishida) yana 400 mg yuborilish tavsiya etiladi.

Bemorni reanimatsiya va intensiv terapiya boʻlimiga oʻtkazishga koʻrsatmalar

Quyida keltirilgan mezonlardan ikkitasi namoyon boʻlgan taqdirda bemor reanimatsiya va ITB ga oʻtkaziladi:

Es-hushning oʻzgarishi.

SpO₂ < 92% (oksigenoterapiya fonida)

Nafas olishlar soni >35.

Bolalar uchun tavsiya etladigan davolash sxemasi.

Muloqotda boʻlganlarni uyda alohidalash va telefon yoki aloqaning alternativ usullari (telegram, Imo, WhatsApp, Zoom va xk.) orqali UASh yoki pediatr tomonidan nazoratni olib borish.

Infeksiyani yuqtirishni oldini olish maqsadida interferon alfa-2b (tomchi, gel);

D vitamini preparatlari – 1 yoshgacha -1500 ME; 1-5 yosh 2500 ME; 6-17 YoSh-3000 ME sutkasiga 1 mahal 14 kun.

Tomoqni chayish va burun boʻshligʻini yuvish.

Suyuqlik ichish tartibi - bir sutkada 1 kg tana vazniga 30 ml dan

Engil hazm boʻluvchi taomlar - kuniga 5 mahal.

Engil jismoniy yuklama (nafas mashqlari).

10 kun davomida alomatlar bo'lmasa o'z-o'zini yakkalashni tugatish mumkin.

Kasallikning belgisiz shakli bilan og'rikan bemorlarni uyda alohidalash, telefon yoki aloqaning alternativ usullari (telegram, Imo, WhatsApp, Zoom va xk.) orqali UASH yoki pediatr tomonidan nazoratni olib borish.

Ota - onalar yoki vasiylarga tibbiy yordamga zudlik bilan murojaat qilishni talab qiluvchi asorat belgilari haqida ma'lumot berish.

Interferon alfa-2b (tomchi, gel);

Tsink preparatlari 2 yoshgacha -5 mg/sut; 2-10 yosh -10mg/sut; 11-17 yosh -20-30mg/sut. 30 kun.

D vitamini preparatlari – 1 yoshgacha -1500 ME; 1-5 yosh 2500 ME; 6-17 yosh -3000 ME kuniga 1 mahal 30 kun.

S vitamini -50-100mg dan kuniga 2 mahal 15 kun.

Tomoqni chayish va burun bo'shlig'ini yuvish.

Suyuqlik ichish tartibi – bir kunda 1 kg tana vazniga 30 ml dan

Engil hazm bo'luvchi taomlar – kuniga 5 mahal.

Engil jismoniy yuklama (nafas mashqlari)

10 kun davomida alomatlar bo'lmasa o'z-o'zini yakkalashni tugatish mumkin.

Tavsiya etilmaydi:

Davolash va boshqa maqsadlarda antibiotiklar va boshqa preparatlarni tayinlash;

Har qanday vena ichiga va mushak orasiga muolajalar.

Yengil shakldagi bemorlarni uyda alohidalash, telefon yoki aloqaning alternativ usullari (telegram, Imo, WhatsApp, Zoom va xk.) orqali UASH yoki pediatr tomonidan nazoratni olib borish.

Xavfli guruhiga kirgan bemorlarni maxsus tibbiyot muassasasiga yotqizish.

Ota-onalar yoki vasiylarga quyidagilar haqida axborot berish: tibbiy yordamga zudlik bilan murojaat qilishni talab qiluvchi belgilar:

Nafas olishning qiyinlashishi, tez yoki yuzaki nafas (chaqaloqlar uchun: ingrab nafas olish, ko'krakdan emaoimaslik);

SpO2 93% dan kamayishi;

Isitma;

Yo'talning kuchayishi;

Lab va yuzning ko'karishi;

Ongni chigallanishi, uyquchanlik

Suyulik icha olmaslik.

Paratsetamol – 12 yoshdan katta bolalarga (tana vazni 40 kg dan yuqori); bir martalik doza 1 g, kunlik doza 10-15 mg/kg, kunlik doza -60 mg/kg gacha.

Kuniga 4 martadan ko‘p emas, zarur bo‘lganda peroral ichishga 4 soatdan kam bo‘lmagan intervalda 3 kun davomida, alohida holatlarda 5-7 kun.

Ibuprofen og‘iz orqali sutkasiga 3 mahaldan ko‘p emas, 5-10 mg/kg dozada tayinlanadi.

Tsink preparatlari 2 yoshgacha -5 mg/sut; 2-10 yosh -10mg/sut; 11-17 yosh -20-30mg/kun. 2 oygacha.

D vitamini preparatlari – 1 yoshgacha -1500 ME; 1-5 yosh 2500 ME; 6-17 yosh -3000 ME kuniga 1 mahal 2 oygacha.

S vitamini -50-100mg dan kuniga 2 mahal 15 kun.

Yo‘alda: ambroksol -12 yoshdan katta bolalarga sxema bo‘yicha tayinlanadi: Birinchi 2-3 kun tabletkadan (30 mg) 3 marta /sut, keyin 1 tabletkadan 2 marta/sut; sirop -10 ml dan (2 ta o‘lchov qoshiqda) kuniga 3 mahal; 6-12 yoshgacha -5 mldan sirop (1 o‘lchov qoshiqda) 2-3 mahal kuniga, 2-6 yoshgacha -2.5 mldan 3 mahal 1-2 yoshgacha -2.5 ml dan 2 mahal.

Tomoqni chayish va burun bo‘shlig‘ini yuvish. marta /sut

Suyuqlik ichish tartibi – bir kunda 1 kg tana vazniga 30 ml dan

Engil hazm bo‘luvchi taomlar - kuniga 5 mahal.

Engil jismoniy yuklama (nafas mashqlari)

Tavsiya etilmaydi:

antibiotiklar va boshqa dori vositalarini davolash yoki profilaktika maqsadida tayinlash;

Xloroxin va gidroksixloroxin (+/-azitromitsin);

Virusga qarshi preparatlar shuningdek: Lopinavir/ritonavir, remdesivir, uminofenovir.

Immunomodulyatorlar, interferon induktorlari va immunostimullovchi peraparatlar.

Rekonvalesstent plazmasi

Metabolik preparatlar;

Virusli zotiljam davolashda tizimli kortikosteroidlar;

Nebulayzerli terapiya

Infuziyali terapiya.

Kasallikning o'rtta og'ir shakli bilan og'rigan bemorlar maxsus tibbiyot muassasasiga yotqiziladi.

Paratsetamol – 12 yoshdan katta bolalarga (tana vazni 40 kg dan yuqori); bir martalik doza 1 g, kunlik doza 10-15 mg/kg, kunlik doza -60 mg/kg gacha.

Ibuprofen og'iz orqali kuniga 3 mahaldan ko'p emas, 5-10 mg/kg dozada tayinlanadi.

Antikoagulyantlar nojo'ya ta'siri bo'lmagan koagulogramma tekshirilgan o'smirlarga past molekulyar geparin profilaktik dozalarda tavsiya etiladi.

Oksigenoterapiya: 2 oygacha – 0.5 -1 l/min, go'daklar -1-2 l/min maktabgacha yosh 1-6 l/min.

Sink preparatlari 2 yoshgacha -5 mg/sut; 2-10 yosh -10mg/sut; 11-17 yosh -20-30mg/sut. 2 oygacha.

D vitamini preparatlari – 1 yoshgacha -1500 ME; 1-5 yosh 2500 ME; 6-17 yosh -3000 ME kuniga 1 mahal 2 oygacha.

S vitamini -50-100mg dan kuniga 2 mahal 15 kun.

Antibakterial davolash:

Mavjud tavsiyalar asosida bakterial infeksiyaga klinik gumon qilingan taqdirda tavsiya etiladi.

Tanlov antibiotiklariga himoyalangan penitsillinlar kiradi. (amoksitsillin /klavulan kislotasi kunda 45-55mg/kg, 3 mahal yoki 55-60mg/kg 2 mahal peroral)

Tanlov sefalosporinlar 2-3 avlodi (kunda 100mg/kg, parenteral yoki peroral, 2 mahal peroral).

Dezintokskatsion davolash (suyuqlik muvozanatini saqlash)

Ko'p suyuqlik ichish.

Agar bemor bola ichimlik rejimiga rioya qila olsa va elektrolitlar buzilmasa infuzion terapiya tayinlanishdan saqlaning.

Tomoqni chayish, burunni yuvish.

Yengil jismoniy yuklama (nafas olish mashqlari).

Tavsiya etilmaydi:

Immunosupressorlar: Totsilizumab.

Immunomodulyatorlar interferon induktorlari va immunostimullovchi preparatlar: Interferon V -1a, interferon - alfa -2v va boshqalar.

Rekonvalesentlar plazmasi,

Metabolik preparatlar.

KASALLIKNING OG‘IR SHAKLI (OG‘IR PNEVMONIYA) bilan og‘rigan bemorlar maxsus tibbiyot muassasasiga yotqiziladi.

Barcha muassasalarda og‘ir holatdagi bemorlarga qilinayotgan tibbiy yordam, pulsoksimetr, kislorodni to‘g‘ri yuborish tizimiga va oksigenoterapiya uchun moslashtirilgan bir martalik moslamalarga (burun kanyulasi, Venturi maskasi va qopchali maska) asoslangan bo‘lishi kerak.

Har qanday bemorga zudlik bilan oksigenoterapiya buyurish resperator yordamida yuz maskasi yoki shlem bilan bemor hushi saqlanganda amalga oshiriladi.

O‘pkaning sun‘iy ventilyatsiyasiga ko‘rsatma:

Taxipnoe, yoshga bog‘liq me‘yorida 25 foizga ortishi;

Resperator dispres sindromini og‘ir darajasi (ingrovchi yoki xirillovchi nafas, ko‘krak qafasini ichiga tortilishi, “boshni qimirlashi, paradoksal nafas va boshqalar”);

SrO₂/FiO₂ 300 mm.sm.ust munosabati:

Intubatsion invaziv nafas oldirishni o‘pka perfuziyasi bo‘lganda qo‘llash mumkin emas, bu usul o‘pka to‘qimalariga mexanik zarar yetkazadi. AQSH olimlarining fikriga ko‘ra, Covid-19 bilan kasallangan bemorlarning 88 % pandemiya paytida o‘pka intubatsiyasi bilan mexanik ventilyatsiya qo‘llanilgandan so‘ng vafot etgan.

O‘pkada shikastlanish 80% va undan yuqori bo‘lganda ularni davolashda katta tomirlarning anastomozi bilan ekstrakorporal membranali oksigenatsiya (EKMO) usuli bilan davolash maqul.

Bunda o‘pkadan keluvchi CO₂ gazi ushlab qolinib, O₂ bilan to‘yintiriladi va katta doiradagi qon aylanishiga chiqariladi. EKMO apparati o‘pka funksiyasini bajaradi. Bemorda yurak yetishmovchiligi bo‘lganda arteriya-venoz anastomozi qo‘yilib, qon apparat orqali katta son vena tomiridan arteriya tomiriga aorta tomiriga kiradi. Bunda qon CO₂ dan tozalanadi va O₂ to‘yintirilib aorta yoki bo‘yinning katta arterial tomirlariga yuboriladi.

Paratsetamol - o‘spirin bolalarga 12 yosh (40 kg ortiq tana vazniga): maksimal doza 1 g, maksimal kunlik doza 4 g, 12 yosh kichik bolalarga: maksimal doza 10-15 mg/kg, maksimal kunlik doza 60 mg/kg gacha. kunda 4 martadan ko‘p qo‘llamaslik, kerak bo‘lgan vaqtda 3 kun davomida 4 soatdan kam bo‘lmagan vaqt oralag‘ida berish mumkin, alohida holatlarda istma sindromida 5-7 kunga uzaytiriladi;

Ibuprofen 5-10 mg/kg dozada og'iz orqali sutkada 3 marotabadan ko'p bo'lmagan holda beriladi;

Antikoagulyantlar: past molekulyar geparin koagulogramma nazorat ostida buyuriladi;

Dezintoksikatsion davolash (suv balansini qo'llash orqali); konservativ infuzion terapiya samaradorligini dinamikada baholash orqali tavsiya etiladi;

Infuzion davolash;

Suyuqliklarni vena ichiga yuborish katta ehtiyotkorlik bilan amalga oshiriladi, infuzion terapiya oksigenatsiyani og'irlashtirishi mumkin, bu asosan o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasiga imkon bo'lmaganda ko'chada muhim hisoblanadi va katta yoshdagi bemorlarga hamda bolalarga bir xil tegishli.

Antibakterial davoni tanlash ikkilamchi infeksiyani hajmiga, mikrobiologik tekshirish natijalariga va og'irlik darajasiga qarab tanlanadi.

Tanlov antibiotiklariga himoyalangan penitsillinlar kiradi. (amoksitsillin /klavulan kislotasi sutkada 45–55mg/kg, 3 mahal yoki 55-60mg/kg 2 mahal peroral).

Tanlov sefalosporinlarning 2-3 avlodi (sutkada 100mg/kg, parenteral yoki peroral, 2 mahal peroral).

Davolash samarasiz bo'lganda, antibiotikni bakteriologik o'rganish natijasini hisobga olgan holda 48-72 soatdan keyin o'zgartirish kerak.

Kortikosteroidlar (deksametazon, metilprednizolon) quyidagilar asosida tavsiya etiladi:

Kasallikning avj olishi;

SRO 20 mg/l dan ko'p va dinamikada ortib borishi;

Turg'un isitma $> 38^{\circ}\text{S}$;

SrO₂ havoda $< 92\%$;

Deksametazon dozasi -0.1 mg/kg 1 mahal ertalab m/i ga yoki v/i ga yoki peros, lekin sutkada 6 mg dan oshmagan holda.

Metilprednizolon dozasi sutkada 1 mg/kg dan oshmasa.

Tsink preparatlari 2 yoshgacha -5 mg/sut; 2-10 yosh -10mg/sut; 11-17 yosh -20-30mg/sut. 2 oygacha.

D vitamini preparatlari – 1 yoshgacha -1500 ME; 1-5 yosh 2500 ME; 6-17 yosh -3000 ME sutkasiga 1 mahal 2 oygacha.

S vitamini -50-100mg dan kuniga 2 mahal 20 kun.

Adekvat oziqlantirish.

Yengil jismoniy yuklama (nafas olish mashqlari).

O‘TA OG‘IR SHAKL (KRITIK HOLAT) O‘TKIR RESPIRATOR DISTRESS SINDROMI (O‘RDS) bo‘lgan bemorlar maxsus tibbiyot muassasasiga yotqiziladi. (R va ITB).

Ushbu toifadagi bemorlarni davolash mezonlari nafas yetishmovchiligi darajasiga ko‘ra, nafas olish terapiyasini o‘tkazish va qo‘shimcha kislorod bilan qo‘llab quvvatlash choralari ko‘rishdir.

O‘TA OG‘IR SHAKL (KRITIK HOLAT) SEPSIS bemorlar maxsus tibbiyot muassasasiga yotqiziladi. (R va ITB).

Hozirgi kunda bolalardagi ma’lumotlar yetarli emas. JSST umum qabul qilingan taktika empirik antibiotikoterapiyani tezkor qo‘llash, tashxis qo‘yilgandan keyin 1 soat davomida qo‘llash tavsiya etiladi.

Antibiotik terapiyasini boshlashga qadar, pnevmoniya va sepsis qo‘zg‘atishi mumkin bo‘lgan bakteriyalarni aniqlash uchun qon ekmasini olish zarurdir.

Quyidagi antibiotiko terapiya tavsiya etiladi:

Tomir orasiga ampitsillin 50mg/kg har 6 soatda hamda gentamitsin 7.5 mg/kg sutkada 1 mahal, 7-10 kun, yoki seftriakson 30-60 minut tomir orasiga 80-100 mg/kg dozasi sutkaga 1 mahal.

Agar stafilokokk infeksiyasi mavjudligiga shubha bo‘lsa tomir orasiga flukloksatsillin 50 mg/kg dozada har 6 soatda, hamda gentamitsin 7.5 mg/kg dozasi sutkasiga 1 mahal.

Davolash samarasiz bo‘lganda antibiotikni bakteriologik o‘rganish natijasini hisobga olgan holda 48-72 soatdan keyin o‘zgartirish kerak.

Bolada nafas yetishmovchiligi bo‘lsa, yoki u shok holatida bo‘lsa unga kislorod bering.

O‘TA OG‘IR SHAKL (KRITIK HOLAT) SEPTIK SHOK bemorlari maxsus tibbiyot muassasasiga yotqiziladi. (R va ITB).

Bolalarda septik shok jonlantirish choralari qo‘llanilishida birinchi 30-60 daqiqada 10-20 ml/kg kristallsimon eritma yuboriladi. Kristalloidlar tarkibiga fiziologik eritma va Ringer - Lok eritmalari kiradi.

Ventilyatsiya. Dekompensatsiyalangan shok yoki nafas yetishmovchiligi kuchayganda- shoshilinch traxeya intubatsiyasi va SO‘V);

Gipovolemiyani bartaraf etish uchun 30 daqiqa ichida tomir ichiga 20 mg/kg miqdorda 0.9% li natriy xlor eritmasini yuborish (gemodinamikani nazorati

ostida) natija bo'lmaganda 30 daqiqa ichida 20 ml/kg dozasiida yana suyuqlik yuborilishi kerak.

Gipotenziya saqlangan holda, 0,9% natriy xlor eritmasini bolyus usulida yuborish, kardiotonik quvvatlash buyuriladi: markaziy tomirga kirish mavjud bo'lsa norepinefrin eritmasi 0.05-0.3 mkg/kg/min yuboriladi; agar norepinefrin yoki markaziy tomirga kirish imkoniyati bo'lmasa 4% dofamin 5-10-15 mkg/kg/min va yoki dobutamin 5-10 mkg/kg/min mushakka buyuriladi.

Antibiotikoterapiya.

Jonlantirish muolajalarini o'tkazish vaqtida gipotonik kristalloidlar, kraxmallar va jelatinlar ishlatish mumkin emas.

Covid-19 da qo'llaniladigan ba'zi bir dori vositalari, ularning ta'sir mexanizmi va davolash sxemasi ilovada keltirilgan.

Tibbiy evakuatsiya (bemorlarni tashish) davrida tibbiy yordam berish algoritmi. Tibbiy evakuatsiya bosqichi. Diagnostik tekshirish minimumi. Tibbiy yordam hajmi.

KVP. Oilaviy poliklinika. - vaqtincha izolyatsiya; - shoshilinch tez yordam.

1. Portativ nafas olish apparati bilan ingolyatsiya.

2. Shoshilinch Covid shifoxonaga yotqizish, maxsus tez yordam transporti yordamida vrach nazorati bilan. Tez yordam transporti portativ nafas olish apparati bo'lishi shart.

Covid-19 infeksiyasi shifoxonasi.

1. Umumiy qon tahlili

2. Umumiy siydik va axlat tahlili

3. Etiologik tekshirish

1) pulsoksimetriya

2) bioximik tekshiruvlar

3) balg'am mikroskopiyasi

4) balg'amni bakteriologik tekshiruvi

5) ko'krak qafas rentgenogrammasi

6) Ko'krak qafas tomografiyasi

7) mutaxassislar konsultatsiyasi

1. Rejim №3 (engil kasalga), №2 (o'rta og'ir), №1 (og'ir kasalga)

2. Dieta-№2 (avj olganda), №1-5 (pasayish davrda (Pevzner bo'yicha)

3. Virusga qarshi preparatlar

4. Antibakterial preparatlar

5. Simptomatik davolash
6. Oksigenoterapiya maska orqali yoki kateter orqali
7. Fizioterapiya

Covid-19 bilan kasallangan va tuzalgan bemorlarni shifoxonadan chiqarish tartibi. Bemorlarni shifoxonadan chiqarish tartibi quyidagilardan iborat. Bemorlarda shikoyat bo‘lmasligi, isitma me‘yor holga kelishi, laboratoriya tahlillar: umumiy qon, peshob, axlat tahlillarining me‘yor ko‘rsatkichi, 2 marta RNK SARS-COV-2 PTSR tahlilining manfiy bo‘lishi bemorlarni shifoxonadan chiqishi va 14 kun reabilitatsiya shifoxonalarga o‘tkazilishiga asos bo‘ladi.

COVID-19 INFEKSIYASIDA EPIDEMIYAGA QARSHI CHORA-TADBIRLAR

Covid-19 infeksiyasi tasdiqlangan yoki shubha qilingan bemorlar familiyasi, ismi, otasining ismi, yoshi, manzili tibbiyot xodimlari tomonidan aniqlanadi va hududiy sanitariya epidemiologiya markaziga shoshilinch xabar beriladi. Bemorni ko‘rgan tibbiyot xodimlari bemorni izolyatsiya qiladi va himoya niqoblari, himoya kombinzoni kiyadi. Bemorlar 14 kun mobaynida qayerda bo‘ldi, nechta odamlar bilan muloqotda bo‘lgan, oila a‘zolari ro‘yxati olinadi va sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlariga taqdim etiladi. Bemor oilaviy shifoxonada ko‘rilgan bo‘lsa, oilaviy poliklinika bosh vrachiga bemor to‘g‘risida ma‘lumot beradi.

Covid-19 yuqumli kasalliklar shifoxonalarida hududlar qizil, yashil bo‘limlarga bo‘linadi. Qizil bo‘limlarda bemorlar davolanadi, yashil bo‘limlarda (xonalarda) tibbiyot xodimlari yashaydi va qizil hududga kirishga tayyorgarlik ko‘radi.

Asosiy qoidalar:

I-II guruh infeksiyalari talablariga ko‘ra tibbiyot himoya kostyumlari kiyilib, bemorlarga tibbiyot muolajalari o‘tkaziladi, bemor xonalari kuniga 3 mahal dezinfeksiya moddalari bilan tozalanib turiladi. Tibbiyot himoya niqoblari, shpatellar, sistema va shprintslar ishlatilgandan so‘ng dezinfeksiya qilinib, kuydirib yuboriladi. Bemor ishlatgan ko‘rpa to‘shaklar, sochiqlar, gigiyenik salftkalar dezinfeksion kamerada 2200S dezinfeksiya qilinadi.

Dezinfeksiya qilinganligi haqida ma‘muriyat daftariga yozib qo‘yiladi.

Karantinga olingan Covid-19 musbat bo'lgan kishilar yotgan shifoxonalarda ham sanitariya-gigiena, profilaktika qoidalari infeksiyon shifoxonalarga qo'yilgan talablar asosida olib boriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tibbiyot xodimlariga gigiyenik niqoblar, bir marta ishlatiladigan gigiyenik himoya kostyumlari, ko'z oynaklar, tibbiyot qo'lqoplari kvarts-1m apparatlari dezinfeksiya moddalari davlat tomonidan bepul ta'minlanishi maqsadga muvofiq.

Sanitariya transportlari haydovchilari, tibbiyot xodimlari har bir kasalni shifoxonaga olib kelingandan so'ng individual himoya kostyumi almashtiriladi, tibbiyot transporti har bir kasalga xizmat ko'rsatilgandan so'ng yakuniy dezinfeksiya qilinadi.

Tibbiyot transporti, ishlatilgan tibbiyot asboblari dezinfeksiya qilish maxsus joylarda amalga oshiriladi. Kasal chiqargan balg'am, qusuq moddalari, dastro'mol avval xlor tutuvchi dezinfeksiya moddalar bilan dezinfeksiya qilinib, keyinchalik o'rnatilgan tartibda yo'qotiladi.

Kasal uyda va tibbiyot muassasalarida bo'lgan joylarda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazilib, xonalar dezinfeksiya qilinadi.

Covid-19 infeksiyasi bo'lganda dezinfeksiya tadbirlari.

Koronaviruslar dezinfeksiya moddalarga juda kam sezuvchan bo'lishi ma'lum. Shu tufayli dezinfeksiya tadbirlari nafaqat kasal bo'lgan xonalar, balki ko'chalar, pod'ezdlar, odamlar yig'iladigan maskanlar, transport maydonlarida ham qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Dezinfeksiya qilish moddalari har xil kimyoviy guruhga mansub bo'lib, asosan xlor moddasi bo'lgan dezinfeksiya moddalari ishlatiladi.

3% xloramin B, Xlor ishqori, Dixlorizotsianurli natriy tuzi kislotasi (0.06%), Perekis vodorod 3%, Kationlar, To'rtlamchi ammoniy birikmalar (0.5% eritma), Uchlamchi aminlar (0.05%), Guanozinning polimer birikmasi (0.2%), Spirtlar (35%, 70%) - qo'l va badanni dezinfeksiya qilishga ishlatiladi.

Guopropil spirti (70%) – katta bo'lmagan hajmga ega maydonlar (stol, stul, krovat, divanlar) dezinfeksiyasi uchun ishlatiladi.

Dezinfeksiya qilish ob'ektlari. Dezinfeksiya Covid-19 ga qarshi asosiy profilaktik chora-tadbir hisoblanadi.

Dezinfeksiya tadbiri 3 xil bo'ladi.

1. Profilaktik dezinfeksiya.
2. Kundalik bajariladigan (joriy) dezinfeksiya.

3. Yakuniy dezinfeksiya.

Profilaktik dezinfeksiya. Covid-19 infeksiyasi qayd etilgan yoki shubha qilinganda profilaktik dezinfeksiya o'tkaziladi.

Bemor chiqqan uy (xonadon, kvartira) dezinfeksiya qilinadi;

- Bemor bilan muloqotda bo'lganlar qo'lni 20 soniya davomida tez-tez sovunlab yuviladi;

- Qo'lning ochiq joylarini antiseptik gigiyenik salfetaklar bilan artib turiladi;

- Bemor bo'lgan uy tez-tez shamollatib turiladi;

- Bemor bo'lgan xonani sovunlab tozalanadi va keyin dezinfeksiya moddalari bilan har bir predmet artib chiqiladi. Bemor chiqargan chiqindilar (sochiqlar, salfetaklar, dastro'mol) dezinfeksiya moddalarga cho'ktirilib keyin yo'qotiladi);

- Bemor chiqqan xonadonda dezinfeksiya ishlari 5 kun davomida bajariladi.

Covid infeksiyasi bo'lgan bemorlar davolanayotgan shifoxona palatalari, bokslar, koridor, xol, qabul bo'limi, shifoxona hududlari har kuni 4-5 marta dezinfeksiya moddalari bilan tozalanib turiladi. Bemor yotgan palata, eshiklar, eshik bandi, tumbochka, stul va stollar, krovat, umivalnik, hojatxona unitazlari kundalik dezinfeksiya qilinadi.

Dezinfektorlar himoya kostyumlarda bo'lishi, tibbiyot qo'lqoplarida ishlashlari kerak.

Ishlatiladigan dezinfeksiya moddalari yopiq holda, instruksiyasi yozilgan bo'lishi kerak va dezinfeksiya moddalari saqlanadigan shkaflarda saqlanishi maqsadga muvofiq. Saqlanadigan shkaf salqin, qulflanadigan, kislorod kirmaydigan holda bo'lishi kerak.

Yakuniy o'choqli dezinfeksiya. Covid-19 infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar va ushbu kasalga shubha qilinganlar shifoxonalardan tuzalib chiqqanda ular yotgan bokslar, palatalar, bemorning idish-tovoqlari, chiqindilari yakuniy dezinfeksiya qilinadi.

Yakuniy dezinfeksiya uchun xlor tutuvchi dezinfektantlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Xonalar ho'l holda quyuq dezinfektantlar bilan dezinfeksiya qilinadi.

Bemor idish-tovoqlarini dezinfeksiya qilish uslubi. Bemorlarning ovqatlanishi, ovqat idish-tovoqlari, ularning qoldiqlarini zararsizlantirish epidemiyaga qarshi kurash qoidalariga asosan olib boriladi. Bemor ovqatlangandan so'ng idish-tovoqlari dezinfeksiya moddalariga solinadi va

keyinchalik sovunlab yoki tozalovchi poroshoklar bilan yuviladi, ayrim holda idish-tovoqlar qaynatiladi. Ayrim hollarda bir marotaba ishlatiladigan idish-tovoqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ovqat beruvchi xodim dezinfeksiyalovchi moddalar bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

Har bir kasalga individual idish-tovoq ishlatiladi va ovqatlangandan so'ng dezinfeksiya qilinadi.

Chiqindilarning dezinfeksiyasi tibbiyot chiqindilari hamda bemorlardan chiqqan biologik suyuqliklar (so'lak, balg'am, siydik, axlat (fekaliy) sanitariya-epidemiologik qoidalarga binoan dezinfeksiya moddalari bilan tozalanib, keyin yo'qotiladi. Tibbiyot chiqindilari - V klassga mansub chiqindilar hisoblanadi va instruksiyaga binoan yo'q qilinadi.

Bemor predmetlarining dezinfeksiyasi. Bemorning ko'rpa-to'shagi, choyshablari, sochiqlar bemor shifoxonadan tuzalib chiqsa yoki o'lsa dezinfeksiya kameralariga topshiriladi.

Bokslarda, palatalarda yakuniy dezinfeksiya tadbirlari o'tkaziladi. Boks mebellari, krovat, umivalnik, unitazlar dezinfeksiya moddalari bilan tozalanadi. Covid-19 shifoxonalarda aerogen yo'l bilan yuqishi tufayli aerogen epidemiyaga qarshi rejim o'rnatiladi.

Covid-19 infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar yotgan boks, palata poli va devorlarini dezinfeksiya qilish. Dezinfeksiya qilishdan oldin ifloslangan devor va xona pollari tozalanadi. Xona pollari va devorlar bemor qoni bilan ifloslangan bo'lsa, qon qoldiqlari yaxshilab tozalanadi. Shundan so'ng, devor va xona poli xlor tutuvchi dezinfeksiya moddalari bilan tozalanadi (1000 mg/l). Pol va devorlar yuviladi. Dezinfeksiya 30 minut ichida bajarilishi shart, kuniga 3 marta dezinfeksiya qaytariladi.

Covid-19 bemorlar yotgan boks va palatalar havosini dezinfeksiya qilish. Havoni dezinfeksiya moddalari bilan tozalab turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus texnologiya va apparatlar yordamida havoni tozalab turiladi. Retsirkulyatsiya uslubi bilan ultrabinafsha nurlarni havoga taratiladi.

Elektrofiltrlar orqali havoni tozalash.

Kvarts apparati yordamida havoni kvartslab turish.

Havoni elektr asboblari bilan dezinfeksiya qilish retsirkulyatsiya (havoni qayta haydash) printsiplari bo'ladi.

Ayrim holda havoga dezinfeksiya moddalarini aerosol holda yuborish mumkin.

Ko‘chalar, maydonlarni dezinfeksiya qilish uchun maxsus dezinfeksiya mashinalardan foydalaniladi, ko‘chalar, maydonlarni dezinfeksiya qilganda dezinfektor maxsus himoya kombenzonida bo‘lishi shart.

Covid-19 infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarning biologik suyuqliklari (qon, balg‘am, tufuk, siydik, axlat)ni zararsizlantirish (dezinfeksiya qilish). Bemor suyuqliklari 10 ml dan kam miqdorda tashqi muhitga chiqsa quyidagi uslub bilan zararsinlantiriladi:

Birinchi variant. Bemor chiqargan suyuqliklarni (qon, balg‘am, siydik, axlat va h.k.) xlor saqlangan salftkalar bilan yopib qo‘yiladi, yoki xlorlangan latta (vetosh) to‘kilgan suyuqliklar ustiga yopiladi. 30 daqiqadan so‘ng biologik suyuqlik to‘kilgan joy sekin-asta artiladi, so‘ng xlorga to‘yingan salftka solib 2 marta artiladi.

Ikkinchi variant. To‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘kilgan qon va boshqa biologik suyuqliklar dezinfeksiya moddalariga to‘yingan salftkalar, marli bilan artiladi.

Agar bemordan chiqqan qon va boshqa biologik suyuqliklar miqdori 10 ml dan ko‘p bo‘lsa, to‘kilgan joyni belgilab qo‘yiladi va yuqorida ko‘rsatilgan Variant-1, Variant-2 uslubi bilan dezinfeksiya qilinadi. Ishlatilgan marli, salftkalar 30 daqiqa xlor tutuvchi dezinfektantlarga solib, keyin yo‘qotiladi.

Covid-19 kasallaridan chiqqan tibbiyot chiqindilarini yo‘qotish. Bemorlardan chiqqan siydik, axlat, balg‘amlarni tibbiyot chiqindilari deyiladi (klass V). Ushbu chiqindilar sanitariya-epidemiologiya talablariga binoan utilizatsiya qilinadi, ya’ni xlor tutuvchi dezinfeksiya moddalariga 30 daqiqa mobaynida solib qo‘yiladi va keyin utilizatsiya qilinadi.

COVID-19 INFEKSIYASIDA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLAR

Covid-19 infeksiyasi keng tarqalib ketishining oldini olish, chetdan kirib kelishini to‘xtatish, bemorlar bilan muloqotda bo‘lishning oldini olish eng asosiy profilaktik chora-tadbirlardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida Covid-19 infeksiyasi keng tarqalib ketishining oldini olish va profilaktika chora-tadbirlar o‘tkazishni tashkillashtirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir necha qarorlari qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasi qoshidagi sanitariya epidemiologiya nazorati inspeksiya, Sog‘liqni saqlash vazirligiga qarashli sanitariya epidemiologiya

osoyishtaligi agentligi markazlari tomonidan epidemiyaga qarshi kurash komissiyalari tashkil etildi.

Covid-19 infeksiyasiga qarshi profilaktik chora-tadbirlar o'tkazish rejasi tuzilib, muhokama qilinib, tasdiqlandi, tadbirlar uchta yo'nalishga qaratiladi.

1. Kasallik qo'zg'atuvchisining manbaiga (kasal odam, virus tashuvchi) qarshi.

2. Yuqish yo'llariga (mexanizmiga) qarshi.

3. Aholining moyilligini kamaytirishga qaratilgan.

Kasallik qo'zg'atuvchisining manbaiga qarshi profilaktik chora-tadbirlar:

Covid-19 bilan kasallangan bemorlarni yuqumli kasalliklar Covid-19 shifoxonalariga yotqiziladi va izolyatsiya qilinadi.

Etiotrop (virusga qarshi) davolash choralari o'tkaziladi.

Covid-19 infeksiyasining yuqish yo'llarini to'xtatish tadbirlari:

Shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, ya'ni qo'lni tez-tez sovunlab yuvish, bir marta ishlatiladigan salftkalar ishlatish, yo'talganda, aksirganda, balg'am chiqarganda bir marotaba ishlatiladigan salftkalar ishlatish. Bemorlar yuzi, burni, og'zini ochiq qo'l bilan emas, balki gigiyenik salftkalar bilan yopish.

Bir marta ishlatiladigan tibbiyot niqobini ishlatish va uni har 2 soatda almashtirib turish.

Bemorlar bilan muloqotda bo'lgan tibbiyot xodimlari himoya kombenzonidan foydalanishi.

Dezinfeksiya muolajalar o'tkazish (boks, palata, laboratoriya).

Bemordan chiqqan chiqindilarni yo'qotish (utilizatsiya) klass V.

Bemorlarni maxsus transportlarda tashish (Sanitariya-epidemiologiya qoidalariga amal qilgan holda).

Kasallikka bo'lgan moyillik bo'yicha profilaktik tadbirlar:

Eliminatsion davolash (bemor burun kataklari, og'iz bo'shlig'ini 0.9% Na Cl, furatsillin, xlorofilipp eritmalari bilan yuvish, burun kataklariga oksalin mazi surtish (2 marta). Ushbu uslublar bemor burni va og'iz bo'shlig'idagi viruslar va bakteriyalarni yo'qotadi yoki kamaytiradi.

Bemor og'iz bo'shlig'i immunologik funksiyasini ko'tarish bo'yicha dori-darmonlar ishlatish (laringossit, septolet, imudon), og'iz bo'shlig'idagi mahalliy immunitetni shakllantiradi.

O'tkir respirator belgisimavjud bemorlar kasallikning birinchi kunidan boshlab shifokorlarga murojaat qilishi eng asosiy profilaktik chora hisoblanadi.

Karantin davrida tekshirilmagan dengiz mahsulotlarini, yovvoyi hayvonlar go'shtlarini iste'mol qilish, sotib olish taqiqlanadi.

Ovqat mahsulotlarini qaynatilgan holda (pishirilgan) termik pechlardan o'tkazib iste'mol qilish, qaynatilgan suv ichish.

Karantin davrida zooparkka, hayvonlar ishtirok etadigan tomoshalarga bormaslik profilaktik chora-tadbirlarga kiradi.

Karantin e'lon qilingandan to yopilguncha tibbiy niqoblarni taqish, davomiyligi 2 soat, har 2 soatda gigiyenik niqobni almashtirib turish profilaktik choralarga kiradi.

Qo'lni tez-tez 20 soniyada sovunlab yuvish. Qo'lni yuvish ko'chadan kelganda va ovqatlanishdan oldin bajarilishi muhim profilaktik choralarga kiradi.

Chetdan kelgan O'zbekiston va chet el fuqarolarini Covid-19 infeksiyasiga tekshirish, 14 kunlik karantinga olish muhim profilaktik tadbirlarga kiradi.

Covid-19 infeksiyasi bilan davolanayotgan bemorlar palatalari, bokslarining kundalik dezinfeksiya qilinishi, epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazilishi muhim profilaktik choralarga kiradi.

Maxsus profilaktika. Koronavirus infeksiyasiga qarshi profilaktik emlash o'tkaziladi. Koronavirus infeksiyasiga qarshi dunyoning ko'pgina mamlakatlarida bir qancha turdagi vaksinalar ishlab chiqarilgan. 2021- yilning boshlaridayoq dunyoda koronavirusga qarshi 200 ga yaqin vaksinalar ishlab chiqarilib ko'pchiligi klinik sinovlardan o'tkazildi.

Bugungi kunda quyidagi vaksinalar keng ko'lamda qo'llanilmoqda: Xitoyda ishlab chiqarilgan ZF-2001, Xitoy va O'zbekistonlik olimlar hamkorligida ishlab chiqarilgan ZF-UZ-VAC 2001 vaksinasi, Germaniya va Amerika Pfizer kompaniyalari ishlab chiqargan BiONTech vaksinasi, Shvetsiya-Britaniya kompaniyalari Oksford universiteti hamkorligida ishlab chiqarilgan Oxford Astra Zeneca vaksinasi. Koronavirusga qarshi Rossiyada Gamaleya nomidagi epidemiologiya va mikrobiologiya ilmiy-tekshirish markazida ishlab chiqarilgan Sputnik V vaksinasi dunyoda birinchi bo'lib 2021-yili 11-avgustda ro'yxatdan o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yili 1-apreldan boshlab aholini ommaviy emlash ikki xil vaksina (Astra Zeneca va ZF-UZ-VAC 2001) bilan boshlandi.

2021-yil 1-maydan boshlab Respublikamizda ommaviy emlashga Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqilgan “Sputnik V” vaksinasi ham qo‘shildi. Ushbu vakcina bilan 2 marotaba emlanadi, emlashlar oralig‘i 21 kun.

Astra Zeneca vaksinasi bilan ikki marotaba emlanadi, emlashlar oralig‘i 8 hafta. ZF-UZ-VAC 2001 vaksinasi bilan uch marta emlanadi, emlashlar oralig‘i 21 kun.

Yoshi 60 dan katta kishilarga Covid-19 infeksiyasi yuqmasligi uchun profilaktik chora-tadbirlar o‘tkazish:

Karantin e‘lon qilingandan to yopilguncha uydan chiqmaslik.

Himoya gigiyenik niqoblarni taqish.

Burunga har kuni 2 mahal oksalin maz surtish.

Burunga har kuni leykotsitar interferon tomizib turish.

Kompleks vitaminlar (polivitamin tomchilar) ichish.

Surunkali xastaligi bo‘lgan katta yoshli kishilarda kasallik avj olishining oldini olish (oilaviy shifokorlar tomonidan nazorat qilish).

Covid-19 infeksiyasida xizmat qilayotgan tibbiyot xodimlarining shaxsiy profilaktikasi:

Covid-19 infeksiyasiga shubha qilingan bemorlarni oilaviy poliklinika shifokorlari tomonidan ko‘rilganda darhol himoya gigiyenik niqob kiyimlari kiyilishi, qo‘lni sovunlab yuvib, spirt tutuvchi suyuqliklar bilan artishi lozim.

Bemor chiqargan biomateriallarini o‘sha zahoti xlor tutuvchi dezinfeksiya moddalari bilan zararsizlantirib yo‘qotiladi.

Tibbiyot xodimlari bemorlar bilan muloqotda bo‘lganda bir marta ishlatiladigan himoya kombenzonlarida ishlashi, sanitariya-epidemiologiya va profilaktik chora-tadbirlarga rioya qilgan holda faoliyat ko‘rsatishi shart.

Oilaviy poliklinikalarda, QVPda tibbiyot xodimlari bemorlardan chiqqan biologik suyuqliklar xodim badaniga tegib ketsa, o‘sha zahoti qo‘lni spirt tutuvchi teri antiseptiklari bilan artish yoki 70% etil spirti bilan qo‘lni artish.

Covid-19 infeksiyasi bilan ishlayotgan shifokor hamshira va tibbiyot bekalari har 2 soatda isitmasini o‘lchashi shart va bemor shifoxonadan chiqib ketgandan so‘ng 14 kun mobaynida kuniga 2 marta isitma o‘lchanib turiladi.

Tibbiyot xodimlari Covid-19 infeksiyasiga 2 marta PTSR yordamida tekshiriladi.

Aholi o‘rtasida shaxsiy profilaktika o‘tkazish qoidalari:

Birinchi qoida. Qo‘lni tez-tez yuvish. Qo‘l gigienasi - eng asosiy profilaktik chora bo‘lib, Covid-19 dan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qo‘lni sovunlab yuvganda viruslar tez nobud bo‘ladi. Agar sovun bo‘lmasa spirt tutuvchi yoki dezinfeksiyalovchi moddalar bilan qo‘lni artish zarur.

Uy predmetlari, stol, stullar, shkaflar, krovatlar, unitaz, umivalniklarni uyda ishlatiladigan poroshoklar bilan yuvish zarur. Uy jihozlarini yuvish 5-6 soatda qaytariladi.

Ikkinchi qoida. Odamlar orasida ijtimoiy masofa 2 metr bo‘lishi shart. Bu tadbir Covid-19 profilaktikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Iflos qo‘llar bilan ko‘z, burun, og‘izga tegish mumkin emas. Koronavirus Covid-19 ushbu yo‘llar orqali yuqishi mumkin.

Fuqarolar uydan tashqariga chiqayotganda himoya niqoblarini taqishi muhim profilaktik chora-tadbirlarga kiradi.

Fuqarolarda yo‘tal, aksirish, balg‘am chiqarish kuzatilsa, gigiyenik salfetaklar bilan og‘iz, burunni yopib, so‘ng ishlatilgan salfetaklarni dezinfeksiya moddalari bo‘lgan chelaklarga tashlash muhim profilaktik chora hisoblanadi.

Covid-19 infeksiyasi qayd etilgan hududlarda karantin e‘lon qilingan taqdirda, ko‘chaga va ommaviy odamlar yig‘iladigan joylarga borish taqiqlanadi.

Tibbiyot niqoblari O‘RVI kasalliklarning oldini olishda qo‘llaniladi va muhim profilaktik ahamiyatga ega. Tibbiyot niqoblari nafas yo‘llarini viruslardan himoya qiladi.

Tibbiyot niqoblarini tashqariga chiqqanda va odamlar yig‘iladigan joylarda taqishlari shart bu muhim profilaktik chora hisoblanadi.

Boshqa etiologiyali O‘RVI oldini olishda ham gigiyenik niqoblarini taqish maqsadga muvofiqdir.

Shahar transportlaridan foydalangan fuqarolar albatta tibbiyot gigiyenik niqobda bo‘lishlari shart.

COVID-19 INFEKSIYASIDA EPIDEMIYAGA QARSHI KURASHNI TASHKIL QILISH

Covid-19 infeksiyasiga qarshi kurash va ushbu xastalikning keng tarqalib ketishining oldini olish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, Respublika Sog‘liqni saqlash tashkilotining muhim masalalariga kiradi. Ushbu kasallik keng tarqalishining oldini olish nafaqat Sog‘liqni saqlash tashkiloti, balki hukumat miqyosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Sogʻliqni saqlash tashkilotiga boʻysunadigan barcha tarmoqlar epidemiyaga qarshi kurashda ishtirok etishlari shart (QVP, oilaviy poliklinikalar, bolalar shifoxonalari, tez yordam markazlari, koʻp tarmoqli shifoxonalar, kardiologiya, endokrinologiya, dermatologiya, nevrologiya, gematologiya, koʻz kasalliklar shifoxonalari, xususiy klinikalar, diagnostik markazlar, sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi markazlari, dam olish sihatgohlari, tez yordam markazlari va h.k.).

Ushbu tashkilotlarda xizmat qilayotgan shifokorlar mutaxassisliklaridan qatʻiy nazar koronavirus Covid-19 xastaligining tashxisi, klinikasi, profilaktikasi borasida kerakli maʼlumotga ega boʻlishlari kerak.

Covid-19 xastaligining Respublika miqyosida keng tarqalib ketishining oldini olishda ichki ishlar vazirligi, favqulotda vaziyat vazirligi, temir yoʻl, havo yoʻllari transport agentliklari, vazirliklar, Davlat xavfsizligi tashkilotlari, Oʻrta va Oliy taʼlim vazirligi, Maktabgacha taʼlim vazirligi, banklar, nodavlat tashkilotlar, mahalla qoʻmitalari hamda Oʻzbekiston fuqarolari volonterlari ishtirok etishi lozim.

Respublika miqyosida quyidagi tadbirlar oʻtkazilishi lozim:

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida koronavirus Covid-19 epidemiyasining oldini olish va profilaktik chora-tadbirlar olib borishni tashkillashtirish uchun davlat komissiyasi tuzilishi shart.

Sanitariya-epidemiologiya davlat komissiyasi tomonidan quyidagi tadbirlar oʻtkazilishi maqsadga muvofiqdir:

Chet elda boʻlgan va qaytib kelayotgan barcha Oʻzbekiston fuqarolarini 14 kunga alohidalash. Ushbu fuqarolarni koronavirus Covid-19 ga tekshirish va ularda kundalik isitma oʻlchashni tashkil qilish.

Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarini epidemiya kuzatilgan davrda chet elga chiqish vaqtincha toʻxtatilishi lozim.

Bolalar bogʻchalari, yaslilar, maktablar, institutlar, universitetlar, kollejlarning epidemiya tugaguncha faoliyati toʻxtatiladi (ushbu tashkilotlarga karantin eʼlon qilinadi).

Teatrlar, stadionlar, restoranlar, choyxonalar, oshxonalar katta va kichik buyum doʻkonlari, mehmonxonalar, mashinalarga texnik yordam koʻrsatish shaxobchalari faoliyati epidemik vaziyat barqaror topguncha toʻxtatiladi.

Avia va temir yoʻl odamlarga xizmat turlari shahar transportlari, taksi xizmatlari, metro faoliyati epidemik holat barqaror topguncha toʻxtatiladi.

O‘zbekiston fuqarolari zaruriy vaziyat vujudga kelmaganda o‘z uylaridan chiqmaslik joriy qilinadi va uyda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o‘tkaziladi (aholi karantinga olinadi).

Epidemiyaga qarshi kurash, sanitariya-epidemiya chora-tadbirlarini o‘tkazish O‘zbekiston va hududiy televideniya, radio, gazeta va jurnallar orqali targ‘ibot o‘tkazishni tashkillashtirish maqsadga muvofiq.

Respublikaning barcha hududlarida: aholi ko‘p yig‘iladigan joylar, ko‘chalar, davlat tashkilotlari, ko‘p qavatli uylar pod‘ezdlarida dezinfeksiya qilishni tashkillashtirish lozim.

Shaxsiy mashinalar, skuterlar, velosiped bilan ko‘chaga chiqish taqiqlanadi (faqat maxsus ruxsati bo‘lgan avtmashinalar yurishiga ruxsat beriladi).

Aholiga davlat tashkilotlarida ishlagan xodimlarga himoya niqoblari (maskalar) tutishi shart, oraliq masofa saqlanishi, qo‘lni tez-tez sovunlab yuvish tavsiya qilinadi.

Epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar samarali o‘tkazilsa, koronavirus Covid-19 infeksiyasi keng tarqalishining oldi olinadi va o‘lim darajasi keskin kamayadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, koronavirus xastaligi qayd etilgan holda bemorlar Covid-19 shifoxonalariga yotqiziladi va davolanadi.

Koronavirus Covid-19 infeksiyasining epidemiyasi kuzatilganda 3 xil shifoxonalar tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Koronavirus Covid-19 infeksiyasi tasdiqlangan holda bemorlar Covid-19 klinikasiga yotqiziladi va davolanadi.

Koronavirus Covid-19 kasallar bilan muloqotda bo‘lganlar alohidalanadi (izolyatsiya) va 14 kun mobaynida karantinga olinadi. Ushbu maqsadda hududlarda karantin shifoxonalari tashkil qilinadi.

Koronavirus Covid-19 infeksiyasi chiqqan davlatlardan kelgan O‘zbekiston fuqarolarini 14 kun mobaynida alohidalanadi. Ushbu maqsad uchun karantin shifoxonalari tashkil qilinadi.

Bemorlar va karantinda bo‘lgan fuqarolar 2 marta PTSR uslubi bilan tekshiriladi. 14 kun o‘tgandan so‘ng, virus qonda va nafas yo‘llarida PTSR-uslubi bilan aniqlanmasa ushbu fuqarolarga uyga javob beriladi.

Aholi o‘rtasida koronavirus infeksiyasi aniqlangan holda muloqotda bo‘lganlar o‘z vaqtida aniqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Muloqotda bo‘lganlar 2 xil guruhga bo‘linadi:

Koronavirus Covid-19 bilan kasallangan bemorlar bilan muloqotda bo‘lganlar (birinchi guruh)

Birlamchi muloqotda bo‘lganlar bilan aloqada bo‘lganlar (ikkinchi guruh).

Kontakt (muloqot)da bo‘lganlarni aniqlashda bemorni ko‘rgan shifokor va epidemiologlar tomonidan aniqlik kiritiladi.

Ikkinchi guruhda muloqotda bo‘lganlar uchun epidemiologlar tomonidan surishtiruv olib boriladi. Muloqotda bo‘lganlarni o‘z vaqtida aniqlashda, ularning manzilini aniqlash, qayerlarda muloqotda bo‘lganligi, kim bilan uchrashganligi, manzillar, borgan joylarda kimlar bilan uchrashganligini aniqlashda surishtirish ishlariga ichki ishlar xodimlarini ham jalb qilish zarur bo‘ladi.

Koronavirus Covid-19 bilan kasallangan bemorlar 5 nafardan to 300-400 nafargacha sog‘lom odamlarga kasallikni yuqtirishi mumkin. Muloqotda bo‘lganlarni aniqlash va alohidalash koronavirus Covid-19 infeksiyasining keng tarqalib ketishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Profilaktika tadbirlari. Aholi o‘rtasida profilaktik chora-tadbirlarni o‘tkazish koronavirus Covid-19 kasalligining keng tarqalib ketishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Karantin e‘lon qilinganda fuqarolar va ularning oila a‘zolari uy sharoitida alohidalanadi, ya‘ni hamma fuqarolar uyda qoldiriladi.

Kundalik ehtiyoji uchun oziq-ovqatlarni savdo qilish maqsadida oila a‘zolarining bittasi uydan tashqariga chiqish huquqiga ega bo‘ladi. Uydan tashqariga chiqqan fuqaro himoya niqob (maska) taqishi shart, savdo shaxobchalarida oraliq masofaga (2 metr) rioya qilishi shart. Uyga qaytgan fuqaro himoya niqobini almashtirishi, qo‘lini 20 soniya mobaynida sovunlab yuvishi, tashqi kiyim-boshini yechib dezinfeksiya moddalari bilan artishi maqsadga muvofiqdir.

Fuqarolar uylarini tozalash, tez-tez dezinfeksiya moddalari bilan mebellar, oshxona buyumlari, hojatxona, umivalniklarni kuniga 3-4 marta, tozalash poroshogida tozalab yuvib turish maqsadga muvofiqdir.

Yoshi 60 dan oshgan fuqarolar uydan tashqariga chiqishi qat‘iyan manqilinadi.

Oila a‘zolari vitamanga va oqsilga boy ovqatlar va ho‘l mevalar iste‘mol qilishi tavsiya etiladi.

Agar oila a‘zolaridan birida isitma ko‘tarilsa va shamollash alomatlari paydo bo‘lsa tez yordam chaqirish tavsiya etiladi. Tez yordam kelguncha bemor alohida xonaga yotqiziladi va boshqa oila a‘zolari himoya niqoblar kiyishi tavsiya etiladi. Issig‘i chiqqan bemor boshqa oila a‘zolaridan tez yordam xodimlari kelgunicha alohidalanishi shart.

Tez yordam shifokorlariga tavsiya: Tez yordam shifokorlari, feldsherlar, hamshiralar, haydovchilar isitma chiqqan bemor uyiga kelishdan oldin himoya niqoblari, maxsus himoya kombenzonlari, etik kiyishi va shu holatda bemorning uyiga tashrif buyurishi lozim.

Eng avval bemorning harorati o'lchanadi va harorat yuqori bo'lgan taqdirda birinchi yordam ko'rsatiladi. Bemorda koronavirus Covid-19 kasalligi alomati bo'lgan taqdirda tezlik bilan Covid-19 maxsus shifoxonaga yotqiziladi.

Tez yordam xodimlari bemor bilan muloqotda bo'lganlarning ismi, familiyasi, yoshi, manzili, kasbini ro'yxatga olib, hududiy sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi markaziga taqdim etishi lozim.

Tibbiy xizmat ko'rsatilgandan so'ng tez yordam mashinasi dezinfeksiya qilinishi, xodimlar esa niqoblarni va himoya kombenzonlarini almashtirishi maqsadga muvofiq. Har bir bemorni shifoxonaga olib borgan tez yordam mashinasi dezinfeksiya qilinadi.

Oilaviy poliklinika va kasalxonalarda qilinadigan tadbirlar:

Koronavirus Covid-19 kasalligiga shubha qilingan bemorlar shifokor qabuliga kelganda qabulxonaning maxsus bokslarida bemorlar ko'rikdan o'tkaziladi.

Bemorni ko'rishdan oldin himoya niqoblari, maxsus himoya kombenzonlarini kiyish lozim.

Bemorning harorati o'lchanadi, agar yuqori bo'lgan taqdirda birinchi yordam ko'rsatiladi. Bemorda koronavirus Covid-19 kasalligiga shubha qilingan taqdirda maxsus yuqumli kasalliklar shifoxonalariga yuborilishi lozim. Bemorni maxsus tez yordam mashinasida yoki klinikaning tibbiyot transportida Covid-19 kasalxonasiga olib boriladi va yotqiziladi.

Bemorni ko'rgan shifokor epidemiologik surishtiruv o'tkazishi lozim. Bemorning familiyasi, ismi, yoshi, manzili, muloqotda bo'lganlarning hammasi haqida ma'lumot olinishi va hududiy sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi markaziga taqdim etishi lozim.

Kasalni Covid-19 shifoxonasiga yuborilgandan so'ng shifokor, hamshira himoya niqobini, himoya kombenzonini almashtirishi, shifoxona xonalarini dezinfeksiya qilishi lozim.

Klinikaning kelgusida faoliyat ko'rsatishi davlat sanitariya-epidemiologiya inspeksiyasi markazining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Davlat tashkilotlarida (Vazirliklar, shahar va hudud hokimiyatlari, banklar, televideniya, ichki ishlar markazlari, davlat xavfsizligi, harbiy kuchlar

xodimalari, yotoqxonalar, mehmonxonalar) koronavirus Covid-19 epidemiyasi kuzatilganda ushbu tashkilotlar xodimlari epidemiyaga qarshi kurashda sanitariya-epidemiologiya qoidalariga qat'iy amal qilishlari lozim.

Xodimlar ish o'rinlari masofasi 2 metr bo'lishi maqsadga muvofiq.

Hamma xodimlar himoya niqoblarini taqib ishlashlari shart, himoya niqoblari har 2 soatda almashtirilishi maqsadga muvofiq.

Xodimlar qo'lini 20 soniyada sovunlab yuvishi va 70% spirt tutuvchi dezinfeksiya vositalarini ishlatishi maqsadga muvofiq.

Bank xodimlari himoya niqoblarida hamda qo'lga himoya qo'lqoplarini kiyib ishlashlari lozim, chunki qog'oz pullarda koronavirus Covid-19 4-5 kun davomida saqlanib qoladi.

Ishda bo'lgan xodimlar uyga qaytganlarida ustki kiyimlarini va himoya niqoblarini yechib, qo'lni 20 soniyada sovunlab yuvib, so'ng 75% spirt bo'lgan dezinfeksiya moddalari bilan qo'llarni artish lozim. Ishda bo'ladigan xodimlarning uyi tez-tez dezinfeksiya qilinishi shart.

Oziq-ovqat do'konlari, marketlarda sotuvchilar, ishlovchi xodimlar sanitariya-epidemiologik va gigiyenik talablarni bajarishi shart.

Sotuvchilar, g'aznachilar, ishchilar ish boshlashdan oldin qo'llarni 20 soniyada sovunlab yuvishi lozim.

Hamma xodimlar himoya niqobi, rezina himoya qo'lqoplar kiyib ish boshlashi lozim.

Himoya niqoblarni har 2 soatda almashtirish maqsadga muvofiq.

Ish tugagandan so'ng sotuv zali, ombor, yordamchi xonalar to'liq yakuniy dezinfeksiya qilinishi lozim.

Sotuvga tayyorlangan mahsulotlar konteynerga va selofanlarga solingan holatda sotilishi maqsadga muvofiq.

Sotib olishga kelgan fuqarolarning oraliq masofasi 2 metr bo'lishini ta'minlash kerak.

Sotuvchi va do'kon ishchilari uyga kelganda tashqi kiyimlarini va himoya niqoblarni yechib, qo'lni 20 soniyada sovunlab yuvish va boshqa gigiyenik talablarni bajarishi shart.

Bozorlar va ko'chma savdo markazlarga talablar savdo do'konlari marketlariga qo'yilgan talablardan farq qilmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bozor maydonlarida kuniga 2-3 mahal ho'l dezinfeksiya moddalari bilan tozalash o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Koronavirus Covid-19 epidemiyasi tugatilgandan so‘ng ko‘riladigan choratadbirlar:

Koronavirus Covid-19 epidemiyasi Respublika hududlarida tugatilgandan so‘ng epidemiyaga qarshi sanitariya-gigiena qoidalarini davom ettirish lozim.

Har bir davlat va nodavlat tashkilotlarida, maktab, bog‘cha, oliygohlarda, harbiylar kazarmalarida sanitariya gigiena qoidalariga rioya qilishni davom ettirish kerak.

Har bir O‘zbekiston fuqarosi koronavirus Covid-19, gripp va boshqa O‘RVI, yuqumli oshqozon-ichak kasalliklar yuqishining oldini olish maqsadida qo‘lni 20 soniyada tez-tez sovunlab yuvish tavsiya qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasiga kirib kelgan o‘zbekistonlik va chet el fuqarolari aeroportlarda, temir yo‘l vokzallarida va chegaradan o‘tish punktlarida isitmasi o‘lchanishi (termometriya o‘tkazilishi) lozim.

Chet eldan kelgan o‘zbekistonlik va xorij fuqarolari koronavirus Covid-19 ga tekshirilishi yoki tekshirilganligi to‘g‘risida sertifikat ko‘rsatilishi kerak.

Tibbiyot oliygohlari, tibbiyot kollejlari talabalarini yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va gigiena kafedralarida koronavirus Covid-19 infeksiyasi kiritilgan dasturtuzib o‘qitish maqsadga muvofiq.

Vrachlar malakasini oshirish oliygohida malaka oshirishga kelgan shifokorlarni epidemiologiya, gigiena va yuqumli kasalliklar kafedralarida koronavirus Covid-19 infeksiyasi bo‘yicha o‘qitish dasturini tuzib o‘qitish maqsadga muvofiq.

Koronavirus Covid-19 epidemiyasi kuzatilgan davrda ish faoliyatini to‘xtatmagan korxonalar, sexlar, fabrikalar xodimlari ish faoliyati davrida sanitariya-epidemiologiya qoidalariga rioya qilishi shart.

Korxonaga kirayotgan ishchilar ish faoliyatini boshlashdan oldin qo‘llarini spirtli dezinfeksiya moddalari bilan artishi. Qo‘llarni 20 soniyada tez-tez sovunlab yuvish maqsadga muvofiq.

Ishlash davrida xodimlar himoya vositalari (niqoblari) taqishlari lozim va har 2 soatda almashtirib turish maqsadga muvofiq.

Ish faoliyati tugagandan so‘ng ish o‘rinlari, sexlar, yordamchi xonalar xlor tutuvchi dezinfeksiya moddalari bilan dezinfeksiya qilinishi shart.

Uyga kelgan ishchilar himoya niqoblarini maxsus qutilarga tashlashi va tashqi kiyimlarini yechib, dezinfeksiya moddalar bilan artishi lozim.

Ishchi yashash xonalarni tez-tez dezinfeksiya qilib turishi maqsadga muvofiq.

ILOVALAR

Ilova-1. Virusga qarshi preparatlar:

Preparat. Ta'sir mexanizmi. Dori shakli. Davolash sxemasi.

Lopinovir. Lopinavir OITS-1, OITS-2 virusini ingibatsiya qiladi.

Tabletka. Davolash: 400 mg lapinovir preparati har 12 soatda 14 kun beriladi. Tabletka. Agar bemor icha olmasa suspenziya holida zond orqali beriladi.

Umifenovir. Virusga qarshi preparat, koronaviruslarning lipid qatlamini eritib endotelial hujayralariga kirishining oldini oladi. Tabletka.

Kapsula. Davolash: 200 mg 4 marta sutkada (har 6 soatda 10 kun mobaynida beriladi).

Ribovirin. Virusga qarshi preparat, zararlangan epiteliy hujayralarga kirib, Covid-19 virusning replikatsiyasini kamaytiradi. Virus RNK si sintezini kamaytiradi. Tabletka. Kapsula. Davolash: 200mg 4 marta sutkada (har 6 soatda) Davolash 10 kun.

Ilova-2. Virusga qarshi preparatlar.

Preparat MNN. Ta'sir mexanizmi. Dori shakli. Davolash sxemasi.

Rekombinant 1b beta interferon Rekombinant interferon IFN β 1b periferik qonda mononuklear hujayralarning supressor faolligini oshiradi, T-killer hujayralarning apofitoz ta'sirini kamaytiradi. Preparat virusga qarshi, yallig'lanishga qarshi, autoallergiya immunomodulyatsiya qilish xususiyatiga ega.

Teri ostiga yuboriladi Davolash: 0.25mg/ml (8mln ME) teri ostiga 14 kun ichida yuboriladi. Hammasi bo'lib 7-inyeksiya yuboriladi.

Rekombinant.

2-alfa interferon Preparat mahalliy immunomodulyatsiya yallig'lanishga qarshi va virusga qarshi xususiyatga ega. Suyuqlik interanazal (burunga tomiziladi) Davolash: burun kataklariga 3 tomchidan 5 marta kuniga (5 kun).

Bir martalik doza – 300 mE, Sutkalik doza – 15.000-18000 mE

Gidroksixloroxin. Bezgak kasalligida, hamda ichki organlarning tizimli kasalliklarida, biriktiruvchi to'qima tizimi kasalliklarida qo'llaniladi. Azitromitsin antibiotiki bilan qo'llanilganda virusga qarshi samaraga ega.

Tabletka. 400 mg 2 marta birinchi sutkada, keyin 200mg 2 mahal 6 kun.

Xloroxin. Bezgak kasalligida qo'llaniladi, bo'g'imlar tizimli kasalliklarida ham ishlatiladi. Ta'sir mexanizmi gidroksixloroxin preparatiga o'xshab ketadi.

Tabletka. 500 mg 2 marta bir sutkada, 7 kun mobaynida beriladi.

GRIPP

Gripp - gripper qamrab olaman ma'nosini beradi. Insoniyat grippning o'lim darajasi yuqori bo'lgan 5 ta kuchli pandemiyasini boshidan o'tkazgan.

Gripp - yuqori kontagiozli o'tkir virusli respirator infeksiya bo'lib, baland isitma, kuchli intoksikatsiya, nafas yo'llarining yallig'lanishi: bronxit, traxeit belgilari bilan kechadigan yuqumli kasallikdir. Gripp xastaligi tez tarqaladigan epidemiya va pandemiya sifatida aholini keng qamrab oladigan kasallik. Gripp xastaligining epidemiyalarida aholining vaqtincha ishlash qobiliyatini yo'qotilishi 10-15% ni tashkil etadi, ba'zida gripp epidemiyasida vaqtincha ishlash qobiliyatining yo'qolishi 45-50% gacha yetadi.

Etiologiyasi. Gripp virusi Mixovirus influenza - ortomikso viruslar oilasiga mansub, tarkibida RNK bo'lib, toksik xususiyatga ega. Shu bilan birga gripp virusi aglyutinatsion, enzimatik (neyro-aminidaza) xususiyatiga ega bo'lib, yuqori haroratga ta'sirli, dezinfeksiya moddalariga chidamsiz bo'lib, tez nobud bo'ladi. Ushbu virus 1933-yilda Angliya virusologlari Smit, Endryus, Lendlau tomonidan kashf qilingan. Gripp virusi bilan kasallangan bemorning burun surtmasini dengiz kalamushiga yuqtirib o'sha hayvon o'pkasidan ajratib olingan. Ushbu virusga "A" tipidagi gripp virusi deb nom berilgan. 1940-yilda virusologlar Frensis va Medisil gripp virusining "V" tipini kashf etishdi. 1947-yilda esa virusolog Teylor gripp virusining "S" turini kashf etdi. Yakka zanjirli manfiy RNKga ega. RNK zanjiri 8 xil bo'lib, 10 xil virus oqsillarini kodlab chiqarib turadi. RNK tutuvchi gripp virusining tashqi qobig'ida oqsil moddasi bo'lib, bu nukleoproteidlardan iborat. Uning tashqi qobig'ida esa lipidlar (yog'lar) mavjud. Xuddi shu lipidlar odam organizmida kuzatiladigan og'ir zaharlanishni vujudga keltiradi. Virusning tashqi qobig'ida bo'rtib chiqqan lipidlar esa odam epiteliylariga kirishini ta'minlaydi. Ushbu yog'lar glikoproteidlar deyiladi va odam eritrotsitlarini agglyutinatsiya qilish qobiliyatiga ega. Gemagglyutinini gripp virusini odam, hayvonlar va qushlarning epitelial hujayralariga yopishishini ta'minlaydi. Neyroaminidaza esa epitelial hujayraga kirib olish va chiqishni ta'minlaydi. Gemagglyutinini va neyroaminidaza gripp virusining ko'payish davrida o'zgarib turadi va yangi gripp virusining serovorlari paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Nukleoproteid (S-antigen) gripp virusini tarkibiy qismiga kiradi va u o'zgarmaydi. S-antigen (nukleoproteid) gripp virusini A, V, S tiplarini farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gripp virusi sferik bo'lib, 80–120 nonometr o'lchoviga ega. Virusning aglyutinini va neyroaminidaza antigenlari o'zgarib turishi gripp virusining podtiplarini vujudga keltiradi. Ushbu antigenlarning o'zgarishlari gripp

virusining “A” tipiga xarakterlidir. Ushbu antigenlarning o‘zgarishi “A” tipidagi virus chaqirgan kasalligining og‘ir o‘tishi va keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. Grippning epiemiyasi va pandemiyasi ushbu antigenlarning baravar o‘zgarishidan kelib chiqadi.

Hozirgi kunda 16 xil gemagglyutinini va 9 xil neyroaminidaza ma’lum. Gripp virusining “V” va “S” tiplarida gemagglyutinini va neyroaminidaza antigenlari o‘zgarmaydi. Shuning uchun grippning “V” va “S” turlarida katta epidemiyalar kuzatilmaydi. Odam organizmidan ajratib olingan gripp virusining “A” tipida 3 xil ko‘rinishga ega bo‘lgan gemagglyutinini aniqlandi N (N1, N2, N3) neyroaminidazani esa 2 ta podtipe aniqlangan N (N1, N2). 1957-yilgacha “A” gripp virusi odamlarda faqat A (N1, N1) serovari ajratib olingan va ushbu kombinatsionli “A” virusi gripp kasalligini chaqirib kelgan.

1957-yildan 1968-yilgacha “A” tipdagi gripp kasalligining qo‘zg‘atuvchisi A (N2, N2), 1968 yildan so‘ng A (N3, N2) shtamlari ekanligi aniqlangan. Hozirgi kunlarda “A” tipdagi gripp kasalligi virusining A (N1, N1) va A (N3, N2) shtamlari chaqirishi aniqlangan.

Gripp virusining “A” tipi doimiy o‘zgarishda bo‘ladi va mutatsiyaga uchrab turadi. Ushbu “A” tipdagi virus antigenlarining biri o‘zgarsa “antigen dreyfi” deyiladi, 2 ta antigen baravar o‘zgarishi “antigen shifti” deyiladi. Antigenlarning o‘zgarishlari “A” virus oqsil qobig‘ining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. O‘zgarishlar natijasida odam immunitetining virusga bo‘lgan javobi keskin kamayib boradi. Natijada gripp kasalligining og‘ir kechishi va asoratlarning vujudga kelishi kuzatiladi. Shu bilan birga “A” gripp virusining ikki xil antigenining o‘zgarishi gripp epidemiyasi va pandemiyasini vujudga keltiradi. Gripp epidemiyasi va pandemiyasi tugagandan so‘ng, “A” tipdagi virus vaqtincha odam organizmida sust holga tushadi. Ushbu jarayonni virus reaktivatsiyasi deyiladi. Shunda gripp kasalligining latent (belgisiz) yoki virus tashuvchanlikligi vujudga keladi. Gripp virusining “S” turi faqat odam organizmida ko‘payadi. Ushbu gripp turi yengil kasallik chaqiradi, epidemiyalar chaqirmaydi, asoratlari keltirib chiqarmaydi.

Gripp kasalligining A, V, S viruslari past haroratga chidamli +4 gradusda uzoq muddatda saqlanib qoladi. +50-60 gradus haroratda gripp viruslari tez nobud bo‘ladi (1-5 minut). Dezinfeksiya moddalari o‘sha zahoti virusni o‘ldirish qobiliyatiga ega. Viruslarga azon, ultrabinafsha nurlari tez ta’sir qiladi.

Epidemiologiyasi. Gripp infeksiyasining epidemik jarayoni vujudga kelishi uchun 3 ta omil katta rol o'ynaydi: kasallik qo'zg'atuvchisi manbai, yuqish yo'li, kasallikka bo'lgan moyillik.

Gripp kasalligi yuqori kontagiozli, o'tkir virusli respirator infeksiya bo'lib, epidemiya ayrim hollarda pandemiya shaklida keng tarqalishi mumkin bo'lgan yuqumli kasallik hisoblanadi.

1. Kasallik qo'zg'atuvchisining manbai:

Kasallik qo'zg'atuvchisining manbai gripp bilan kasallangan bemor bo'lib, kasallikning o'tkir davrida viruslar tashqi muhitga maksimal ravishda chiqadi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, kasallikning o'tkir davrida, ayniqsa isitma yuqori bo'lganda viruslar maksimal ravishda tashqariga chiqib boshlaydi va aynan shu davrda sog'lom odamlarga katta havf tug'diradi.

Yuqori kontagiozlik 4-7 kun davom etadi. Gripp kasalligining yengil va belgisiz kechishida ham bemorlar kasallik manbai bo'ladi. Shunday kasallar faol turmush tarziga ega bo'lganligi uchun ko'chada, transportlarda, ishda, hamda odamlar yig'iladigan joylarda gripp virusini sog'lom odamlarga yuqtiradi.

2. Kasallikning yuqish yo'llari:

Gripp kasalligi bemorlardan sog'lom odamga yuqishi havo-tomchi yo'li orqali bo'ladi. Bemorlar aksirganda, yo'talganda, balg'am chiqarayotganda yo'tal va aksirish tomchisi orqali viruslar tashqi muhitga chiqadi. Yuqish masofasi 1.5-2 metrni tashkil qiladi. Sog'lom odamlarga bemorning dastro'moli, sochig'i va bemorning boshqa predmetlari orqali ham gripp virusi yuqishi mumkin. Bemor bo'lgan uyning havosi almashtirilmasa, yuqish xavfi 5 baravar ko'payadi.

3. Kasallikka bo'lgan moyillik:

Gripp kasalligiga moyillik barcha yoshda bo'lgan kishilarda kuzatiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, 1-2 oylik chaqaloqlar gripp infeksiyasi bilan juda kam kasallanadi. Bunga asosiy sabab, chaqaloqlar ona qornida transplatsentar va tug'ilgandan so'ng ona suti orqali grippga qarshi immun antitelalar bolalarni himoya qilib turadi. 6 oydan oshgan chaqaloqlarda gripp kasalligiga bo'lgan moyillik oshib boradi.

Aholi o'rtasida gripp infeksiyasiga eng katta moyillik 18 yoshdan to 45 yoshgacha bo'lganlardir.

Gripp kasalligidan so'ng, immunitet "A" tipidagi gripp virus chaqirgan kasallarda 2 yil, "V" tipdagi gripp viruslari chaqirgan bemorlarda esa 3-5 yil davom etadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, grippdan so'ng hosil bo'lgan

immunitet tipospetsifik, ya'ni antigenlarning tiplariga qarshi hosil bo'ladi xolos. Shuning uchun har 1-2 yilda gripp infeksiyasining tarqalishi kuzatiladi. Masalan "A" gripp virusini N2 N3 varianti bilan kasallangandan so'ng infeksiyaga qarshi immunitet aynan shu virusga qarshi chiqadi. Boshqa "A" tipiga chalingan bemorlarni himoya qila olmaydi. Yoki antitelolar tipospetsifik hosil bo'ladi.

Gripp epidemiyasi va pandemiyasi. Gripp epidemiyasi vujudga keladigan omillar mavjud. Ushbu omillar aholining zichligi, migratsiyasi, maishiy xizmat ko'rsatadigan muassasalarga aholining tez-tez borib turishi, sanitariya, gigiena qoidalariga amal qilmaslik gripp infeksiyasining keng tarqalishiga olib keladi. Undan tashqari, transportlarni o'z vaqtida dezinfeksiya qilmaslik, oilaviy poliklinikalarda isitmasi chiqqan bemorlarni qabul qilish, bemorlarni gigiyenik himoya niqoblarini taqmasligi, ushbu omillar ham gripp kasalligining qisqa muddatda keng tarqalishiga olib keladi. Har 2-3 yilda "A" grippning chegaralangan epidemiyasi, har 8-10 yil ichida "A" gripining keng tarqalgan epidemiyasi kuzatiladi. "A" gripp epidemiyasining mavsumiyligi mavjud. Kasallik oktyabr-dekabr oylarida eng ko'p qayd etiladi va epidemiya shaklida bo'lishi mumkin. Avval kasallik yosh bolalarda, keyin o'smirlarda, so'ng kattalarda qayd qilinadi. "A" tipidagi gripp kasalligining tarqalishi avval aholining 20-30%, keyinchalik 50-70% qamrab oladi. Ayrim hollarda kuchli gripp infeksiyasi epidemiyasida aholining 100% gripp kasalligi bilan kasallanishi kuzatiladi. Shuni aytib o'tish kerakki, yer yuzida kuchli gripp pandemiyalari har 25-30 yillar mobaynida kuzatilgan.

Eng ko'p va tez tarqalgan pandemiya 1890-yilda kuzatilgan. O'sha yillarda yer yuzi aholisining 50% gripp kasalligi bilan kasallangan, 20 000 000 odam ushbu kasaldan o'lgan. 20 asrda odamzot 4 marta gripp pandemiyasini boshidan o'tkazgan.

1. 1900-yil – gripp virusining (N3 N2)shtammi chaqirgan pandemiya kuzatilgan.

2. 1918-yil – gripp virusining (N1 N1) shtammi chaqirgan pandemiya kuzatilgan (Ispanka), 20 mln o'lim qayd etilgan.

3. 1957-yil – (N1 N2) (Osiyo) grippi. 1 mln o'lim qayd etilgan.

4. 1968-yil – (N3 N2) (Gonkong) grippi 700 000 o'lim qayd etilgan.

Epidemiya deb, gripp kasalligining bir davlatning bir necha hududlarida keng tarqalishiga aytiladi. Pandemiya deb, gripp kasalligining bir necha davlatlarda, qit'alarda qayd etilishiga aytiladi. Hozirgi kunda Jahon sog'liqni

saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan gripp kasalligi epidemiyasi yoki pandemiyasi ko‘payishi deb baho beriladi va e‘lon qilinadi.

“A” tipdagi gripp infeksiyasida epidemiya 3 oy davom etishi mumkin, pandemiyada esa ushbu muddat uzoq davom etadi. Buning ababi yer yuzining shimoliy mintaqalarida (davlatlarda) “A” tipdagi virus epidemiyasi, pandemiyasi oktyabr-mart oylarida kuzatilishi mumkin. Yer yuzining janubiy mintaqalarida mavsumiylik aprel-avgust oylariga to‘g‘ri keladi.

Demak, gripp kasalligining shiddatli tarqalishi, kasallikning og‘ir kechishi grippning “A” viruslari antigenlarining o‘zgarib turishi va mutatsiyaga uchrashi, aholi immunitetining sustligi oqibatida ro‘y beradi.

Gripp kasalligining patogenezini. Gripp virusi yuqori nafas yo‘llarida joylashgan silindrik epitelial hujayralarga kirib olishi (tropik) va toksik xususiyatlarga ega bo‘lganligi uchun, epitelial hujayralarni qisqa muddatda jarohatlanishi kuzatiladi. Jarohatlanish birinchi navbatda bronxlarda va traxeyada kuzatiladi.

Gripp virusining silindrik epitelial hujayralariga kirishidan oldin virus qobig‘idagi oqsillarni neytrallashtiradigan va viruslarni halokatga olib keladigan α va β interferonlarfaolligi biror muddat viruslarning hujayra ichiga kirishiga qarshilik ko‘rsatadi. Ushbu holat odam organizmining nospetsifik himoyasi vositalari natijasida ro‘yobga chiqadi. Ko‘pincha gripp viruslari yuqorida aytilgan himoya barerini yorib o‘tadi. Yuqori nafas yo‘llaridagi silindrik epitelialarga kirib olgan gripp virusi shiddatli ravishda ko‘payadi. Oqibatda epitelial hujayralarining ommaviy yemirilishi degrodatsiya va nekroz kuzatiladi. Gripp virusining epitelial hujayralarga kirib olishida virusning lipid qobig‘i muhim rol o‘ynaydi.

Epitelialarning nekrozi, ya‘ni viruslarning jarohatlangan hujayralardan ommaviy chiqishi epitelial osti kapillyarlar himoyasini pasaytirib, viruslarning tez ko‘payishiga olib keladi. Yemirilgan epitelialar endogen toksin hisoblanadi. Bir vaqtning o‘zida viruslarning 2 xil antigenlari, ya‘ni gemagglutinin va neyroaminidazalar ham kuchli toksin hisoblanadi. Ushbu toksinlar kompleksi yurak-qon tomir, asab (markaziy va vegetativ), buyrak tizimlarining zaharlanishiga olib keladi. Gripp infeksiyasi bemor immunitetini pasaytiradi.

Ushbu holatda bemor organizmida shartli patogenlar (stafilokokk, streptokokk, pnevmokokk va boshqa floralar) faolligini oshiradi. Ushbu holat

gripp bilan kasallangan bemorlarda har xil asoratlar bo'lishiga sababchi hisoblanadi. Gripp xastaligining 5 ta asosiy patogenez bosqichlari mavjud:

Yuqori nafas yo'llari epitelial hujayralarga viruslarning reproduksiyasi (kirib olishi).

Virusemiya, taksenemiya, toksemik allergik reaksiyalar jarayoni.

Nafas yo'llarining jarohatlanishi (traxeya, bronx, bronxiola).

Jarohatlanish nafas yo'llarining ayrim qismlarida namoyon bo'ladi.

Nafas yo'llarida va boshqa organlarda bakterial asoratlar shakllanishi davri (virusli-bakterial assotsiatsiya)

Kasallikning chekinishi, patologik jarayonning to'xtashi va rekonvalestsentsiya davri. Gripp infeksiyasida kuzatiladigan organlar va tizimlarning jarohatlanishi mikrotsirkulyator o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Ushbu jarayonda umumiy tonus buzilishi, tomir va kapillyarlar devorlari elastikligining yemirilishi kuzatiladi.

Bemor tomirlari va kapillyarlarining o'tkazuvchanligi oshishi mikrotsirkulyator o'zgarishlariga olib keladi. Shuning oqibatida burundan qon ketish, ichak organlari va terida gemorragiyalar kuzatiladi. Ayrim bemorlarda infeksiontoksik entsefalitik, gemoragik alveolit, infeksiyon toksik karaxtlik, o'pka shishishi kuzatiladi.

Bemorlar immunitetining pasayishi natijasida surunkali kasalliklar xuruji yoki avj olishi kuzatiladi. Asoratlar shakllanadi (miokardit, nefrit, sistit, gaymorit, sinusit, otit).

Sirkulyator, mikrotserkulyator o'zgarishlar o'tkir virusli-bakterial zotiljamga (pnevmoniya) olib kelishi xarakterli.

Gripp infeksiyasida kuzatiladigan o'tkir zotiljam (pnevmoniya) asorati virus - bakteriyalar assotsiatsiyasi natijasida rivojlanadi.

Gripp virusi antigenlari (gemaglyutinin, neyroamnizin) jarohatlangan epitelial hujayralari, nafas organlaridagi yemirilish autoallergiya jarayonini keltirib chiqaradi. Oqibatda asmatik belgi, asmatik yo'tal, soxta krupp, laringit, laringo-traxeit kabi asoratlar kuzatiladi.

Patologik anotomiyasi. Gripp xastaligida nafas yo'llarining epitelial hujayralari viruslar tomonidan yemirilishi natijasida degeneratsiya, destruksiya, nekoz alomatlari shakllanadi. Jarohatdan saqlangan epitelial hujayralarda proliferatsiya va metoplaziya kuzatiladi. Jarohatlangan nafas yo'llaridagi tomirlarning kengayishi natijasida nekroz uchastkalar, mayda qon quyulishi

natijasida to'qimalarning shishi yaqqol namoyon bo'ladi. Bemorlarda kataral-deskvomatik traxeit, bronxit, bronxeolit yallig'lanishi qayd etiladi. Bemor o'pkasining jarohatlanishida (pnevmaniya) segmentar shish, o'choqli va segmentar (aralash) pnevmoniya shakllanadi. Gripp kasalligida kuzatilgan pnevmoniya asoratida, alveolalarning seroz va qon suyuqligi bilan to'lishi, hamda alveolalar atrofidagi bo'shliqlarda interstitsial yallig'lanish kuzatiladi. Gripp pnevmoniyada deskvomatik jarayon rivojlanadi, eksudatlarda nekrozga uchragan, qurigan alveolalar epiteliyalar va bakterialar (pnevkokk, stafilokokk va boshqa mikroblar) yallig'lanish jarayonini chaqiradi.

Demak, gripp pnevmoniya rivojlanishida virusli-bakterial assotsiatsiyasi kuzatiladi. (Virusli-bakterial pnevmoniya) gripp xastaligining boshqa og'ir asoratlari gemorragik meningo-entsefalit, seroz meningit, bosh miyaga mayda qon quyilishi, qon-tomirlar degredatsiyasi, miya pardalarining yallig'lanishi, bosh miya shishi kuzatiladi. Boshqa asoratlar: toksik gepatit, mikoardit, pielit, nefrit, qon-tomir va kapillyar buzilishi, yuqorida ko'rsatilgan organlarda distrofik, degenerativ jarayonlar kuzatiladi.

Gripp kasalidan vujudga kelgan asoratlar virus-bakterial assotsiatsiya etiologiyasi ta'sirida bo'ladi hamda allergiya autoallergiya jarayonlari vujudga keladi.

Gripp infeksiyasining klinikasi. Gripp yuqori kontagiozli, o'tkir, virusli respirator infeksiya bo'lib, yuqori isitma, kuchli intoksikatsiya (zaharlanish), nafas yo'llarining yallig'lanishi, bronxit, traxeit belgilari bilan kechadigan xastalikdir. Inkubatsion davr gripp xastaligida qisqa, bir necha soatdan 2 kungacha davom etadi. Kasallik o'tkir boshlanadi, yuqori isitma, intoksikatsiya (zararlanish) kuzatiladi. Bemorlarda xastalikning ilk davrida titrash, holsizlik, darmonsizlik kuzatiladi. Gripp infeksiyasining klinik kechishida tipik hamda atipik shakllari qayd etiladi. Kasallikning o'tkir boshlanishi gripp infeksiyasida xarakterli klinika hisoblanadi. Isitmaning ko'tarilishi, intoksikatsiyaning rivojlanishiga qarab gripp infeksiyasida yengil, o'rta og'ir va og'ir shakllari qayd etiladi. Ushbu shakllar gripp xastaligining epidemik jarayonida kuzatiladi. Gripp infeksiyasining belgisiz, subklinik kechishi ko'pincha epidemiyaning oraliq davrida kuzatiladi. Aytarlik klinik belgilar kuzatilmaydi, isitma ko'tarilmaydi, respirator klinik belgilar bo'lmaydi. Gripp xastaligining boshlanishida yuqori isitma, intoksikatsiya belgilari kuzatiladi. Respirator belgilar kasallikning 3-4 kundan boshlab kuzatiladi.

Gripp infeksiyasining tavsifi:

Inkubatsion davr (bir necha soatdan 2 kungacha).

Kechishi bo'yicha.

A) Tipik

B) Atipik

A. Tipik kechishi: yengil, o'rta og'ir, og'ir, gipertoksik kechish.

B. Atipik kechishi: Afibril, akataral.

Oqibati.

A) tuzalish

B) asoratlarda

V) o'lim

Tipik gripp o'tkir boshlanadi, ko'p hollarda bemorlarda titrash, qaltirash, et uvishishi, sovuq qotish alomatlari kuzatiladi. Shu davrda bemorlarda kuchli bosh og'rig'i, belda, bo'g'imlarda, mushaklarda og'riq, ayrim bemorlarda bosh aylanish qayd etiladi. Gripp kasalligiga xarakterli belgilar ko'z olmasi, qosh oldi sohasida, peshonada og'riq kuzatiladi. Isitma birinchi kundan boshlab yuqoriga ko'tariladi ($38^{\circ}\text{C} - 40^{\circ}\text{C}$) grippning yengil shaklida isitma $37^{\circ}\text{C} - 37.8^{\circ}\text{C}$ ko'tariladi, o'rta og'ir shaklida isitma 37.8°C dan to 38.8°C gacha ko'tariladi. Kasallikning og'ir shaklida isitma maksimal darajada ko'tariladi ($39^{\circ}\text{C} - 40^{\circ}\text{C} - 41^{\circ}\text{C}$). Isitma 3-5 kun davom etadi. So'ng, isitma birdaniga tushadi. Isitmaning ikkinchi marta ko'tarilishi gripp kasalligining asoratlariga bog'liq. Ko'pincha ikkinchi marta isitma ko'tarilishi bemorda pnevmoniya asorati borligidan dalolat beradi. Undan tashqari bemorlarda yiringli tonzillit (angina) gaymorit, otit kabi asoratlarda kuzatilsa, isitma ikkinchi marta ko'tarilishi mumkin.

Isitma bilan bir qatorda bemorlarda charchoqlik, holsizlik, darmonsizlik, adenamiya, kuchli terlash kuzatiladi. Ayrim bemorlarda yorug'likka bo'lgan ta'sirchanlik, ko'z yoshi oqishi, ko'z olmasida og'riq, nafas yo'llarida rinit, faringit, laringit, traxeit alomatlari kuzatiladi. Ob'ektiv ko'rilganda bemor yuzi qizargan, ko'z shilliq qavatida giperemiya, jag' osti limfa tugunlarining shishishi yoki biroz kattalashganligi kuzatiladi. Og'iz shilliq pardasida mayda virusli toshma, til karashligi, til qurishi, og'iz bo'shlig'ida og'riq, ayrim bemorlar tomoq mushaklarida yiringli parda (folekulyar angina) kuzatiladi. Demak, kasallikning boshlanish davrida yuqori isitma, kuchli intoksikatsiya alomatlari kuzatiladi. Kasallikning 3-4 kunlari respirator belgilar boshlanadi.

Xastalikning birinchi kunlaridan boshlab taxikardiya, yurak tonlarining bo'g'iqqligi yoki katta bolalarda yurak sohasida og'riq, aritmiya, arterial bosimning oshishi kuzatiladi. O'pkada dag'al nafas olish, quruq xirillash, nafas olishning tezlashishi, nafas siqilishi yosh bolalarda kasallikning birinchi kunidan boshlab ko'pincha laringit, laringotraxeit, bronxit alomatlari kuzatiladi. Xastalikning 2-4 kunlari yosh bolalarda soxta krupp, ovoz bo'g'ilishi kuzatilishi mumkin. Oshqozon ichak tizimida aydarlik o'zgarishlar bo'lmaydi, lekin ayrim bemorlarda qabziyat, yosh bolalarda esa diareya alomatlari kuzatiladi. Gripp kasalligining birinchi kunidan boshlab kuchli intoksikatsiya (zaharlanish) alomatlari kuzatiladi. Bemorlarda holsizlik, darmonsizlik, adenamiya, uyqusizlik yoki uyquchanlik, kuchli bosh og'rig'i, ishtahaning yo'qolishi, giperesteziya, geperakuziya, og'ir bemorlarda nevrалgiya, nevrit, meningit, miningo-entsefalit alomatlari kuzatiladi. Ushbu o'zgarishlar gripp virusi toksinlari va endogen toksinlarning markaziy asab tizimi va periferik asab tizimlarga ta'siri natijasida ro'yobga chiqadi. Gripp kasalligining gipertoksik shaklida ko'pincha meningit, meningoentsefalit, nevrit, nevrалgiya asoratlari kuzatiladi. Ushbu bemorlarda meningeal belgilar ro'yobga chiqadi (bo'yin mushaklarining qotishi, Kerning, Brudnitsskiy, meningial belgilar) xastalikning 2-3 kunlarida meningial belgilar yo'qoladi. Ushbu bemorlarda orqa miya suyuqligida aydarlik o'zgarishlar kuzatilmaydi. Demak, gripp xastaligida yuqori isitma, kuchli intoksikatsiya, respirator yallig'lanish asosiy belgilar hisoblanadi.

Gripp kasalligining yengil kechishida isitmaning ko'tarilishi $37^{\circ}\text{C} - 37.8^{\circ}\text{C}$, kuchsiz bosh og'rig'i, kataral o'zgarishlar: puls 85-90 ur./min, arterial bosim 115-120 mm simob ustuni, nafas olishning tezligi bir minutda 24-25 marta bo'ladi. Gripp kasalligining o'rta og'ir kechishida umumiy intoksikatsiya, yuqori isitma $38.1^{\circ}\text{C} - 39.9^{\circ}\text{C}$. 1 minutda puls 90-120 marta, 1 minutda nafas olish tezligi 25 marta va undan ko'p, quruq yo'tal kuzatiladi. Gripp kasalligining og'ir kechishi o'ta tez boshlanadi, yuqori isitma (40°C). Undan katta isitmaning uzoq davom etishi mumkin. Kuchli intoksikatsiya: (kuchli bosh og'rig'i, butun tanada og'riq, uyqusizlik qayd etilishi, alahsirash, ishtahaning yo'qolishi, ko'ngil aynash, qusish, meningial belgilar paydo bo'lishi, ayrim bemorlarda entsefalopatiya alomatlari kuzatiladi.

O'ta og'ir bemorlarda puls (tomir urishi) 1 minutda 120 va undan ortiq bo'lishi, sustligi, ayrim bemorlarda aritmiya, yurak sohasida og'riq, yengil sistolik shovqin, nafas olish tezligi 1 minutda 28 va undan ortiq. Gripp

kasalligining og'ir kechishida entsefalopatiya, infeksiyon allergiya holati, asabning buzilishi, talvasa, sudorglar belgisi, gollyutsinatsiya kuzatilishi mumkin. Bemorlar ko'krak qafasida kuchli og'riqli yo'tal, nafas qisishi, hansirash, havo yetishmasligi kuzatiladi. Ayrim bemorlarda burundan qon ketishi, og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida mayda gemorragik qon talash qayd etiladi.

Gripp infeksiyasining gipertoksik shakli. Gripp kasalligi gipertoksik kechishi kam uchraydi. Ushbu bemorlarda kataral belgilar kuzatilmaydi. Kasallik chaqmoqsimon (shiddatli) boshlanadi, intoksikatsiya kuchli namoyon bo'ladi.

Ushbu bemorlarda qisqa muddat ichida gemorragik, toksik o'pka shishi, burundan qon ketishi, bosh miyaga qon quyilishi, DVS-sindrom, o'tkir nafas-o'pka yetishmasligi, o'tkir yurak-tomir yetishmasligi, o'tkir buyrak yetishmasligi, meningit, meningoentsefalit kuzatiladi. Bemorlarda yiringli-nekrotik laringotra-xeobronxit shakllanadi. Ikki taraflama pnevmoniya kuzatiladi. O'lim holati yuqori darajada saqlanib qoladi. Ushbu bemorlar yuzida kuchli giperemiya, bemor terisi qonsiz, ko'kargan (tsianoz) holatida bo'ladi. O'pkada quruq va ho'l xirillash, o'pka shishi, yurakda taxikardiya, aritmiya, yurak tonlari bo'g'iq sistolik shovqin (infeksiyon toksik miokardit) siydiknig kamayishi (oligouriya) va to'xtashi (anuriya), meningit, meningoentsefalit, o'tkir buyrak usti bezi yetishmasligi kuzatiladi. Gripp infeksiyasining gipertoksik shakli kuchli epidemiya davrlarida kuzatiladi va o'lim darajasi ancha yuqori bo'ladi.

Gripp kasalligining yosh bolalarda kechishi. Gripp xastaligining yosh bolalarda kechishida katta bolalardan farqi kasallik og'irroq o'tishi, asoratlarning tezroq namoyon bo'lishi, hamkor kasalliklarni qo'zg'atishi xarakterli.

Yosh bolalarda gripp kasalligi kattalardagidan quyidagi ko'rsatkichlar bilan farqlanadi:

- kasallikning og'ir o'tishi;
- kataral belgilarning tezroq namoyon bo'lishi;
- nafas yo'llarida laringit, laringotraxeit, bronxit, bronxopnevmoniya, soxta krupp holatining tezroq namoyon bo'lishi;
- asoratlarning ko'proq namoyon bo'lishi;
- kasallikning uzoqroq muddatga cho'zilishi.

Yosh bolalarda gripp xastaliklarida isitma, intoksikatsiya, respirator belgilar uzoqroq, ya'ni 5-8 kun davom etadi.

Gripp kasalligining yoshi katta va qariyalarda kechishi. Katta yoshli bemorlar va qariyalarda gripp kasalligining og'irroq kechishi, asoratlari tezroq namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Gripp kasalligi katta yoshli va qariyalarda og'ir va o'ta og'ir o'tishi ko'proq kuzatiladi. Kasallik davrlari cho'zilgan, intoksikatsiya, kataral belgilar o'rta yoshli bemorlarga qaraganda ko'proq, asoratlari tez-tez namoyon bo'lishi xarakterli. Ushbu bemorlarda xastalik sekin asta boshlanadi, isitma kasallikning birinchi kunlari subfibril ($37.1^{\circ}\text{C} - 37.5^{\circ}\text{C}$), 3-5 kunlar yuqori $38^{\circ}\text{C} - 39.5^{\circ}\text{C}$ va sekin astalik bilan tushishi kuzatiladi. Kataral belgilar ham sekin asta rivojlanadi.

Ammo nafas yo'lining quyi qismida yallig'lanish (bronxit, traxeobronxit, pnevmoniya) kuchli namoyon bo'ladi. Ko'pincha katta va qari yoshdagi bemorlarda yurak-qon tomir tizimida o'zgarishlar kuchli namoyon bo'ladi. Bemorlarda burun, og'izdan nafas olishning tezlashishi, akrotsianoz, taxikardiya, arterial bosimning pasayishi kuzatiladi. Ushbu bemorlarda intoksikatsiya belgilari kam namoyon bo'ladi. Isitma davomiyligi 8-9 kunni tashkil etadi, isitma sekin astalik bilan tushadi. Katta yoshli va qari bemorlarda gripp pnevmoniyasi 2,0 - 2,5 baravar ko'p namoyon bo'ladi.

Pnevmoniya alomati kuzatilganida bemorlarda hansirash, titrash, bemorning isitmasi $39^{\circ}\text{C} - 40^{\circ}\text{C}$ ga yetadi. Nafas olish qiyinlashadi, hansirash kuchayadi, nafas olish tezligi 1 minutda 30-35 marta kuzatiladi. Pnevmoniya asoratlari boshlanganida quyidagi belgilarning kuchayishi kuzatiladi:

- holsizlik, darmonsizlik, ishtahaning pasayishi yoki yo'qolishi, adenamiya, terlash, bosh og'riq, bosh aylanish kuzatiladi;

- nafas yo'llaridagi yallig'lanish ham kundan-kunga kuchaya boradi.

- og'iz shilliq pardasining achishishi, tufuk yutganda og'riq, quruq va ho'l yo'talning kuchayishi, tez-tez balg'am chiqishi, burun bitib qolishi xarakterli.

- nafas yo'llari yallig'lanishining kuchayishi (rinit, faringit, laringit, traxeit, bronxit, bronxiolit, bronxopnevmoniya) qonda leykotsitoz, leykopeniya, eozinofelez, monotsitoz kuzatiladi. Eritrotsitlarning cho'kish tezligi oshadi. Kasallikning tuzalish davrida infeksiyadan keyingi asteniya, charchoqlik, holsizlik, bosh og'rig'i, uyqusizlik, astenovegetativ belgilar kuzatiladi. Yoshi katta bemorlar ko'pincha reanimatsiya bo'limida davolanadi.

Gripp infeksiyasining diagnostikasi. Gripp infeksiyasiga tashxis qo'yishda xastalikning boshlanishi, o'ziga xos klinik belgilarining namoyon bo'lishi,

intoksikatsiya va isitmaning rivojlanishi, joylardagi epidemiologik holat, laboratoriya ko'rsatkichlari asosida tashxis qo'yiladi.

Gripp infeksiyasiga xos klinik belgilar:

- kasallikning o'tkir boshlanishi;
- kasallikning 1–3 kunlarida intoksikatsiya belgilarining namoyon bo'lishi;
- kasallikning 1–3 kunlarida kataral belgilarning kuzatilmasligi;
- kasallikning 4–7 kunlarida kataral belgilarning namoyon bo'lishi;
- kasallikning 1–3 kunlarida isitmaning yo'q bo'lishi;
- kasallikning 4–7 kunlari asoratlarning namoyon bo'lishi.

Ushbu klinik ko'rsatkichlar gripp infeksiyasiga xos bo'lgan diagnostik klinik ko'rsatkichlardir.

Kataral yallig'lanish belgisi. Yiringsiz, burun, hiqildoq yallig'lanishi va ko'z shilliq qavatining qizarishi ushbu belgilar ko'pgina o'tkir virusli respirator kasalliklarda namoyon bo'ladi. Ammo, gripp xastaligida yallig'lanish 1–3 kunlar kuzatilmaydi. Bemorlar og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining giperemiyasi, ko'z kon'yunktivasining qizarishi (giperemiya) va mayda virusli toshmalar kuzatiladi. Ushbu kataral yallig'lanish belgilari kasallikning 3–4 kunlari kuzatiladi.

Respirator belgilar. Hiqildoq va traxeya shilliq qavatining yallig'lanishi, bronxlarda kuchli yallig'lanish, hiqildoqning yallig'lanishi natijasida traxeit (laringit) kuzatiladi. Demak, gripp kasalligida traxeobronxit, laringit, bronxiolit, pnevmoniya yallig'lanishlari kuzatiladi.

Belgilar: quruq yo'tal, yo'tal paytida ko'krak qafasida og'riq kuchayadi. Nafas olish qiyinlashadi. Ayrim bemorlarda distrest belgisi kuzatiladi.

Gemorragik belgi. Og'ir bemorlarda kuzatiladi: burundan qon ketishi, terida, og'iz shilliq qavatida gemorragiya, bosh miya qon tomirlaridan kapillyar qon ketishi, gemorragik pnevmoniya kuzatiladi.

Gripp infeksiyasida o'pkaning segmentar jarohatlanishi belgilari. Og'ir bemorlarda kuzatiladi. Ushbu belgi bir necha soatda rivojlanadi (ushbu holat pnevmoniya emas). Bemorlarda juda tez o'pka yetishmasligi va bir vaqtda nafas, qon tomir yetishmasligi kuzatiladi. O'pkaning ayrim segmentlariga seroz suyuqlik to'ladi, to'g'ri va malakali davolanganda o'pka segmentlaridan yallig'lanish yo'qoladi, o'pkadan suyuqlik so'riladi. 2–3 kun ichida klinik, rentgenologik tuzalish kuzatiladi.

Gripp infeksiyasida abdominal belgilar. Bemor bolalarda ko'ngil aynish, qusish, qorin sohasida og'riq, diareya kuzatiladi, qorinda gaz yig'iladi. Ichak

perestaltikasi kuchayadi. Ayrim bolalarda I–II darajada disbakterioz, holetsistit belgilari kuzatiladi.

Gripp infeksiyasining laboratoriya tashxis ushlari. Gripp infeksiyasiga tashxis qo'yishda maxsus (spetsifik) laboratoriya ushlaridan foydalaniladi. Laboratoriya ushlar gripp xastaligining etiologiyasi, maxsus antigeni va antitelalarini aniqlashda va tuzalish mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Viruslarni ajratib olish: gripp virusini ajratib olish mumkin. Avval kasallikning 1–3 kunlari bemorning burun va tomog'idan surtma olinadi. Olingan surtma tovuq tuxumiga ekiladi. Tovuq tuxumi 10–11 kunlik bo'lib, urug'langan tuxum embrioni shakllangan bo'lishi shart tuxumning aminiotik, allantoik suyuqligiga surtma ekiladi va 48 soat ichida o'sish kuzatiladi. Ushbu uslub virusologiya institutlarining maxsus laboratoriyalarida olib boriladi. Ushbu uslub viruslarning tiplarini aniqlashda qo'l keladi.

Immunoflyuorestsentsiya uslubi. Ushbu uslub gripp virusining burun shilliq qavatidagi zararlangan epitelialar ichidagi viruslarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Viruslar qobig'ida grippning gemagglyutinini va neyroame-nidaza antigenlarini aniqlashda immunoflyuorestsentsiya uslubi qo'llaniladi. Ushbu usulni qo'llashda flyuorestsentsiyalangan antitelalardan foydalaniladi. Avval flyuores-tsentsiyalangan antitelalar surtmasini predmet shishalarga surtiladi, uning ustiga burundan olingan surtma surtiladi. Keyin maxsus lyuminestsent mikroskop orqali viruslarning bor yo'qligi aniqlanadi. Immunoflyuorestsentsiya uslubi gripp xastaligining 3–5 kun va bemor tuzalganidan so'ng 12–14 kunlari bajariladi.

Komplementlarni bog'lash reaksiyasi (KBR). KBR, ushbu uslub serologik tashxis uslubi bo'lib, gripp virusi antitelalarining bor yoki yo'qligini aniqlashda A va V gripp virusini bir-biridan farqlash uchun ishlatiladi.

Gemagglyutinatsiyani sekinlatish (tormozlash) reaksiyasi (RTGA). Gripp viruslarini bir-biridan farq qilish, virus qobig'idagi oqsillarini aniqlashda ishlatiladi. "A" grippning tiplari va podtiplarini aniqlashda RTGA muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu uslubni bajarishda tovuq va odam eritrotsitlaridan foydalaniladi.

Rinotsitoskopiya uslubi. Ushbu uslub burun kataklaridan olingan surtma ichida viruslar borligi yoki yo'qligini aniqlashda ishlatiladi. Surtma tarkibida bo'lgan silindrik epitelialar tarkibida o'sgan va ko'paygan viruslarni mikroskop ostida

ko‘riladi. Qiyosiy diagnostika uslubi hisoblanadi. Gripp xastaligini boshqa o‘tkir respirator virusli kasalliklar bilan qiyoslash, kasallikning turini va samarali davolashda, uning qon tarkibida viruslar bor yo‘qligii aniqlashda qo‘llaniladi.

Qiyosiy diagnostika. Gripp xastaligini eng avvalo koronavirus Sovid-19 infeksiyasi, so‘ng boshqa o‘tkir virusli respirator infeksiyalar bilan qiyoslash maqsadga muvofiqdir.

Koronavirus Sovid-19 infeksiyasi. Koronavirus Sovid-19 infeksiyasi juda tez tarqalish xususiyatiga ega bo‘lgan, yuqori isitma, respirator belgilar bilan kechadigan yuqumli kasallikdir. Koronavirus Sovid-19 infeksiyasi o‘tkir boshlanadi, bemorlarda yuqori isitma, respirator belgilar: yo‘tal, aksirish, burun va og‘iz bo‘shlig‘ining yallig‘lanishi, mushaklarda, belda og‘riq, titrash, og‘izda maza bilmaslik, hid bilish qobiliyatining yo‘qolishi alomatlari paydo bo‘ladi. Yoshi katta, ayniqsa 65 yoshdan katta bemorlarda kasallik og‘ir o‘tishi, pnevmoniya, asoratlarning tez va shiddatli paydo bo‘lishi muhim qiyosiy diagnostik ahamiyatga ega. Shuning uchun gripp xastaligini albatta koronavirus Sovid-19 infeksiyasi bilan kasallikning ilk davridayoqqiyosiy taqqoslash maqsadga muvofiq. Sovid-19infeksiyasida giperkoagulyatsiya DBCbelgisi, toksik pnevmoniya kuzatiladi.

Paragripp. Paragripp infeksiyasida yallig‘lanish hiqildoqda, ovoz boylamida, traxeyada, bronxda kuzatiladi. Bemorlarda laringit, laringotraxeit, soxta krupp rivojlanadi. Isitma paragrippda yuqori ko‘tarilmaydi, intoksikatsiya belgilari gripp xastaligidan farqli o‘laroq kuchli bo‘lmaydi. Paragrippda bemor tovushining bo‘g‘ilishi, quvillab yo‘talishi, nafas olishning qisilishi kuzatiladi. Ayrim bemorlarning tovushi yo‘qoladi. Og‘ir asoratlardan laringospazm, soxta krupp, abstruktiv bronxit, allergiya kuzatiladi.

Adenovirus infeksiyasi. Adenovirus infeksiyasida jarohatlanish yuqori nafas yo‘llarida, ko‘z shilliq qavatida, oshqozon ichak traktida, o‘pkada namoyon bo‘ladi. Adenovirus infeksiyasining qo‘zg‘atuvchisi DHKtutuvchi virus bo‘lib, jarohatlanishlar butun ichki organlarni qamrab oladi. Poliorgan jarohatlanish kuzatiladi. Ushbu infeksiyada isitma 1-2 hafta davom etadi, ayrim holda undan uzoqroq bo‘lishi mumkin. Bemorlarga ko‘z shilliq qavatining yallig‘lanishi xarakterlidir. Kataral, follekulyar, plenkali kon’yunktivit, keratokon’yunktivit kuzatiladi. Bemorlarda rinit, laringit, traxeit, bronxiolit, pnevmoniya holati kuzatiladi. Eng kuchli yallig‘lanish og‘iz murtaklarida kuzatiladi, (angina) faringit, bronxit, laringo traxeit yallig‘lanishi uzoqroq davom etadi.

Adenovirus infeksiyasida kuzatilgan pnevmoniya segmentar yoki bronxopnevmoniya shaklida rivojlanadi. Adenovirus infeksiyasining xarakterli jarohatlanishi oshqozon ichak tizimida kuzatiladi. Bemorlarda ko'ngil aynash, ishtahaning pasayishi, dispepsiya (ich ketish), qorin og'rig'i kuzatiladi. Adenovirus infeksiyasiga jigar va qorataloqning kattalashishi xarakterlidir. Bemorlarda leykotsitoz, neytrofilez, eozinofelez, EChTning oshishi kuzatiladi.

Rinovirus infeksiyasi. Rinovirus infeksiyasida bemorlarda rinit, rinoreya kuzatiladi. Yuqori isitma, kuchli intoksikatsiya kuzatilmaydi. Yo'tal 1-2 marta bo'lishi mumkin. Burundan to'xtovsiz seroz suyuqlik chiqib turadi. Burun kataklarida, og'iz bo'shlig'ida yallig'lanish (giperemiya) sianoz kuzatiladi. Nafas yo'llarining quyi qismida aytarlik o'zgarishlar kuzatilmaydi. Gripp kasalligini boshqa yuqumli kasalliklar bilan qiyoslash maqsadga muvofiqdir. Ko'pincha qizamiq, meningokokk infeksiyasi, tif-paratif kasalligi, virusli seroz meningitlar (Koksaki, YeSNO) bilan qiyosiy diagnostika qilinishi maqsadga muvofiq.

Qizamiq. Qizamiq ko'pincha yosh bolalarda kuzatiladi. Qizamiqqa qarshi emlanmagan bolalarda ko'proq qayd etiladi. Qizamiq o'tkir boshlanadi. Birinchi kundan boshlab yuqori isitma, kuchli intoksikatsiya, rinit, faringit, laringit, traxeit, bronxit, pnevmoniya holati kuzatiladi. Bemor bolalarda kon'yunktivit, og'iz shilliq qavatida ko'pincha bola lunjida xarakterli oq toshmalar paydo bo'ladi (Filatov-Bel'skiy-Koplik). Xarakterli qizamiq toshmasi kasallikning 3-5 kunlari kuzatiladi. Toshmalar kasal badanida makulo-papulez ko'rinishida bo'ladi. Toshmalar bosqichma-bosqich toshadi. Avval bemor bolaning yuzida (1-2 kun) so'ng badanida (qorinda) 3-5 kunlardan so'ng oyoqlarda kuzatiladi. Bemor bola isitmasi tushishi bilan toshmalar yo'qoladi, chandiq qolmaydi.

Virusli gepatit "A" (VGA). VGAning boshlang'ich davrida (kasallikning boshlanish davri) yuqori isitma, intoksikatsiya, yuqori nafas yo'llarida yallig'lanish kuzatiladi. Shu bilan birga bemorlarda oshqozon-ichak tizimining yallig'lanishi kuzatilishi mumkin. Ko'pincha VGA infeksiyasi 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda kuzatiladi. Bemor bolalarda ishtahaning yo'qolishi, ko'ngil aynash, qusish alomatlari qayd etiladi. Xastalikning 2 haftasidan boshlab peshob qizaradi, teri va og'iz shilliq qavatida sarg'ayish alomatlari bosqichma-bosqich ko'rinadi. Avval ko'z shilliq pardalarida, og'iz bo'shlig'ining shilliq qavatida, so'ng terida sarg'ayish kuzatiladi. Sarg'ayish davri boshlanishi bilan isitma tushadi, qusish, ko'ngil aynash qoladi. Intoksikatsiya belgilari kamayadi.

Tif-paratif infeksiyalari (TPZ). Paratif A infeksiyasi bilan qiyosiy tashxis o'tkazish maqsadga muvofiq. Paratif A infeksiyasi sekin-asta boshlanadi. Isitma birinchi kunlari uncha yuqori bo'lmaydi. Isitma kasallikning 5-7 kunlari yuqori darajaga ko'tarilib, 6-8 kun yuqori darajada turadi, so'ng sekin-asta tusha boshlaydi.

TPZda (yo'tal, rinit, tonzillit, faringit) sust bo'lib 5-7 kunlarda yo'qoladi. 6-8 kunlari tanada rozeolez toshmalar paydo bo'ladi, 4-5 kundan so'ng toshmalar yo'qola boradi, tif va paratif infeksiyalarida, alaxsirash, gollyutinatsiya belgilari (tif statusi) kuzatiladi. Bemorlarda leykopeniya, neytropeniya, anemiya, anezinopeniya monotsitoz kuzatiladi. Gemokultura musbat bo'ladi.

Meningokokk infeksiyasi. Gripp xastaligini meningokokk infeksiyasining nazofaringit (lokal) shakli bilan qiyoslab taqqoslash kerak. Meningokokk nazofaringitida isitma, intoksikatsiya belgilari sust bo'ladi. Tomoq og'riq, tumov, nafas qisishi kuzatilmaydi. Og'iz va burun shilliq qavatida giperemiya kuzatiladi. Bemor qonida leykotsitoz, neytrofilez eritrotsitlarning soni kamayishi, eritrotsitlar cho'kish tezligining oshishi kuzatiladi.

Koksaki, YeSNO infeksiyalari. Koksaki, YeSNO viruslari keltirib chiqargan respirator infeksiyalarda seroz meningit asorati kuzatiladi. Bemorlarda kasallikning birinchi kundan laringit, rinoreya, faringit, tonzillit yallig'lanishi kuzatiladi. Koksaki va YeSNO viruslari tomonidan chaqirilgan O'VRIning og'ir kechishida meningit, meningoentsefalit alomatlari namoyon bo'ladi. Bemorlarda giperesteziya, giperakuziya, terini ta'sirchanligining oshishi kuzatiladi. Ayrim bemorlarda xush ketishi, bosh aylanishi, meningeal belgilar paydo bo'lishi xarakterli. Orqa miya suyuqligida sitozi kuzatiladi. Qonda leykopeniya, limfotsitoz eozinofelez qayd etiladi.

Ku-isitmasi. Ku-isitma infeksiyasida ham respirator belgilar kuzatiladi. Harorat uzoqroq davom etadi. Intoksikatsiya esa kundan-kunga oshib boradi va kuchli namoyon bo'ladi. Ku-isitma infeksiyasida bemorlarda titrash, tez-tez terlash sutkada bir necha marta takrorlanadi. Nafas yo'llarida respirator yallig'lanishlar juda sust, yoki umuman bo'lmaydi. Bemorlar bo'g'imlarida og'riq, jigar va taloqning kattalashishi kuzatiladi.

Gripp kasalligining oqibati. Gripp kasalligini boshidan o'tkazgan bemorlarda tuzalish va asoratlarning qolishi kuzatiladi. Ayrim og'ir asoratli bemorlarda o'lim holati kuzatilishi mumkin.

Gripp oqibatlari:

- Tuzalish;
- Asteno vegetativ belgi;
- Asoratlarning shakllanishi;
- O‘lim.

Gripp xastaligida kuzatiladigan ikkilamchi asoratlar:

Gaymorit, Faringit, Sinusit, Otit, Bronxit, Laringotraxeit, Soxta krupp, Pnevmoniya, Toksik miokardit, Nefrit, Meningit, Meningo entsefalit

Shuni ta’kidlash lozimki, gripp infeksiyasini oyoqda o‘tkazilsa, asoratlar ko‘proq shakllanishi kuzatiladi.

Davolash. Gripp kasalligini davolash kompleks ravishda olib borilishi maqsadga muvofiq. Davolashda kompleks etiotrop, patogenetik, simptomatik davolash uslublari qo‘llaniladi. Ushbu davolash uslublarini qo‘llash gripp viruslarining o‘sish darajasini keskin kamaytiradi, intoksikatsiya belgilari rivojlanishining oldini oladi, yuqori nafas yo‘llaridagi yallig‘lanish jarayonininafas yo‘llarining quyi qismiga o‘tib ketishining oldini oladi, asoratlarni kamaytiradi va nihoyat bemor immunitetini tiklashga sabab bo‘ladi. Gripp infeksiyasida davolash choralarini dastlabki 1-2 kunlari boshlash maqsadga muvofiq. Bemorga ko‘p suyuqlik ichishi (mineral suv, soklar, o‘tli damlamalar) tavsiya qilinadi. Dieta esa sutli va sutli-sabzavotli bo‘lishi maqsadga muvofiq. Gripp infeksiyasining yengil, o‘rta og‘ir shakllarini uyda davolash mumkin. Og‘ir va asoratli xastaliklar shifoxonalarda davolanadi.

Virusga qarshi preparatlar: Remantadin, amantadin, arbidol, anaferon, aflubin, viferon va boshqa preparatlar gripp infeksiyasida qo‘llaniladi. Interanazal preparatlar ham gripp xastaligida qo‘llaniladi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan virusga qarshi preparatlar, odam leykotsitoz interferoni (OLI) interlok, oksalin mazi, rektal viferonlar.

Remantadin va amantadin preparatlarini gripp xastaligining 1-2 kunlari qo‘llanilsa samara yuqori bo‘ladi va xastalik davomiyligi 2-3 kunga qisqaradi, asoratlar kamayadi. Arbidol, atsiklovir, amiksin kabi virusga qarshi preparatlar bemorlarning leykotsitlarini virusga qarshi α , γ – interferonlarini 10-50 marta ko‘tarilishiga, hamda hujayraviy va gumoral immunitetning shakllanishiga olib keladi.

Arbidolni ovqatdan oldin ichish tavsiya qilinadi va 12 yoshdan katta bemorlar ushbu preparatni 2 tabletkadan 3-4 mahal 5 kun mobaynida iste’mol

qilishi tavsiya qilinadi. 6 yoshdan to 12 yoshgacha bo'lgan bemor bolalar ushbu preparatni 1 tabletkadan 3–4 mahal 5 kun mobaynida ichishi tavsiya qilinadi.

Arbidol preparatini surunkali yurak qon tomir, jigar, buyrak kasalliklari bo'lgan bemorlarga berish taqiqlanadi.

Oksalin mazi bemorlarga 2-3 mahal 3-5 kun mobaynida burun kataklariga surtiladi, virusga qarshi samaraga ega.

Odam leykotsitar interferoni interanazal tomchi sifatida gripp kasalligining boshlang'ich davrida kuniga 4-5 mahal, 4-5 tomchi sifatida qo'llaniladi. Ushbu preparat ingolyatsiya orqali berilishi ham mumkin.

Virusga qarshi preparatlar remantadin, omontadin gripp viruslarini epiteliy hujayralarga kirishiga qarshilik ko'rsatadi. Viruslarning faolligini keskin pasaytiradi. Kasallik asoratlarning oldini oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, remantadin, omontadin preparatlari gripp xastaligining "A" tipiga qarshi yaxshi ta'siri kuzatilgan. Ushbu preparatlarning samaradorligi 70-75% tashkil qiladi.

1-3 yoshli bemor bolalarga 5 mg/kg 2 mahal, 3-7 yoshli bemor bolalarga 5mg/kg kuniga 2 mahal 3-4 kun, 7-9 yoshli bemor bolalarga 5-7 mg/kg kuniga 3-4 mahal, katta yoshli bemorlarga 100 mg dan 2 mahal 5-6 kun ichish tavsiya qilinadi.

Kuchli bosh og'rig'i, mushaklarda, bo'g'imlarda og'riq kuzatilsa antigrippin preparatlarini berish tavsiya qilinadi.

Antigrippin preparatining ichida atsetilsolitsil kislota (aspirin) 0.5, askorbin kislota 0.3, kaltsiy laktat 0.1g, rutin va dimedrol 0.02 g paratsetamol 0.2 mavjud.

Ushbu preparat kuniga 1 tabletkadan 3 mahal 3-5 kun davomida beriladi. Undan tashqari gripp xastaligida nol-gripp, koldreks, aspirin-upsa, askorbin kislota (vitamin S) beriladi. Bemor issig'ini tushirish maqsadida ibufen, ibuklin, paratsetamol, sifikon preparatlarini ichish tavsiya qilinadi.

Gripp infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarga vitamin komplekslarini ichish tavsiya qilinadi (revit, undevit, komplevit, vitrum).

Bemorlarda kuzatiladigan yo'tal, nafas qisishini kamaytirish maqsadida mukaltin, yo'talga qarshi tabletkalar (tabletkalar ot kashli), bromgeksin, brizezi va shunga o'xshash preparatlarni ichish tavsiya qilinadi. Ushbu preparatlarni kuniga 3 mahal 4-5 kun davomida ichishni tavsiya qilamiz.

Bemor tanasida harorat 40°C – 41°C ko'tarilganda tezda magistral tomirlar sohasiga muzdek ho'l sochiq, muz qo'yiladi, 35% spirt bilan bemor tanasini

artish, analgin 50%-1.0, dimedrol 1%-1.0, novokain 0.5%-1.0 aralashmasini mushak ichiga yuborish tavsiya qilinadi. Bemorlarda laringit, laringotraxeit, soxta krupp, o'pka abstruksiya holati kuzatilsa, shifoxonalarga yotqizilishi maqsadga muvofiq. Bemorlarga No-shpa 1.0, suprastin 1.0, novokain 0.5%-1.0 aralashmasi mushak ichiga yuboriladi. Shu bilan birga mushak ichiga deksametazon 1.0 (125mg) v/m, prednizalon 1.0 (30mg) preparatlarini ishlatish yaxshi samara beradi.

Gripp kasalligining og'ir va asoratli kechishi kuzatilsa, patogenetik dezintoksikatsion davolash choralari ko'riladi. Bemorlar tomiriga infuzion eritmalar: fiziologik eritma (0.9% NaCl), Ringer-lok, suktsinasol, laktasol, disol, trisol, atsesol, kvartsol, reosorbilat, reopoliglyukin eritmaları dezintoksikatsiya qilish uchun bemor tomiriga yuboriladi. Ushbu preparatlar bemor bolalarga yoshiga qarab 100.0-200.0 1 yoshgacha bo'lgan bemor bolalarga, 1-5 yoshli bemor bolalarga 200.0-500.0, 6-18 yoshli bemor bolalarga 1.0 litrgacha, kattalarga 1.0-1.5 litr/sutkada suyuqliklar vena ichiga yuboriladi. Ushbu infuzion preparatlar berilayotganda o'pka shishi, bosh miya shishi holatining oldini olish maqsadida bemor siydigi chiqishini ko'paytirish maqsadga muvofiq.

Diuretiklarni qo'llash bolalarda 0.5-1.0 tomir ichiga, kattalarga 2.0-3.0 tomir ichiga beriladi. Diuretiklardan ko'pincha furosemid, laziks, toraid qo'llaniladi. Intoksikatsiya va asoratlarni kamaytirish maqsadida o'pka va yurak-tomir yetishmasligi, bosh miya shishi, o'tkir buyrak usti yetishmasligi holatlarida gormonal preparatlar qo'llaniladi.

Prednizalon 60-120.0 mg/sutkada

Deksametazon 120 mg/sutkada

Og'ir va asoratli bo'lgan bemorlarga

Kontrikal (10.000 yed. – 20.000 yed.)

Kontrileks (10.000 yed. – 20.000 yed.) preparatlari tomir ichiga tomchili holatda yuboriladi. Ushbu preparatlar oshqozon osti bezining yallig'lanishi yoki yiringlab ketishining oldini oladi.

Og'ir va asoratli bemorlarga almiba 5.0, mildranat 5.0, kartan 5.0 preparatlarini ishlatilishi yurak-qon tomir jarohatlanishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tomirga korglyukon 0.06%-1.0, strofantin 0.5-1.0 preparatlari yuboriladi. Og'ir bemorlarga ayniqsa nafas yetishmasligi kuzatilsa, burundan namlangan kislorod beriladi (oksigenoterapiya). Bemorlarda nafas olish

tezligi 40 martadan oshsa bemorlarni sun'iy nafas olish apparatiga o'tkazish maqsadga muvofiq.

Gripp kasalligining og'ir va asoratli kechishida antibiotiklar qo'llash maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda keng spektrga ega bo'lgan antibiotiklar qo'llaniladi: sefalosporinlar (tsefazolin, seftriakson, sefatoksim, sefod PEO, rotsefein). Penitsillin guruhiga mansub antibiotiklar (penitsillin, ampetsillin, ampioks va boshqalar). Gripp kasalligining og'ir va asoratli kechishi bo'lganda bemorlarning reanimatsiya bo'limida davolanishi maqsadga muvofiq.

Profilaktika. Gripp kasalligiga qarshi kurash va uning tarqalishining oldini olish profilaktikasi Sog'liqni Saqlash vazirligining eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib, Respublikada muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.

Gripp infeksiyasini boshlang'ich davrida aniqlash va keng tarqalishining oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Epidemiyaga qarshi kurash borasida 3 bosqichli, quyidagi tadbirlarni o'tkazish maqsadga muvofiq:

- tezkor profilaktika chora-tadbirlarini o'tkazish
- kasallik boshlanishi davrida tez davolash choralari o'tkazish
- vaktsinatsiya (emlash).

1. Tezkor profilaktik chora-tadbirlar o'tkazish maqsadida kasallikning ilk bor davrida oksalin mazini kuniga 2 mahal bemorlar va ular bilan muloqotda bo'lgan kishilarning burun kataklariga surtish.

2. Kasallikning dastlabki boshlanish davrida odam leykotsitar interferonlarini (IFN) burun kataklariga tomizish

3. Bemorlar va ular bilan muloqotda bo'lganlarga IFN preparati bilan ingalyatsiya o'tkazish. Ushbu tadbirlar gripp infeksiyasi keng tarqalib ketishining oldini olish. Ikkinchi bosqichida gripp kasalligini erta aniqlash va davolash, kasallikning tez tarqab ketishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun gripp qayd etilganda bemorning uyda qolish rejimi o'rnatilishi, uyda bemorni alohidalash, muloqotda bo'lganlar himoya niqobini kiyishi. Bemor turgan xonadonlarni dezinfeksiya moddalari bilan tozalash. Ushbu kasallikning keng tarqalib ketishining oldini oladi. Ushbu tadbirlar 7 kun mobaynida olib boriladi.

Bolalar bog'chalari, maktablarga gripp kasalligining keng tarqatmasligi maqsadida isitmasi chiqqan bemor bolalarni tezda izolyatsiya qilish, muloqotda

bo'lgan bolalarga himoya niqoblari taqish, oksalin mazi surtmasi surtish, IFN-interferonini burun kataklariga tomizish.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazishni kamaytirish, kasallik yuqmasligining oldini olishda muhim axamiyat kasb etadi.

“A” tipdagi gripp virusi chaqirgan epidemiyaning oldini olishda grippga qarshi vaksinalar ishlatiladi. Hozirgi kunda 10 dan ortiq grippga qarshi vaksinalar mavjud. Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda inflyuvak vaksinasi keng qo'llanilib keladi. Ushbu vaksina Solvay pharma (Gollandiya) firmasida chiqariladi. Ushbu vaksina tarkibida A tipdagi gripp virusining 2 ta antigeni - gemagglutinin, neyroaminidaza asosida olinadi. Ushbu vaksinaning reaktogenligi juda kam bo'lib bolalar va kattalarda keng qo'llash mumkin. Ushbu vaksinani 6 oydan katta bo'lgan bolalarga, homilador ayollarga va keksa yoshli fuqarolarga ham qo'llasa bo'ladi.

Undan tashqari, muloqotda bo'lgan kishilarga remantodin, amantadin, atsiklovir, arbidol preparatlari profilaktika uchun beriladi.

Yuqorida qayd etilgan virusga qarshi preparatlarni gripp “A” xastaligining oldini olishda ayniqsa surunkali kasalliklari bo'lgan, immuniteti past kishilarga qo'llash maqsadga muvofiq.

Har yilning oktyabr-dekabr oylarida gripp infeksiyasining oldini olishda “A” grippga qarshi emlash o'tkazilishi maqsadga muvofiq. A grippga qarshi vaksina, emlangan kishilarda 10-12 oy davomida grippga qarshi immunitet paydo qiladi. Inflyuvak vaksinasi samaradorligi 50.0–80.0% tashkil etadi. Emlangan fuqarolarning ayrimlarida A gripp xastaligi yengil, subklinik shaklda kechishi mumkin.

Gripp infeksiyasining oqibatlari (prognoz):

- butunlay sog'ayish
- asoratlarning shakllanishi
- o'lim

Bemorlarning butkul tuzalishi 70-85 % holatda kuzatiladi. Tuzalish 7-10 kun davomida ro'y beradi.

Asoratlar shakllangan bemorlarda, tuzalish 3-4 hafta davom etadi. Ayniqsa, pnevmoniya asorati bo'lgan bemorlarda keyinchalik asteno-vegetativ belgi oylar davomida kuzatiladi. Asosan pnevmoniya asorati kuzatiladi (abstruktiv bronxit, o'pka emfizemasi, gaymorit, sinusit, frontit).

O'lim A grippning og'ir asoratlari pnevmoniya, o'tkir yurak-qon tomir va o'pka yetishmasligi, meningit, meningoentsefalit, o'tkir buyrak yetishmasligi natijasida ro'y beradi. "A" grippning epidemiya hamda pandemiya holda tarqalishida o'lim 1% dan to 5% gacha yetadi.

Profilaktik chora-tadbirlar. Aholi o'rtasida gripp infeksiyasining tarqalishi 35-50% yetsa, Vazirlar Mahkamasi qoshidagi sanitariya-epidemiologiya inspeksiyasi tomonidan hududlarda gripp epidemiyasi e'lon qilinadi.

Zudlik bilan tashkilotlarda, o'quv maskanlarida, bog'chalarda, korxonalarda, transportlarda himoya niqobi tutish tavsiya etiladi.

Oilaviy poliklinikalar, QVP, shifoxonalarda xodimlar (vrachlar, hamshiralar, tozalovchi bekalar) himoya niqobi tutishlari shart.

Oila a'zolarida yuqori isitma va tumov belgilari paydo bo'lgan holatda, shifokorni uyga chaqirish maqsadga muvofiq, hamda vaqtincha ishga noloyiqlik varaqasi 7 kun mobayniga ochiladi.

Bog'chalarda va maktablarda bolalarni qabul qilishda ertalabki fil'tr tekshiruvlardan o'tkaziladi, ya'ni isitmasi chiqqan va tumov belgilari bo'lgan bolalar uyga qaytariladi va hududiy shifokorga yuboriladi.

Epidemik jarayon kuchaygan taqdirda, 7 kun muddatga bog'chalar va maktablarda karantin e'lon qilinadi.

Avtobus, metro, marshrut taksilar shox bekatlarida transport salonlari xlor tutuvchi dezinfeksiya moddalari bilan dezinfeksiya qilinishi maqsadga muvofiq.

Engil va o'rta og'ir shakldagi bemorlarga uyda davolanishga ruxsat beriladi. Og'ir va asoratlari bo'lgan bemorlar shifoxonada davolanadi.

Aholi orasida gripp "A" ga qarshi emlash o'tkaziladi.

ADENOVIRUSLI INFEKSIYA

Adenovirusli infeksiya – o'tkir yuqumli virusli respirator kasallik bo'lib, isitma, intoksikatsiya, yuqori nafas yo'llarining jarohatlanishi, ko'z shilliq qavatining yallig'lanishi, tomoq limfa tugunlarining kattalashishi, ichki organlarning yallig'lanishi bilan kechadigan kasallik.

Ushbu xastalik yosh bolalarda ko'proq uchraydi(25-30%). Ushbu kasallik 18 yoshgacha bo'lgan bolalarda 50-55%, kattalarda 15-20 % holatda uchrashi ma'lum.

Ayrim bemor bolalar hayoti davrida 2 marta va undan ko'proq adenovirus infeksiyasi bilan kasallanishi mumkin.

Etiologiyasi. Adenoviruslar birinchi bo‘lib 1953 yili bemor murtaqlari yallig‘langan va adenoid bilan kasallangan bolalar surtmasidan W.Rowe, R.Hubner, L.Golmore, R.Parrot, T.Ward (AQSh) ajratib olingan. Keyinchalik shamollagan bemorlar ko‘z shilliq pardalari va nafas yo‘llaridan ham adenoviruslar ajratib olindi (Hilleman H., Wenur J., 1954).

Hozirgi kunda 41 xil (serovar) adenoviruslar mavjud. Adenoviruslar DNK tutuvchi virus bo‘lib, 70-90 nm o‘lchamga ega. Tashqi muhitga chidamli. Adenovirus 3 ta antigenlarga ega: A – antigen umumiy bo‘lib (gruppaspetsifik) hamma adenoviruslarda mavjud. V – antigen toksik xususiyatga ega, S – antigen – tipik xususiyatga ega. Adenoviruslar har xil tirik hujayralarda ko‘payish xususiyatiga ega. Boshqa respirator viruslardan farqi adenoviruslar tirik epitelial hujayralarning yadrosini zararlaydi. Adenoviruslar 12 soat ichida epitelial, qon hujayralari (limfotsit, leykotsit) yadrolarini jarohatlaydi. Adenoviruslar gemagglutinatsiya xususiyatga ega. Adenovirus antigenlari toksik xususiyatga ega bo‘lib, ichki organlardagi hujayralarni degradatsiya, nekrozga olib keladi.

Epidemiologiyasi. Adenovirus infeksiyasida kasallik qo‘zg‘atuvchisining manbai bemor bo‘lib, subklinik yoki inapparat shaklida kasallanganlar va virus tashuvchilardir, shu bilan birga xastalikning eng avjiga chiqqan davrida adenoviruslarni yuqtirish maksimal ravishda bo‘ladi. Xastalikning eng avj olgan davrida adenoviruslar bemorlarning yuqori nafas yo‘llaridan, ko‘z shilliq qavatidan, burundan, og‘iz shilliq qavatidan, qondan va bemor axlatidan ajratib olinadi.

Epidemiologik jihatdan adenovirus bilan kasallangan bemorlar 2 hafta ichida sog‘lom kishilarga xavf tug‘diradi. Ayrim holda bemorlardan adenoviruslar 3–4 haftagacha chiqib turadi.

Yuqish yo‘llari 2 xil:

1. Havо-tomchi yo‘l bilan kasallik yuqadi.
2. Alimentar (fokal-oral) yo‘l bilan ham yuqish kuzatiladi.

Adenovirus infeksiyasi ko‘pincha havо-tomchi yo‘l orqali bemorlardan sog‘lom odamga yuqadi.

Bemorlar yo‘talganda, aksirganda adenoviruslar tashqi muhitga havо-tomchi yo‘l bilan sog‘lom odamlarga yuqadi. Epidemiologik jihatdan yuqish yo‘llari boshqa respirator virusli infeksiyalardan farq qilmaydi. Yuqish masofasi 1-2 metr dan oshmaydi.

1 oydan to 6 oygacha oshmagan bolalarda adenovirus infeksiyasi uchramaydi. Bunga asosiy sabab ushbu yoshdagi bolalar ona platsentasiidan hamda ona sutidan maxsus antitelalar himoyasida bo'lganligi tufayli ushbu yoshdagilarga infeksiya yuqmaydi. 6 oydan oshgan bolalar adenovirus infeksiyasiga moyil bo'lib qoladi. Bemor bolalar 2-marta adenovirus infeksiyasi bilan kasallansa, virusga qarshi kuchli immunitet shakllanadi va boshqa kasallanish kuzatilmaydi. 5 yoshdan katta bolalarda adenovirus infeksiyasi juda kam uchraydi.

Adenovirus infeksiyasi bog'chalarda, bolalar yashisida sporadik, hamda epidemik tarqalgan holda uchrashi mumkin. Eng ko'p adenovirus infeksiyasi tarqalishida kasallanish 500 tadan oshmaydi. Katta epidemiyalar kuzatilmaydi. Epidemiya tarqalishi sekin-asta boshlanadi. 14-15 kunlarda ko'payadi, so'ng epidemiya sekin-asta pasayadi. Adenovirus infeksiyasi mavsumiylikka ega. Harorat past bo'lgan oylarda kasallik ko'p kuzatiladi. Yoz oylarida esa adenovirus infeksiyasi kuzatilmaydi. Ammo yoz oylarida adenovirus infeksiyasining subklinik yoki inapparart shakli kuzatilishi mumkin.

Hozirgi kunda adenovirusli infeksiyasi qo'zg'atuvchilarini 1, 2, 3, 4, 7, 7a, 14 va 21 serovarlari borligi aniqlangan.

Patogenezi. Adenoviruslar organizmga 2 xil yo'l orqali kiradi. Eng ko'p yuqish yuqori nafas yo'llarida kuzatiladi. Viruslar sog' odam (bola) kon'yunktivasiga tushib zararlashi mumkin. Kamroq fekal-oral (alimentar) yo'l bilan ham adenoviruslar yuqishi mumkin. Pinotsitoz jarayoni tufayli adenoviruslar epitelial hujayralar membranalarini yorib kirib yadrosini egallaydi. Adenoviruslar epiteliy sitoplazmalariga yig'iladi. Ayrim adenoviruslar regional limfa to'qimalardagi limfotsitlar sitoplazmalariga kirib hujayra yadrosini egallaydi. Jarohatlangan epiteliy hujayralari limfotsitlar adenovirusning DNK ni sintez qila boshlaydi. 16-20 soatdan so'ng zararlash quvvatiga ega adenoviruslar ko'plab ko'paya boradi. Natijada zararlangan epiteliy hujayralari va limfotsitlarning nobud bo'lishi kuzatiladi (nekroz, destruksiya).

Keyinchalik kuchaygan adenoviruslar yangi epiteliy hujayralari va limfotsitlarning ichiga kirib nekroz va degradatsiyaga uchratadi. Shu davrda adenoviruslar qonga o'ta boshlaydi. aynan o'sha davr inkubatsion davrga to'g'ri keladi.

Bosqichma-bosqich adenoviruslar yuqori nafas yo'llaridagi burun shilliq qavati, og'iz bo'shlig'idagi limfa tugunlari, adenoidlar, hiqildoq, bronx va

traxeyani jarohatlaydi. Bir vaqtning o'zida ko'z shilliq qavatini ham jarohatlaydi. Keyingi bosqichda adenoviruslar regionar limfa tugunlarini jarohatlay boshlaydi. Jarohatlangan yuqori nafas yo'llaridagi adenoviruslar ekssudativ yallig'lanishni keltirib chiqaradi. Ko'z shilliq qavatidan, burundan seroz suyuqlik chiqishi kuchayadi. Ko'z shilliq qavatida yupqa plenka hosil bo'ladi.

Kelgusi jarayonda adenoviruslar traxeyaga, bronxga, alveolalarga o'tib ushbu organlarda yallig'lanish holatini keltirib chiqaradi. Natijada adenovirus pnevmoniyasi shakllanadi. Traxeya va bronxda nekrotik yallig'lanish kuzatiladi. Og'iz orqali adenoviruslar ichak epitelial hujayralarni jarohatlaydi. Natijada angina va yo'g'on ichakda yallig'lanish kuzatiladi (enterit, kolit). Qonga o'tgan adenoviruslar va ularning toksinlari bemorda intoksikatsiya belgilarini keltirib chiqaradi. Qonga o'tgan adenoviruslar keyinchalik buyrak, jigar, yurak, bosh miyani jaroxatlash xususiyatiga ega. Demak, adenovirus infeksiyasida asosan yuqori nafas yo'llarining jarohatlanishi, keyinchalik ko'z shilliq qavatida, regional limfa tugunlari va ichki organlarning jarohatlanishi kuzatiladi.

PATOGENEZI.

1. Inkubatsion davr.
2. Epiteliy va limfa hujayralarda viruslarning ko'payishi.
3. Virusemiya va toksinemiya.
4. Ko'z shilliq qavatining yallig'lanishi, limfadenit.
5. Ichki organlarning jarohatlanishi.
6. Maxsus adenovirusga qarshi antitelalar shakllanishi.

Patologik anatomiyasi. Adenovirus infeksiyasida yallig'lanish, destruktsiya, nekroz kabi patologo anatomik o'zgarishlar kuzatiladi.

Mikroskopik tekshirishlarda bemorlarda kataral laringotraxeobronxit, epiteliy hujayralar degeneratsiyasi, nekroz kuzatiladi. Nekrozga uchragan epiteliyalarda, adenovirus DNK zarrachalarini mikroskop orqali ko'rish mumkin. Nekrozga, degeneratsiyaga uchragan epiteliy hujayralar ortida kapillyarlarning jarohatlanishi tufayli eritrotsitlarning chiqishi, mikro qon quyulishi kuzatiladi. Demak, nekroz osti to'qimada seroz suyuqligi, qon quyulishi xarakterlidir. Adenovirus infeksiyasida mononuklear infiltratsiya limfa tugunlarda kuzatiladi. To'qimalarda gigant mononuklear hujayra to'plamlarining yig'ilishi kuzatiladi. Mononuklear hujayralar orasida gigant hujayralar ham aniqlanadi. Ichki organlarda qon ta'minotining buzilishi, distrofik, nekrobiotik o'zgarishlar

aniqlanadi. Jigarda gepatotsitlarning jarohatlanishi ayrim holda gepatotsitlarning nobud bo'lishi aniqlangan. Bemorlarda infeksiyon-toksik miokardit, toksik nefrit, seroz meningit yallig'lanishi kuzatiladi.

Adenovirus infeksiyasining klinik kechishi. Adenovirus infeksiyasida inkubatsion davr 2 kundan to 12 kungacha davom etadi. Kasallik o'tkir boshlanadi. Bemorlarda yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi kuzatiladi. Ammo yuqori nafas yo'llarida kuzatilgan belgilar asta-sekin boshlanadi.

Isitma adenovirusli infeksiyasida xastalikning birinchi kunidan boshlab kuzatiladi. Xastalikning birinchi kunlari isitma 37°C - 37.5°C , keyinchalik isitma ko'tarila borib, 38°C - 39°C ga yetadi. Ayrim bemorlarda harorat 40°C ko'tariladi. Demak isitma adenovirus infeksiyasida sekin-asta ko'tariladi.

Kasallikning birinchi kunidan nafas yo'llarida shamollash alomatlari kuzatiladi. Bemorlarda yo'talish, aksirish, tomoqda og'riq alomatlari paydo bo'ladi. Ushbu belgilar kasallikning 4-5 kunlari kuchayadi.

Intoksikatsiya belgilari kasallikning birinchi kunidanoq kuzatiladi va kundun-kunga kuchaya boradi. Bemorlarda charchoqlik, holsizlik, uyquning buzilishi, ishtahaning pasayishi, bosh og'rig'i kabi belgilar kuzatiladi. Ayrim bemorlarda bo'g'imlarda, belda, mushaklarda og'riq kuzatiladi.

Intoksikatsiya belgilari kasallikning birinchi kunida sust bo'lib kundun-kunga kuchaya boradi. Ayrim bemorlarda ko'ngil aynash, qusish, qorinda og'riq, ich ketishi kuzatiladi.

Adenovirus infeksiyasining birinchi kunidan boshlab bemor burnidan avval seroz suyuqligi, keyinchalik seroz – yiringli suyuqlik chiqa boshlaydi. Burun kataklarida qizarish (giperemiya), bez shishishi (otek), natijada burundan nafas olish qiyinlashadi. Yallig'lanish keyinchalik og'iz bo'shlig'i va hiqildoqqa o'tadi. Og'iz bo'shlig'ining qizarishi va yallig'lanishi tomoqning orqa devorining yumshoq to'qimalarida, murtaklarda, hiqildoqda faringit, folekulalarning giperplaziyasi yallig'langan sohada shilimshiq parda hosil bo'ladi.

Adenovirus infeksiyasida yo'tal kuzatiladi. Yo'tal birinchi kundun boshlab ho'l hamda balg'amli bo'ladi.

Bir yoshgacha bo'lgan bemor bolalarda yo'tal kuchli bo'ladi. Bola ovozi bo'g'iq, quvillagan bo'ladi. Bemor bola o'pkasida quruq va ho'l xirillash kuzatiladi. Keyinchalik ho'l xirillash o'pkaning 2 tarafida bronxlarda kuzatiladi.

Adenovirus infeksiyasida bemor ko‘zining yallig‘lanishi kuzatiladi. Ko‘z shilliq pardasining yallig‘lanishi kon’yunktivit, keratokon’yunktivit shaklida namoyon bo‘ladi.

Ko‘zdagi yallig‘lanish 3 xil bo‘ladi: kataral, folekulyar, pardali.

Ko‘zda kuzatilgan yallig‘lanish xastalikning birinchi kunidayoq kuzatiladi. Ayrim bemorlarda kon’yunktivit, keratokon’yunktivit 3-5 kunlarda paydo bo‘lishi mumkin.

Oldin yallig‘lanish bir ko‘zda, keyinchalik 2 chi ko‘zga o‘tadi. Katta bolalarda ko‘z shilliq qavatining qichishi, og‘riq, xuddi qum tushgandek tuyuladi. Ko‘z atrofi terisida giperemiya, ko‘z yarim ochiq holatda bo‘ladi.

Kon’yunktivit, keratokon’yunktivit yallig‘lanishida, avval seroz suyuqlik paydo bo‘ladi, keyinchalik yupqa oqishsimon biroz sarg‘aygan parda bilan qoplanadi.

Kerato-kon’yunktivit, kon’yunktivit, adenovirus infeksiyasining “tashrif kartochkasi” deb ataladi, ya‘ni agar bemor ko‘zida yallig‘lanish kuzatilsa adenovirus infeksiyasi borligidan dalolat beradi.

Bemor yuzi biroz shishgan, qizargan, ko‘z qovoqlari kattalashgan bo‘ladi.

Adenovirus infeksiyasida bemorning tomoq sohasida limfa tugunlarining kattalashishi kuzatiladi.

Bemorlarda jigar va taloq kattalashadi.

Yosh bolalarda, ich ketishi, qusish, bemor qornida gaz yig‘ilishi kuzatiladi. Bemor pulsi tezlashadi, yurak tonlari bo‘g‘iqligi, og‘ir bemorlarda sistolik shovqin bo‘ladi.

Bemorlarning periferik qonida, leykopeniya, neytropeniya, eozinofilez og‘ir bemorlarda leykotsitoz, neytrofilez, monotsitoz kuzatiladi. Eritrotsitlarning cho‘kish tezligi biroz oshadi.

Adenovirus infeksiyasining tavsifi: Adenovirus infeksiyasida quyidagi klinik belgilar, shakllar kuzatiladi.

Belgilar:

1. Faringokon’yunktiv isitma
2. Yuqori nafas yo‘llari yallig‘lanishi
3. Keratokon’yunktivit
4. Tonzillofaringit
5. Mezenterial limfodenit
6. Diareya (ich ketish)

Og'irligi bo'yicha:

1. Yengil
2. O'rta og'ir
3. Og'ir

Kasallikning kechishi:

1. Asoratsiz
2. Asoratli (pnevmoniya, seroz meningit, miokardit, nefrit)

Faringokon'yunktiv isitma. Adenovirus infeksiyasida eng ko'p kuzatiladigan klinik shakl. Isitma nisbatan uzoq davom etadi, bemorlarda respirator sindrom alomatlari granulez faringit, ko'z shilliq qavatining yallig'lanishi (keratit, kerato-kon'yunktivit) tomoq murtaklarining yallig'lanishi (angina), tomoq limfa tugunlari yallig'lanishi, ayrim bemorlarda jigar va taloqning kattalashishi kuzatiladi. Kasallik kechishi uzoqroq davom etadi. Isitma 1-2 hafta davom etadi.

Tonzillofarengit. Adenovirus infeksiyasining barcha klinik kechishida tonzillofarengitqayd etiladi. Yallig'lanish og'iz va hiqildoqda kuzatiladi. Tonzillofarengit yallig'lanishi hamma bemorlarda kuchli namoyon bo'ladi. Kattalar va bolalarning og'zi og'riydi. Tomoq murtaklarida oq yallig'lanish pardasi (nalet), regional limfa tugunlarning ayniqsa bo'yindagi limfa tugunlarning kattalashishi kuzatiladi.

Tomoq murtaklarining yallig'lanishi va yiringlashiga asosiy sabab adenoviruslarning murtak limfa tugunlariga kirib, jarohatlashi va tomoqdagi bakteriyalarning faollashuvi natijasida ro'y beradi.

Angina virusli-bakterial etiologiyaga ega. Ko'pincha stafilokokklar, streptokokklar, pnevmokokklarning faolligi oshadi.

Mezenterial limfodenit (mezodenit). Adenovirus infeksiyasida kuzatiladi. Bemorlarda ko'ngil aynash, qusish, kindik atrofida og'riq, ayrim bemorlarda qorinning appendekulyar sohasida og'riq kuzatiladi. Bemorlarda isitma ko'tariladi. Bemor tili karash va kattalashgan, qonda leykotsitlar soni normal holda bo'ladi. Bemorlarda mezenterial limfa tugunlarning yallig'lanishi va kattalashganligi xarakterli.

Yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi. Adenovirus infeksiyasida kuzatiladigan asosiy belgidir. Bemorlarda rinit, tonzillit, faringit, traxeit, bronxit, krupp belgisi, obstruksiya yallig'lanishlari kuzatiladi. Isitma davomiyligi 1 hafta.

Bemorlarda kataral farengit ko‘proq namoyon bo‘ladi. Bo‘yin va tomoq limfa tugunlari kattalashishi xarakterli.

Diareya (ich ketishi). Ushbu holat 1 yoshgacha bo‘lgan bolalarda ko‘p uchraydi. Ich ketish sutkada 4-5 marta, ayrim holda 7-8 marta davom etadi. Bir vaqtning o‘zida bemorlarda kataral belgilar kuzatiladi. Bemor axlatida shilliq, qon esa bo‘lmaydi. Diareya 3-4 kun davom etadi.

Keratokon’yunktivit. Kon’yunktivitga qaraganda keratokon’yunktivit adenovirus infeksiyasida kamroq uchraydi. Keratokon’yunktivit faqat adenovirus infeksiyasining og‘ir kechishida kuzatiladi. Kasallik o‘tkir boshlanadi, yuqori isitma qayd etiladi. Bemorlarda kuchli intoksikatsiya kuzatiladi. Avval kon’yunktivit, keyinchalik keratokon’yunktivit yallig‘lanishi kuzatiladi. Bemorlar ko‘zida og‘riq, qichishish, yorug‘likka ta’sirchanlik alomatlari kuzatiladi. Ko‘z qorachig‘ida seroz parda, mayda toshmalar paydo bo‘ladi. Yaralar kuzatilmaydi. Ayrim bemorlarda seroz meningit, miokardit, nefrit, pnevmoniya asoratlari kuzatiladi. Demak adenovirus infeksiyasida yallig‘lanish hamma organlarda kuzatilishi mumkin.

Adenovirus infeksiyasining kechishi davriy. Isitma 5-7 kun davom etadi. Asoratli kechganda isitma 2-3 haftagacha davom etishi mumkin. Bemorlarda isitma to‘lqinsimon xarakterga ega. Isitmaning 2-chi marta ko‘tarilishi asosan adenovirus infeksiyasining asoratli kechishida kuzatiladi, kataral kon’yunktivit 7 kun, pardali kon’yunktivit 2 hafta. Respirator belgilar esa 2-4 hafta davom etadi.

Asoratlar. Adenovirus infeksiyasida asoratlar ko‘pincha yosh bolalarda kuzatiladi va virus-bakterial etiologiyaga ega. 3 oylik bolalarda otit, sinusit, o‘choqli polisegmentar, seroz-dekvalistiv pnevmoniya kabi asoratlar kuzatiladi.

Oqibati. Adenovirus infeksiyasida asoratlar kuzatilmasa bemorlar tez tuzaladi. O‘lim holati chaqaloqlarda, hamda 1 yoshgacha bo‘lgan bemorlarda kuzatiladi. Adenovirus infeksiyasida kuzatiladigan o‘lim holati yosh bolalarda qayd etilishi pnevmoniya asorati natijasida ro‘y beradi.

Adenovirus infeksiyasining chaqaloqlarda hamda 1 yoshgacha bo‘lgan bolalarda kechishi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda adenovirus infeksiyasi kuzatilmaydi. Maxsus adenovirusga qarshi antitelalar yangi tug‘ilgan bolalar organizmiga transplatsentar yo‘l bilan onadan bolaga o‘tadi. Agar ona xayoti davrida adenovirus infeksiyasi bilan kasallanmagan bo‘lsa, tug‘ilgan chaqaloq ushbu xastalik bilan kasallanishi mumkin. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda adenovirus infeksiyasi quyidagicha kechadi. Isitma subfebril, intoksikatsiya

alomatlari bo'lmashligi mumkin. Chaqaloqlarda respirator belgilar kuzatiladi. Chaqaloqlarda burun bitishi, yengil yo'tal. Burun bitishi natijasida chaqaloqlar betoqat bo'lib qoladi, uyqusi buziladi. Ko'krak emishda chaqaloq qiynaladi. Chaqaloqlarda va bir yoshgacha bo'lgan bolalarda ich ketish kuzatiladi. Periferik limfa tugunlarining kattalashuvi va kon'yunktivit bolalarda kam kuzatiladi. Ushbu bemorlarda bronxit, abstruktiv bronxit, pnevmoniya kabi asoratlar ko'proq qayd qilinadi. Chala tug'ilgan chaqaloqlarda adenovirus infeksiyasi og'ir va asoratli o'tishi mumkin. Bemor bolalarda adenovirus infeksiyasida isitma ko'tarilmaydi, ayrim bolalarda esa tana harorati tushib ketishi mumkin.

Chaqaloqlar va erta yoshdagi bolalarda adenovirus infeksiyasining klinik belgilari sust bo'lishiga qaramasdan, asbtruktiv bronxit, pnevmoniya kabi asoratlar ko'proq qayd qilinadi va o'lim holatiga olib kelishi mumkin.

Tashxis. Adenovirus infeksiyasining tashxisi kasallikning klinik belgilari, kechishi, isitmaning uzoqroq davom etishi, nafas olish yo'llarida yallig'lanish, limfa tugunlar giperplaziyasi, bo'yin limfa tugunlarining kattalashuvi, ko'z shilliq qavatining yallig'lanishi (konyunktivit), o'pkaning yallig'lanishi (pnevmoniya), oshqozon ichak tizimining jarohatlanishi, jigar va taloqning kattalashuviga qarab tashxis qo'yiladi.

Laboratoriya tekshiruvlari. Adenovirus infeksiyasini aniqlash borasida bir-necha serologik uslublardan foydalaniladi. Adenovirus infeksiyasi viruslarining maxsus antigenlarini aniqlash borasida flyuorestsent antitelolari orqali ekspress-tashxis qo'llaniladi. Ushbu uslub yordamida adenoviruslarning tipik antigenlari burun suyuqligi va og'iz bo'shlig'idan olingan surtmada aniqlanadi.

Maxsus adenovirus antitelalarini bemor qonida komplementlarni bog'lash uslubi (RSK) orqali ham amalga oshiriladi. Adenovirus infeksiyasini aniqlash borasida passiv gemmagglyutinatsiya reaksiyasi (RPGA) ishlatiladi. Ushbu uslub orqali bemorlar qonida adenovirus antitelalari aniqlanadi. Maxsus antitela kasallik davomida 2-4 marta ko'payishi inobatga olinadi. Adenovirus infeksiyasida kuzatiladigan og'ir asoratlarni tashxis qo'yish maqsadida rengenologik tekshiruv, kompyuter tomografiyasi, elektrokardiografiya (EKG) uslublaridan foydalaniladi.

Qo'shimcha tekshiruvlar: Umumiy qon, siydik, axlat analizlari, bemorlarni kasalxonaga tushgan kunlari va kasallikning kechishiga qarab 2-3 marta bajariladi va tahlil qilinadi. Bemorlar immunitetini aniqlash uchun Immuno-gramma tekshiruvi o'tkaziladi.

Qiyosiy tashxis. Koronavirus Covid-19 infeksiyasi:

Koronavirus Covid-19 infeksiyasi yuqori kontagiozli juda tez tarqalishi xususiyatiga ega bo'lgan, yuqori isitma, respirator belgilar bilan kechadigan yuqumli kasallikdir. Koronavirus Covid-19 infeksiyasi o'tkir boshlanadi, bemorlarda yuqori isitma, respirator belgilar: yo'tal, aksirish, burun va og'iz bo'shlig'ining yallig'lanishi, mushaklarda, belda og'riq, titrash, og'izda maza bilmaslik, hid bilish qobiliyatining yo'qolishi alomatlari paydo bo'ladi. Yoshi katta va 65 yoshdan katta bemorlarda kasallik og'ir o'tishi pnevmaniya asoratlarini tez va shiddatli paydo bo'lishi bilan muhim qiyosiy diagnostik ahamiyatga ega.

Adenovirus infeksiyasining o'z vaqtida tashxis qo'yilishi va to'g'ri davolash maqsadida o'tkir respirator virusli infeksiyalar (O'RVI), mikoplazma infeksiyasi, infeksiyon mononukleoz kasalliklari bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Gripp va boshqa o'tkir virusli respirator kasalliklar bilan qiyosiy tashxis o'tkaziladi. Adenovirus infeksiyasi gripp va boshqa O'VRI dan farqi kasallik sekin-asta boshlanadi. Isitma davomiyligi 2-4 hafta, ko'z shilliq qavatining yallig'lanishi, limfa tugunlarning kattalashuvi, mezoadenit, ich ketishi bilan farq qiladi. Bemorlarda jigar va taloq kattalashadi.

Infeksiyon mononukleoz. Infeksiyon mononukleoz kasalligida bo'yin, quloq orqasi va jag' tagi limfa tugunlarining kattalashganligi, og'iz bo'shlig'idagi murtaklarning yallig'lanishi, respirator belgilarning bo'lmasligi, ammo burundan nafas olishning qiyinlashuvi, limfa tugunlarining kattalashuvi natijasida ro'y beradi. Infeksiyon mononukleoz xastaligida isitma ko'pincha subfebril ravishda kuzatiladi. Bemorlarda jigar kattalashadi. Qorataloq esa jigarga nisbatan ko'proq kattalashadi. Qonda esa limotsitoz, leykotsitoz, monotsitoz, monotsitlarning atipik turlarining ko'payishi kuzatiladi. Eritrotsitlarning cho'kish tezligi oshishi xarakterli.

Mikoplazma infeksiyasi. Adenovirusli infeksiyasining mikoplazma xastaligi bilan qiyosiy taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Mikoplazma infeksiyasida kasallik o'tkir boshlanadi. Intoksikatsiya belgilari kuchli namoyon bo'ladi. Respirator traktda yallig'lanish sust yoki umuman kuzatilmaydi. Isitma ko'tarilishi subfebril xarakterga ega. Bemorlarda o'pkaning yallig'lanishi kuzatiladi (bronxopnevmoniya). Periferik qon taxlilda leykotsitoz, neytrofilez, limfotsitoz yoki limfopeniya kuzatiladi. Eritrotsitlarning cho'kish tezligi oshadi.

Davolash. Adenovirusli infeksiyani davolash kompleks ravishda olib boriladi. Davolashda virusga qarshi preparatlar, patogenetik va simptomatik

muolajalar o'tkaziladi. Asorati qayd etilgan bemorlarga asoratlarni bartaraf qiluvchi davolash muolajalari o'tkaziladi. Adenovirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar uyda davolanadi. Og'ir asoratlar qayd etilganda bemorlar shifoxonalarga yotqiziladi. Bemorlarga yotoq rejimi tayinlanadi. Oqsil va vitaminlarga boy yengil ovqatlar tavsiya qilinadi. Ko'proq suyuqliklar ichish maqsadga muvofiq. Suyuqliklar tarkibida soklar, o'tli damlamalar, namatak damlamasi, o'rik, olma suyuqliklari intoksikatsiya omillarini kamaytiradi. Katta yoshdagi bolalarga va kattalarga virusga qarshi preparatlar berilishi maqsadga muvofiqdir. Virusga qarshi quyidagi preparatlarni ishlatish mumkin: orbidol, atsiklovir, amiksin.

Shuni ta'kidlash kerakki, virusga qarshi preparatlar adenovirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarga kasallikning birinchi kunlaridan boshlab berish maqsadga muvofiq. Ushbu preparatlar bemor leykotsitlarini virusga qarshi α, γ interferonlarini bir necha 10 marta ko'tarish xususiyatiga ega. Shu bilan birga virusga qarshi preparatlar hujayra va gumoral immunitetni tezroq shakllashtirish qobiliyatiga ega. Orbidol preparati ovqatdan oldin beriladi. Ushbu preparat 6 yoshdan katta bemorlarga tavsiya qilinadi. 12 va undan katta yoshli bemorlarda orbidol 2 tabletkadan 3-4 mahal 5 kun mobaynida beriladi, 6 yoshli bemorlarga esa 1 tabletkadan 3-4 mahal 5 kun mobaynida beriladi. Orbidol preparatini surunkali yurak qon tomir, jigar, buyrak kasalliklari bo'lgan bemorlarga berish taqiqlanadi.

Atsiklovir virusga qarshi samarador preparat bo'lib, 3 yoshdan katta bemorlarga tavsiya etiladi. Ushbu preparat bolalarga 1/2 tabletkadan x 2-3 mahal 5 kun mobaynida ovqatdan keyin ichish tavsiya qilinadi. Kattalarga ushbu preparat 1 tabletkadan 2-3 mahal 5 kun mobaynida tavsiya qilinadi.

Oksalin mazi virusga qarshi samaraga ega bo'lgan preparat bo'lib, burun kataklariga surtiladi. Ushbu preparat burun kataklariga 5 kun mobaynida 2-3 mahal surtiladi.

Odam leykotsitar interferoni intranazal tomchi sifatida adenovirus infeksiyasida samarali ta'sir qiladi. Ushbu preparat kuniga 4-5 marta qo'llaniladi.

Burun kataklariga 4-5 mahal 4 tomchidan tomiziladi. Ushbu preparatni ingalyatsiya sifatida ishlatish mumkin. Oksalin mazi virusga qarshi preparat bo'lib, interanazal (burun kataklariga surtish) holda ishlatiladi. Ushbu preparat adenovirus infeksiyasi bilan kasallanganlar, hamda sog'lom odamlarga profilaktika uchun qo'llaniladi.

Ushbu preparatlar bemorlarga 3 mahal 4-5 kun mobaynida qoʻllaniladi. Profilaktika maqsadida kasal bilan muloqotda boʻlganlarga kuniga 2 mahal 4-5 kun davomida qoʻllash tavsiya qilinadi.

Adenovirus infeksiya bilan kasallangan bemorlarga patogenetik va simptomatik muolajalar oʻtkaziladi. Quyidagi patogenetik, simptomatik doridarmonlar qoʻllaniladi.

Antigrippin, aspirin, askorutin, ibufen, ibuklin, sefikon, nol-gripp, teraflyu va boshqalar. Ushbu preparatlar intoksikatsiya belgilarini kamaytiradi. Isitmani tushiradi, bosh ogʻrigʻi, mushaklarda ogʻriq, holsizlik, darmonsizlik alomatlarini kamaytiradi.

Adenovirusli infeksiyasida kuzatiladigan laringotraxeit, bronxit, bronxeolit, krupp yalligʻlanish jarayonida ingalyatsiya, eufillin, yoʻtalni toʻxtatuvchi preparatlar mukaltin, bromgeksin, brizizi, ATsTs preparatlar qoʻllaniladi.

Kasallikning erta rekonvalesentsiya davrida polivitaminlar (revit, geksevit, undevit, komplevit, Vitrum va boshqalar, Vitamin A, Vitasin Aevit, askorutin, namatak dimlamasi) tavsiya qilinadi.

Bemorlarda nafas siqish holati, laringit, obstruksiya, krupp holatlar kuzatilsa, bemorlar tez fursatda shifoxonalarga yotqizilishi lozim. Ushbu bemorlarda yuqori isitma kuzatilsa, No-shpa 1,0, suprastin 1,0, novokain 1,0 aralashmasi mushak ichiga yuboriladi. Shunday holatda mushak ichiga, venaga deksametazon 1,0 – 2,0, pronidzalon 30, 60 mg gormonal preparatlar yuborish maqsadga muvofiq.

Adenovirus infeksiya bilan kasallangan bemorlarda asoratlari kuzatilsa dezintoksikatsion suyuqliklar bemor tomir ichiga yuboriladi. Quyidagi infuzion preparatlar ishlatiladi: Ringer-lok, suksinasolʼ, laktosolʼ, disolʼ, trisolʼ, atsesolʼ, reosorbilakt, reopoliglyukin eritmalari keng qoʻllaniladi.

Adenovirus infeksiyasining ogʻir kechishida, ayniqsa bronxit, laringotraxeit, pnevmoniya kabi asoratlari boʻlganda antibiotiklar qoʻllaniladi. Koʻpincha sefalosporinlar (tsefozalin, seftraksion, sefotaksim, sefod PEO, rotsefin va boshqalar). Pentsilin guruhiga mansub preparatlar (penitsellin, ampetsillin, ampioks va b.q.).

Adenovirus infeksiyasining profilaktikasi. Adenovirus infeksiyasining profilaktikasi gripp xastaligida qoʻllaniladigan profilaktik chora-tadbirlardan farq qilmaydi. Bemorlar kasallik qoʻzgʻatuvchisi manbai boʻlganligi uchun ular bilan profilaktik chora-tadbirlar oʻtkaziladi. Profilaktik chora-tadbirlar kasallik

omiliga qaratilishi kerak. Adenovirus infeksiyasida kasallik keng tarqalishi kuzatilmaganligi uchun, bemorlar uyda davolanishi maqsadga muvofiq. Og'ir bemorlar esa yuqumli kasalliklar shifoxonasiga yotqiziladi va alohidalaniladi. *Uyda ham bemorlar alohidalanadi va sanitariya-epidemiologik chora-tadbirlar o'tkaziladi:*

- Muloqotda bo'lganlar himoya niqoblari tutishlari shart.
- Qo'lni tez-tez sovunlab yuvish tavsiya etiladi.
- Xonalarni xlorlidezinfeksiya moddalari bilan ho'llab artiladi.
- Bemorlarga individual idish-tovoqlar ishlatiladi, individual sochiqlar, gigiyenik pakatlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Adenovirus infeksiyasi yosh bolalarda ko'proq uchrashini inobatga olgan holda quyidagi profilaktika chora-tadbirlar ko'riladi:

- Uyda issig'i chiqqan bemor bolalar kuzatilsa, oilaviy poliklinikadan uyga shifokor chaqiriladi.

- Yasli, bolalar bog'chalari va maktablarda, issig'i chiqqan bolalarni aniqlash, alohidalash, isitmasini o'lchash ushbu kasallikning sog' bolalarga o'tmasligining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

- Bolalar muassasalarida xonalarni dezinfeksiya moddalar bilan 2 marta tozalanadi.

- Tarbiyachilar, tozalik xodimlari himoya niqoblari taqishlari maqsadga muvofiq.

- Issig'i chiqqan bemor bolalarga agar issig'i yuqori bo'lgan taqdirda birinchi tibbiyot yordami ko'rsatilib, uyga yuboriladi va joylardagi oilaviy poliklinikadan shifokorlarni uyga chaqirtiriladi.

- Sog' bolalarga profilaktik nuqtai nazardan burunlariga oksalin mazi ishlatish tavsiya qilinadi.

PARAGRIPP INFEKSIYASI

Paragripp infeksiyasi o'tkir respirator virusli infeksiya bo'lib, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi, isitma va intoksikatsiya belgilari bilan kechadigan kasallikdir. Paragripp infeksiya o'tkir respirator virusli infeksiya (O'RVI) ichida 10-30% tashkil etadi.

Etiologiyasi. Paragripp virusi gemadsorbik xususiyatga ega virus Myxovirusws parointluen rae deb ataladi. Ushbu virus 1956 yili virusolog Chenok tomonidan kashf etilgan. Paragripp virusi yumaloq, oval shaklda bo'lib, 150-250

n/m o'ldir, ayrim holda viruslar gantel shaklida bo'ladi. Paragripp virusi RNK tutuvchi bo'lib, odam, tovuq eritrotsitlarini agglyutinatsiya qilish xususiyatiga ega. Undan tashqari virus dengiz cho'chqasi, uy hayvonlari eritrotsitlarini ham agglyutinatsiya qilish xususiyatiga ega.

Paragripp virusi uy va yovvoyi hayvonlarda, parrandalarda kasallik chaqirmaydi. Ammo ushbu hayvonlar organizmida uzoq muddat saqlanadi. Tashqi muhitga chidamsiz. Hozirgi kunda 4 xil serologik turlari mavjud. Viruslar $+40^{\circ}\text{S}$ $+80^{\circ}\text{S}$ da uzoq muddat saqlanib turadi. $+55^{\circ}\text{S}$ $+70^{\circ}\text{S}$ da tez nobud bo'ladi.

Paragripp viruslari epiteliotrop xususiyatga ega bo'lib, hujayra ichiga kirish qobiliyatiga ega, og'iz bo'shlig'i, burun kataklari, hiqildoq, ovoz boylamlari, traxeya va bronx epiteliyal hujayralarini jarohatlaydi va o'sha joyda ko'payadi. Yuqori nafas yo'llarida yallig'lanish holatini keltirib chiqaradi. Yuqori nafas yo'llari epiteliyal hujayralarida destruktiv, nekrotik jarayonni vujudga keltiradi. Viruslar intensiv ko'paya borib, maxsus virus lipidlari bemorlarda intoksikatsiya holatini keltirib chiqaradi. Jarohatlangan epiteliylarning tagidagi qon-tomirlar, kapillyarlar devorlari jarohatlanadi. Nafas yo'llaridagi bakteriyalar (stafilokokk, streptokokk, pnevmokokk) faolligi oshib ketadi. Kasallikda virus va bakterial jarohatlanish kuzatiladi.

Paragripp viruslari quruq havoda, yuqori haroratda $+55^{\circ}\text{S}$ -70°S tez nobud bo'ladi. Paragripp viruslari tashqi muhitga chidamsiz.

Paragripp infeksiyasining epidemiologiyasi. Paragripp infeksiyasi O'RVI guruhiga mansub bo'lganligi uchun epidemik jarayon boshqa respirator infeksiyalaridan farq qilmaydi.

Kasallik qo'zg'atuvchisining manbai paragripp infeksiyasi bilan kasallangan bemor bo'lib, xastalikning o'tkir davrida tashqi muhitga viruslarni bemor aksirganda, yo'talganda, havo-tomchi yo'li bilan chiqaradi. Eng ko'p viruslar bemorlarning isitma davrida chiqadi. Bemor isitmasi tushgandan so'ng aksirish, yo'tal alomatlari yo'qolgan zahoti viruslarni tashqi muhitga chiqishi to'xtaydi. Epidemiologik jihatdan subklinik, yengil shakldagi bemorlar tashqi muhitga viruslarni chiqarib turadi va ushbu bemorlar kasallik manbai bo'ladi.

Viruslar havo-tomchi yo'li bilan sog'lom kishilarga yuqadi. Yuqish masofasi 1.5 -2 metrni tashkil etadi. Havo haroratining pasayishi, namgarchilik viruslarning tashqi muhitda uzoqroq turib qolishini ta'minlaydi. Havo-harorati $+40^{\circ}\text{S}$ dan past bo'lganda paragripp viruslari tez nobud bo'ladi.

Havo harorati 30⁰S dan yuqori bo'lsa tashqi muhitda saqlanish juda tez kamayadi. Paragripp viruslari xlor tutuvchi dezinfeksiya moddalariga ta'sirchan bo'lib, tez nobud bo'ladi.

Kasallikka bo'lgan moyillik. Paragripp infeksiyasi bilan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar kasallanadi (98-100%). Shuni aytish lozimki, katta bolalar va kattalar ushbu infeksiya bilan kam kasallanadi. Ushbu kishilarda kasallik yengil o'tishi epidemiologik xavf tug'dirmaydi. Paragripp infeksiyasi katta epidemiologik tarqalish xavfiga ega emas. Ushbu kasallik sporadik holda kuzatiladi. Ammo bolalar yasli, bog'chalarida guruhli kasallanish kuzatiladi. Kasallikni boshidan o'tkazgan bolalar organizmida paragrippga qarshi antitelolar 1-2 yil saqlanib turadi.

Paragripp infeksiyasining patogenezi. Paragripp infeksiyasining patogenezida quyidagi patogenetik bosqichlar kuzatiladi.

1. Viruslarning organizmga kirishi.
2. Viruslarning epitelial hujayralarini jarohatlashi.
3. Virusemiya, toksenemiya.
4. Virusli-bakterial jarohatlanish.
5. Immunitetning shakllanishi.

1) Birinchi faza paragripp viruslari epiteliotrop xususiyatga ega bo'lib, og'iz bo'shlig'i, burun kataklari, hiqildoq, ovoz boylamlari, traxeya, bronx, o'pka epitelial hujayralarningichiga kirib olish xususiyatiga ega bo'lib, epitelial hujayralarni jarohatlaydi. O'sha joyda ko'payadi.

2) RNK tutuvchi viruslar epitelial hujayralarining sitoplazmasi, ribosomasi, endoplazmatik to'rlarining funktsional ish qobiliyatini keskin o'zgartiradi. Jarohatlangan epitelial hujayralarida destruktiv deskvomatik, nekrotik jarayon vujudga keladi.

3) Viruslar ta'sirida nekrozga uchragan epiteliallar toksik xususiyatga ega bo'lib, organizmga umumiy intoksikatsiya zaharlanish holatini keltirib chiqaradi. Virus antigenlari gemagglutinatsiya xususiyatiga ega bo'lib, organizm uchun toksik xususiyatga ega. Shunday qilib o'lgan, ya'ni nekrozga uchragan epitelial hujayralari va viruslarning antigeni bemor organizmiga toksik ta'sir ko'rsatadi.

4) Viruslarning antigenlari toksik xususiyatga ega. Shu bilan birga ko'paygan viruslar bemor qoniga o'tib virusemiya holatini keltirib chiqaradi. Epitelial hujayralarning nekrozi ham toksik xususiyatga ega bo'lganligi uchun, bemor organizmida virusemiya toksonomiya jarayoni kuzatiladi.

5) Bemorlarning yuqori nafas yo‘llarida vujudga kelgan epiteliylarning yemirilishi pnevmotrop bakteriyalarni jarohatlangan uchastkalarga kirib olish va kuchayishini ta’minlaydi. Ko‘pincha pnevmotrop xususiyatga ega bo‘lgan bakterial (stafilokokk, streptokokk, pnevmokokk va b.q) bemor yuqori nafas yo‘llarida yallig‘lanish jarayonini keltirib chiqaradi. Natijada og‘iz bo‘shlig‘ida angina, laringit, laringotraxeit krup jarayonlari kuzatiladi.

6) Paragripp viruslari antigenlariga qarshi maxsus antitelolar shakllana boshlaydi. Maxsus antitelolar 5-7 kunlarda paydo bo‘ladi. Shu bilan birga nespetsifik immun tanachalar: lizotsim, interleykinlar, immun komplekslar (IK) bemor organizmida shakllanadi.

7) Asoratlar kuzatilmasa rekonvalesentsiya davri boshlanadi. Rekonvalesent davri kasallikning 7-10 kunidan boshlanadi.

Klinikasi. Paragripp infeksiyasi 90-92% 1 yoshdan to 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda uchraydi. Inkubatsion davr o‘rtacha 3-4 kun. Yosh bolalarda 1-2 kun. Kattalarda 4-7 kun davom etishi mumkin. Kasallik o‘tkir boshlanadi. Kasallikning birinchi kunidan boshlab uncha baland bo‘lmagan isitma 37.2°S - 37.5°S , kuchsiz intoksikatsiya alomatlari kuzatiladi. Isitma 2-5 kun davom etadi. Ayrim bemor bolalarda isitma tushganidan so‘ng 1-2 kun o‘tib ikkinchi marotaba isitma ko‘tariladi. Ushbu holat paragripp ifeksiyasiga bakteriyalarning qo‘shilishi oqibatida ro‘y beradi. Ba’zi bemor bolalarda kasallik subfibril temperatura, yoki normal temperatura bilan kechishi mumkin. Bemor bolalarda isitma davrida holsizlik, darmonsizlik, uyquning buzilishi, kattalarda bosh og‘rish, ishtahaning pasayishi kuzatiladi.

Paragripp infeksiyasida nafas yo‘llarining kataral yallig‘lanishi kuzatiladi. Bemor bolalarda kasallikning birinchi kunidan boshlab burun bitishi, nafas olishning qiyinlashishi, so‘ng burundan tez-tez seroz, seroz-yiringli suyuqligi chiqadi. Rinoskopiya uslubi bilan tekshirilganda burun shilliq qavatining giperemiyasi, shishganligi qayd etiladi. Bemor bolalarda yallig‘lanish og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatida kuzatiladi. Qizarish qattiq va yumshoq tanglayda, tomoq murtaklarida ham kuzatiladi.

Paragripp infeksiyasida kuzatiladigan tumov 2 haftagacha davom etishi mumkin.

Paragripp infeksiyasida kuzatiladigan doimiy belgi, yo‘tal alomati. Yo‘tal avval quruq, so‘ng balg‘amli bo‘ladi. Ushbu belgi bemor bolada traxeit, traxeobronxit bo‘lganidan dalolat beradi. O‘pkada perkutar timpanik tovush,

auskultativ dag'al nafas olish, ayrim bolalarda quruq xirillash eshitiladi. Quruq xirillash asmatik xarakterga ega. Bu esa bemor bolalarda shamollash, asmatik bronxit shaklida o'tishidan dalolat beradi. Paragripp infeksiyasiga xos klinik belgi bu laringit, glassit, larinotraxeit, soxta krupp, asbtruktiv bronxitlar. Bemor bolalarda laringit alomati paydo bo'lganda yo'tal kuchayadi. Avval quruq, dag'al yo'tal kuzatilsa, yo'tal nafas olishni qiyinlashtiradi. Yo'tal pristupga o'xshab ketadi. Keyinchalik bemor bolaning ovozi bo'g'iladi. Ayrim holda tovush bo'g'ilishi yoki yo'qolishi mumkin (laringit, laringo-traxeit, glassit, soxta krupp). Krup holatida nafas olish qiyinlashadi. Nafas olganda qorin mushaklari, diafragma, qovurg'alar aro mushaklar aktiv qisqara boradi.

Yosh bolalarda paragripp infeksiyasi hiqildoq stenozi, soxta krupp asorati bilan kechadi. Soxta krupp bemor bolalarning og'irligiga qaramasdan hamma klinik shakllarda kuzatilishi mumkin. Etiologiyasi har xil bo'lgan soxta kruplar ichida paragripp infeksiyasida krupp 35-40% tashkil qiladi. Soxta kruppda kuzatiladigan nafas olishning qiyinligi va o'tkir nafas yetishmasligi, pristup bir necha soatdan 1 sutkagacha davom etishi mumkin.

Laringoskop tekshiruvlarida hiqildoq yallig'lanishi, kataral laringit, to'qimalarning shishishi ayniqsa ovoz boylamlari atrofida kuzatiladi. Paragripp infeksiyasi chaqaloqlarda va yosh bolalarda ko'pincha ikki taraflama pnevmoniya asorati kuzatiladi. Pnevmoniya o'chog'i, bronxlarning yallig'lanishi bilan kechadi (bronxopnevmoniya). Kasallik og'ir kechadi. Nafas yetishmasligi, yurak va o'pka yetishmasligi tez rivojlanadi. Yosh bolalarda kuzatiladigan pnevmoniya paragripp viruslari va bakteriyalar (stafilokokk, streptokokk, pnevmokokk va boshqalar) qo'shilishi natijasida ro'y beradi.

Paragripp infeksiyasining tavsifi:

Inkubatsion davr

Kasallikning boshlanish davri

Avj olgan davri

Asoratli (a) soxta grupp rivojlanishi bilan kechadigan

Asoratsiz (b) soxta krupp kuzatilmaydigan shakli.

Kasallikning pasayish davri (rekonvalestsent)

Asoratlari:

Seroz meningit

Miokardit

Nefrit

Soxta krupp
Pnevmoniya
Og'irligi bo'yicha
Sub klinik
Engil
O'rta og'ir
Og'ir

Laboratoriya tekshiruvlari taxlili shuni ko'rsatdiki, umumiy qon analizida bolalarda kasallikning boshlanish davrida o'zgarish aytarli darajada kuzatiladi. Avj olgan davrda, leykotsitoz neytrofilez, eozinofilez, eritrotsitlar cho'kish tezligi bir oz oshishi kuzatiladi.

Umumiy siydik analizida aytarlik o'zgarishlar kuzatilmaydi, ammo paragripp xastaligining asoratli kechishida umumiy siydik analizida yassi epiteliylar ko'payishi, eritrotsitlar, oqsilning oshishi kuzatiladi.

Paragripp infeksiyasini aniqlashda maxsus tekshirishlar qo'llaniladi.

Rinotsistoskopiya uslubi.

Immunoflyurostsent tekshiruvi

RPGA spetsifik eritrotsitlar bilan paragripp diagnostikumi

RSK komplement bog'lovchi reaktsiya.

Rinoskopiya uslubi orqali burun va tomoq surtmalarini mikroskopda nekrozga uchragan epiteliy hujayralar va viruslarni yig'ilgan holda aniqlanadi.

Immunoflyuorestsent uslubi ekspres tekshiruv bo'lib burun suyuqligi va tomoq surtmasida flyuorestsentli antitelolar yordamida maxsus flyuorestsent mikroskopda paragripp viruslar yig'indisi aniqlanadi.

RPGA. RSK uslublari orqali paragrippga qarshi antitelolar titrining ko'payishi orqali tashxis qo'yiladi. Maxsus antitelolar paragripp infeksiyasi bilan kasallangan bemor bolalarda 2-4 marta oshishi kuzatiladi.

Davolash. Paragripp infeksiyasi bilan kasallangan bemor bolalarni davolash kompleks ravishda olib boriladi.

Davolash jarayonida bemor bolalarga virusga qarshi dori vositalar simptomatik, patogenetik, immunomodulyator davolash choralari ishlatiladi. Paragripp infeksiyalarini davolashda qo'llaniladigan dori vositalar viruslarning o'sish darajasini keskin kamaytiradi. Intoksikatsiya belgilari rivojlanishining oldini oladi. Bemor bolalar nafas yo'lida yallig'lanish jarayoni nafas yo'llarining quyi qismiga o'tishining oldini oladi, asoratlarni sezilarli kamaytiradi. Nihoyat bemor bolalarning virusga qarshi immunitetini tiklashda yordam beradi.

Paragripp infeksiyasining subklinik, belgisiz shakllarida: oksalin mazi 2 mahal 5 kun, aflubin 5-6 tomchi 2 mahal 3 kun, suyuqlik ichish bilan davolash o'tkaziladi.

Paragripp infeksiyasining yengil va o'rta og'ir kechishida quyidagi davolash choralari qo'llaniladi.

Bemorlar uyda davolanadi. Bemorlarga ko'p suyuqlik ichish tavsiya qilinadi (mineral suv, soklar, namatak damlamasi).

Chaqaloqlar va yosh bolalarga kasallikning birinchi kundan boshlab oksalin mazi 2 mahal 5 kun, odam leykotsitar interferoni 1-2 tomchidan 3 mahal bemor bolalarning burun kataklariga 3-5 kun mobaynida tomiziladi.

Viferon preparati rektal 1 sv x 2 mahal 5 kun mobaynida qo'llaniladi.

Arbidol preparati 6-12 yoshdan katta bolalarga va kattalarga qo'llaniladi. Virusga qarshi samaraga ega ushbu preparat ovqatdan keyin bolalarga 1 tabletkadan 3-4 mahal 5 kun mobaynida qo'llaniladi.

Kattalarga esa 2 tabletkadan 3-4 mahal 5 kun mobaynida qo'llaniladi.

Arbidol preparati surunkali yurak qon tomir, jigar, buyrak kasalliklari bo'lgan bemorlarga qo'llanilmaydi.

Simptomatik preparatlar:

Bolalarga antigrippin 1/2 tab x 3 mahal 5 kun.

Askorutin 1 tab x 3 mahal 5 kun.

12 yoshdan katta bemor bolalarga Aievit, revit, undevit, geksevit vitaminlari 10-15 kun davomida beriladi. 3 yoshli bolalarga vitrum bebi 1 tabletkadan 1 mahal ichish tavsiya qilinadi.

Bemor bolalarda yo'tal kuzatilsa, mukaltin, bromgeksin, yo'talga qarshi tabletkadan preparatlari 3-4 mahal ichish tavsiya qilinadi.

Og'iz bo'shlig'ida yallig'lanish kuzatilsa ibufen yoki septolet preparatlarini 1/2 tab x 3 mahalshimish tavsiya qilinadi.

Kuchli allergiya holati qayd etilsa, bemor bolalarga diazolin yoki zodak preparatlarini ichish tavsiya qilinadi. Diazolin preparati (bolalar dozasi) 1 tabletkadan 2 mahal 3-5 kun, zodak preparati 5 tomchidan 2 mahal 5 kun ichish tavsiya qilinadi.

Bemor bolalarga og'izdagi yallig'lanishni kamaytirish va og'iz bo'shlig'idan paragripp virusini o'ldirish maqsadida furatsilin, furasol eritmasi bilan og'izni chayish tavsiya qilinadi. Og'iz chayish uchun qo'shimcha romashka, xlorfillipp eritmalarini ishlatish mumkin.

Paragripp infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda yuqori isitma kuzatilsa, ibuklin, ibufen D, paratsetamol, sefekon preparatlari qoʻllaniladi.

Chaqaloqlarda va yosh bolalarda isitma 40°C dan yuqoriga koʻtarilsa, magistral tomirlarga muz, muzdek sochiq qoʻyiladi. Bemor bolalarga analgin 50% 0.4, dimedrol 1% 0.4, novokain 0.5% 0.5 aralashmasi yonbosh mushakga (v/m) yuboriladi. Talvasa belgisining oldini olish maqsadida 25% magneziiy 0.5-1.0 tomir ichiga, furasemid 0.5-1.0 tomir ichiga yuborish maqsadga muvofiqdir.

Qiyosiy tashxisot: Koronavirus Covid-19 infeksiyasi:

Koronavirus Covid-19 infeksiyasi yuqori kontagiozli, juda tez tarqalish xususiyatiga ega boʻlgan, yuqori isitma, tumov belgilari bilan kechadigan yuqumli kasallikdir. Koronavirus Covid-19 infeksiyasi oʻtkir boshlanadi, bemorlarda yuqori isitma, respirator belgilar: yoʻtal, aksirish, burun va ogʻiz boʻshligʻining yalligʻlanishi, mushaklarda, belda ogʻriq, titrash, ogʻizda maza bilmaslik, hid bilish qobiliyatining yoʻqolishi alomatlari paydo boʻladi. Yoshi katta va 65 yoshdan katta bemorlarda kasallik ogʻir oʻtishi pnevmoniya asoratlarini tez va shiddatli paydo boʻlishi bilan muhim qiyosiy diagnostik ahamiyatga ega.

Rinovirus infeksiyasida asosiy klinik belgi tumov, yoʻtal, hid bilish qobiliyatining pasayishi xastalikning birinchi kundan boshlab kuzatiladi. Isitma, intoksikatsiya deyarli kuzatilmaydi.

Allergik tumov rinovirusli infeksiya klinikasiga juda oʻxshash. Allergik tumov mavsumiy kasallik boʻlib, asosan turli allergenlar taʼsirida sodir boʻladi. Koʻpincha bahor gullari, terak guli (pux), parrandalar pati, hayvonlar yungi va hokazo. Allergik tumov xastaligida isitma, intoksikatsiya belgilari kuzatilmaydi. Bemorlarda uzoq muddatda aksirish, burun qichishi, burun hid bilish qobiliyatining yoʻqolishi kabi klinik belgilar kuzatiladi. Mavsum oʻtishi bilan allergik omillar yoʻqolishi natijasida allergik tumov alomatlari yoʻqoladi.

Gripp va paragripp xastaligida yuqori isitma, intoksikatsiya, nafas yoʻllarining yalligʻlanishi alomatlari birinchi kundan namoyon boʻladi. Gripp va paragripp infeksiyasida laringit, bronxit, traxeit, glassit pnevmoniya alomatlari kuzatiladi. Ushbu kasalliklarda keng tarqalish epidemiya shaklida vujudga keladi.

Adenovirus infeksiyasi. Adenovirus infeksiyasida kasallik sekin-asta boshlanadi. Intoksikatsiya belgilari kundan-kun koʻpaya boradi. Isitma kasallikning birinchi kunlari 37.0°C – 37.8°C koʻtariladi.

Bemorlarda ko‘z shilliq pardasi yallig‘lanadi (kon’yunktivit, kerato-kon’yunktivit), limfa tugunlarning yallig‘lanishi, nafas yo‘lida yallig‘lanish (traxeit, bronxit, bronxeolit, pnevmoniya) oshqozon ichak traktining jarohatlanishi, charvi limfa tugunlarining yallig‘lanishi (mezodenit) jigar va taloqning kattalashishi kuzatiladi, kasallik 12-17 kun davom etadi.

Qiyosiy tashxis rinovirus infeksiyasida respirator-sintitsial infeksiyasi, reovirus infeksiya YeSNO (Tip 10) bilan taqqoslash lozim.

Chaqaloqlarda va yosh bolalarda nafas bo‘g‘ilishi va soxta krupp asorati kuzatilsa No-shpa 0.5 suprastin 0.5, novokain 0.5% 0.5 aralashmasi yonbosh mushak ichiga yuboriladi. Shu bilan birga yonbosh mushak ichiga deksametazon 0.5-1.0, prednizalon 0.5-1.0 yuboriladi.

Intoksikatsiya alomatlarini kamaytirish maqsadida infuzion eritmalar 0.9% NaCl, ringer-lokk, Disol, Atsesol, 5%, 10% glyukoza, reosorbilat, reopoliglyukin, tomir ichiga bolalarning vazniga qarab quyiladi. Modda almashinuvini yaxshilash maqsadida riboksin, askorbin kislota, Vitamin V6, V1, V12 mildranat, almiba preparatlari tomir ichiga yoki mushakka qilinadi.

Paragripp infeksiyasining og‘ir va asoratli kechishida hayot uchun xavfli holatlar vujudga kelganda (pnevmoniya, soxta krupp, o‘pka yetishmasligi, yurak-qon tomir yetishmasligi) bemor bolalar jonlantiruvchi bo‘limda davolanishi maqsadga muvofiq. Paragripp infeksiyasining og‘ir va asoratli kechishida, bakterial mikrofloraning faolligini kamaytirish maqsadida antibiotiklar qo‘llaniladi (tseftriakson, sefotoksin, sefod PEO, rotsefin va boshqalar). Antibiotiklar bemor bolalarning vazniga qarab 2 mahal 5 kun mobaynida qo‘llaniladi.

Paragripp infeksiyasining profilaktikasi. Paragripp infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar uyda davolanadi. Faqat og‘ir va asoratli kechganda bemorlar shifoxonalarda davolanadi. 95.0% – 98.0% paragripp infeksiyasi chaqaloqlarda va yosh bolalarda kuzatilganligi uchun profilaktik chora-tadbirlar uyda va bolalar bog‘chalarida, maktablarda o‘tkaziladi.

Uyda bajariladigan profilaktik chora-tadbirlar:

Bemor bolalarda shamollash alomati kuzatilsa va isitma chiqsa, shifokorlarni uyga chaqiriladi. Bemor bolaning ota-onasi va boshqa oila a‘zolari himoya niqobini taqish maqsadga muvofiq. Bemor bola yotgan joy dezinfeksiya moddalari bilan tozalanadi. Bemor bola qo‘llari 3-4 mahal gigiyenik salftetkalar yordamida artib turiladi. Katta yoshdagi bemorlar kasallik alomatlari tugaguncha uyda davolanadi. Shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qiladi.

Bolalar muassasasida va maktabda profilaktik chora-tadbirlar o'tkazish.

Bemor bolalar, bolalar muassasalariga isitma va respirator sindrom alomatlari bilan kelganda izolyatorga yotqiziladi va isitma o'lchanadi. Bog'cha tarbiyachilari va o'qituvchilar himoya niqobi taqishlari shart. Xonalar va sinflar dezinfeksiya moddalari bilan tozalanadi. Bemor bolaga birinchi yordam ko'rsatilgandan so'ng, oilaviy poliklinika shifokoriga, hududiy sanitariya-epidemiologiya markaziga xabar beriladi. Xodimlarning kunlik isitmasi o'lchanadi. Bolalar bog'chalarida va maktabda paragripp infeksiyasining tarqalishi kuzatilsa, 1 haftaga karantin e'lon qilinib yopiladi.

Paragripp infeksiyasiga qarshi vaksina bo'lmaganligi uchun ommaviy emlash o'tkazilmaydi.

RINOVIRUS INFEKSIYASI

Rinovirus infeksiyasi o'tkir kontagioz virusli tumov xastaligi bo'lib, respirator virusli infeksiyalar guruhiga mansub bo'lib, isitma, rinoriya, intoksikatsiya klinik belgilari bilan kechadi.

Etiologiyasi. Rinoviruslar 1960-yilda virusolog Tirdell tomonidan kashf etilgan. Ushbu virus tumov bilan kasallangan bemorlarningburun suyuqligidan ajratib olingan. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, rinoviruslar bemor buyragi va maymun buyragi to'qimalarida ko'payish xususiyatiga ega. rinoviruslar RNK tutuvchi virus bo'lib, juda kichik o'lchamga ega (15-30 nm). Rinoviruslar RNKsi burun kataklari va og'iz bo'shlig'i epitelial hujayralarini jarohatlash xususiyatiga ega. Hozirgi kunda viruslarning 50 ta serologik variantlari aniqlangan va ularning hammasi kasallik chaqirish xususiyatiga ega. Rinoviruslar pikarno viruslar guruhiga mansub (pico – kichik, rno – ribonuklein kislotasi).

Rinoviruslarning tashqi qobig'ida lipidlar mavjud bo'lib, odam epitelii hujayralariga kirishini ta'minlaydi. Rinovirus antigenlari gemagglyutinatsiya qilish xususiyatiga ega. Shu tufayli bemorlarga kuchli bo'lmagan intoksikatsiya alomatlarini keltirib chiqaradi. Rinoviruslar bemorlarning burun kataklaridagi kuchli seroz suyuqligini chiqarish qobiliyatiga ega.

Rinoviruslar tashqi muhitga chidamli 50⁰C – 70⁰C da tez nobud bo'ladi. 100⁰C da o'sha zahoti o'ladi. Ammo namgarchilik va past haroratda 2-3 kun saqlanib turadi.

Epidemiologiyasi. Rinovirus infeksiyasi o'tkir respirator virusli infeksiyalar guruhiga mansub bo'lib, epidemiologik jihatdan boshqa O'RVIdan farq qilmaydi.

Kasallik qo'zg'atuvchisining manbai: Rinovirus infeksiyasida kasallik manbai bemor yoki virus tashuvchi hisoblanadi. Rinoviruslar kasallikning

birinchi kundan boshlab tashqi muhitga chiqa boshlaydi. Bemor aksirganda, yo'talganda tashqi muhitga ko'plab rinoviruslarni chiqarib turadi. Bemor organizmidan viruslar 5-7 kun mobaynida chiqib turadi, shuning uchun kasallik tarqatish bo'yicha epidemiologik xavf tug'diradi.

Yuqish yo'li. Bemorlardan sog'lom odamga rinoviruslar havo-tomchi yo'li bilan yuqadi. Rinoviruslar bemor yo'talganda, aksirganda ko'p miqdorda tashqi muhitga havo-tomchi yo'li bilan chiqadi. Yuqish masofasi 1-3 metr. Chiqqan viruslar 1-3 metr masofada bo'lgan sog'lom kishilarga yuqishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim holda rinoviruslar virus tashuvchilardan ham sog'lom odamlarga yuqishi mumkin, lekin muhim epidemiologik ahamiyat kasb etmaydi.

Rinovirus infeksiyasi 80% - 85% kattalarda, 15% - 20% bolalarda kuzatiladi. Ushbu infeksiya mavsumiylikka ega. Kasallik ko'pincha kuz, qish va bahor oylarida ko'payadi. Yoz oylarida kasallik keskin kamayadi.

Kasallikka bo'lgan moyillik. Rinovirus infeksiyasi bilan barcha yoshdagi kishilar kasallanishi mumkin. Kasallikni boshidan o'tkazgan kishilarda immunitet, ya'ni maxsus antitelolar 3-4 oy mobaynida saqlanib turadi. Shu tufayli 1 yilda sog'ayib ketgan kishilar 3-4 marta qayta kasallanishi mumkin.

Surunkali bronx, o'pka kasalliklari bo'lganlarda rinovirus infeksiyasi tez-tez kuzatiladi. Sog'lom kishilarning burun kataklari va og'iz bo'shlig'ida rinoviruslar uzoqroq saqlanib qoladi. Bu esa virus tashuvchanlikni shakllantiradi.

Patogenezi. Rinoviruslar epiteliotrop xususiyatga ega va og'iz bo'shlig'i, burun kataklaridagi epiteliy hujayralarni zararlaydi va u yerda ko'payadi.

Rinoviruslarning nafas yo'llaridagi epiteliy hujayralarga kirishi.

Yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi.

Virusemiya, toksenemiya.

Virus – bakterial jarohatlanish.

Rinovirusga qarshi antitelalarning shakllanishi.

Rinoviruslar epiteliy xususiyatga ega bo'lganligi uchun burun kataklari va og'iz bo'shliqlaridagi epiteliy hujayraga kirib olish xususiyatiga ega. Rinoviruslarning tashqi qobig'ida lipidlar mavjud, antigenlari esa toksik xususiyatga ega va odam eritrotsitlarini agglyutinatsiya qilish qobiliyatiga ega. Lipidlar rinoviruslarni epiteliy hujayralarga kirgizish qobiliyatiga ega. Epiteliy hujayralarga kirgan viruslar informatsion RNKga aylanib juda qisqa muddatda ko'paya boradi. Jarohatlangan epiteliy hujayralarda destruktiv, deskvomatik, nekrotik jarayon sodir bo'ladi. Jarohatlangan epiteliylarning tagidagi mayda qon

tomirlar o'tkazuvchanligi oshib, seroz, seroz-yiringli yallig'lantirishni keltirib chiqaradi.

Ayrim bemorlarda ko'z shilliq qavatida yallig'lanish kuzatiladi (kon'yunktivit). Burun kataklari atrofida yallig'lanish va gerpetik toshmalar toshadi. Bemorlarda aksirish, yo'tal, burundan seroz suyuqlik chiqib turadi. Kelgusi patogenetik jarayonda rinoviruslar va ularningtoksinlari qonga o'tishi mumkin. Ushbu holatda virusemiya va toksenemiya holati kuzatiladi. Bemorlarda holsizlik, darmonsizlik, ishtahaning pasayishi, bosh og'riq kabi klinik belgilar paydo bo'ladi. Virusemiya va toksenemiya jarayoni bemor immunitetini pasaytirib yuboradi. Natijada kelgusi patogenetik bosqich boshlanadi.

Ushbu patogenetik jarayonda organizmda saqlanib qolgan bakteriyalar (stafilokokk, streptokokk, pnevmokokk va boshqa bakteriyalar) aktivlashadi va respirator yo'llaridagi yallig'lanish jarayonini kuchaytirib yuboradi. Ushbu holatda bemorlarda har-xil asoratlar kuzatila boshlaydi (otit, gaymorit, tonzillit, pnevmoniya).

Patogeneznning virus-bakterial bosqichida rinovirus infeksiyasining asoratlari kuzatiladi.

Patogeneznning kelgusi bosqichida bemorlarda rinovirusga qarshi spetsifik antitelolarning chiqarilishi kuzatiladi. Spetsifik rinovirus antilelolar 3-4 oygacha saqlanib turadi. Shu tufayli 1 yil mobaynida odamlar 2-3 marta rinovirus infeksiyasi bilan kasallanishi mumkin.

Rinovirus infeksiyasining klinikasi. Rinovirus infeksiyasida inkubatsion davr 1 kundan 3 kungacha davom etadi. Ayrim holda 6 kungacha cho'zilishi mumkin. Kasallik o'tkir boshlanadi. Xastalikning birinchi kunidan boshlab aksirish, yo'talish alomatlari paydo bo'ladi. Rinovirus infeksiyasiga xos bo'lgan klinik ko'rinish burundan intensiv suvsimon suyuqlik to'xtamasdan chiqib turadi. Keyinchalik burundan oqayotgan suyuqlik shilimshiq (seroz), bakterial mikrofloralar qo'shilganda seroz-yiringlik holatda bo'ladi. Bemorlar burun kataklari qizargan, shishgan, nafas olishi qiyinlashgan holatda bo'ladi. Burundagi hid bilish qobiliyati pasayadi yoki yo'qoladi.

Ko'z shilliq qavatida tomirlar inyeksiyasi, qizarish (kon'yunktivit) kuzatiladi, ko'z va qovoqlar shishadi. Bemor badani oqaradi, yuzi qizaradi, toshmalar bo'lmaydi. Tomoq qizaradi, yallig'lanadi, murtaklar qizaradi, biroz shishadi. Bemor pulsi bir oz tezlashadi, arterial bosim o'zgarmaydi. Yurak tonlari bo'g'iq, sistolik shovqin eshitilmaydi. O'pkada dag'al nafas eshitiladi. Og'ir bemorlarda sistolik shovqin eshitiladi.

Bemorlarning oshqozon ichak traktida aytarlik o'zgarishlar bo'lmaydi. Ayrim bemorlarda ishtahaning pasayishi, til karashligi kuzatiladi. Bemorlarda qabziyat kuzatiladi. Bemor buyraklarida o'zgarish kuzatilmaydi. Rinovirus infeksiyasida isitma ko'tarilmaydi. Ammo, bemorlarda asoratlar shakllansa, isitma ko'tarilishi mumkin.

Markaziy asab tizimida aytarli o'zgarishlar kuzatilmaydi. Ammo intoksikatsiya alomatlari kuzatilishi mumkin. Rinovirus infeksiyasida asoratlar kuzatilsa, bosh og'rig'i, charchoqlik, holsizlik, ishtahaning pasayishi, bel va oyoqlarda, bo'g'imlarda og'riq paydo bo'ladi. Rinovirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda isitma chiqsa ($37^{\circ}\text{C} - 37.8^{\circ}\text{C}$) asoratlar borligidan dalolat beradi. Kasallik 6-7 kun davom etadi. Asoratlar kuzatilganda kasallik 8-9 kungacha davom etishi mumkin.

Rinovirus infeksiyasining klinik tavsifi:

A) Kasallikning davriyligi:

1. Inkubatsion davr.
2. Kasallikning boshlanish davri.
3. Kasallikning avj olgan davri.
4. Kasallikning pasayish davri.
5. Tuzalish.

B) Og'irligi:

1. Yengil.
2. O'rta og'ir.
3. Og'ir (asoratli kechishi).
4. Subklinik.

V) Asoratlar:

- 1) sinusit
- 2) gaymorit
- 3) otit
- 4) pnevmoniya, angina

Laboratoriya diagnostikasi. Rinovirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda umumiy qon analizi, umumiy peshob analizi, umumiy axlat analizlarida o'zgarishlar kuzatilmaydi. Ammo rinovirusli infeksiya asoratlar bilan kechganda, leykotsitoz, neytrofilez, eozinofilez, limfotsitopeniya, eritrotsitlar cho'kish tezligining oshishi kuzatiladi.

Rinovirus infeksiyasining etiologik omilini aniqlash maqsadida serologik, immunologik uslublardan foydalaniladi.

Rinovirusning maxsus antitelolarini aniqlash maqsadida RPGA uslubidan foydalaniladi. Antitelolarni aniqlash uchun eritrotsitar rinovirus antigenlaridan foydalaniladi. Bemor qonida maxsus rinovirus antitelolari titri 2-4 marta oshishiga e'tibor beriladi. Agar maxsus rinovirus antitelolari titri bemorda 2-4 marta oshsa rinovirus infeksiyasi tashxisi qo'yiladi.

Immunoflyuorestsentsiya uslubi. Bemorlarda rinovirus borligini aniqlash maqsadida immunoflyuorestsentsiya uslubidan foydalaniladi.

Ushbu uslubni bajarish uchun flyuorestsentlangan maxsus rinovirus antitelolari va flyuorestsent mikroskop ishlatiladi.

Rinovirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarning burun suyuqligi va tomoq surtmasi olinib flyuorestsentlangan maxsus antitelolar surtmaga aralashtiriladi va mikroskopda rinoviruslar flyuorestsentsiya yorig'i beradi, ya'ni rinoviruslar borligidan darak beradi.

Davolash. Rinovirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar uy sharoitida davolanadi. Og'ir va asoratli bo'lgan bemorlar esa shifoxonaga yotqiziladi.

Rinovirus infeksiyasining subklinik va yengil kechishida dori-darmonlar bilan davolash shart emas. Ushbu bemorlarga ko'p suyuqlik ichish, vitamanga boy taomlar iste'mol qilish maqsadga muvofiq. Shunday bemorlarda tomoq og'rig'i boshlansa, virusga qarshi preparatlar: atsiklovir 1 tab x 3 mahal 5 kun, askorutin 2 tab x 3 mahal 5 kun, undevit, geksavit polivitaminlar 1 dr x 2 mahal 10 kun davomida tavsiya qilinadi. Burundan seroz suyuqlik oqa boshlasa, oksalin mazi 2 mahal 3-5 kun, naftizin, nazoferon, rinozalin, glazolin, protargol tomchilari: 2 tomchidan x 2-3 mahal 4-5 kun mobaynida tomiziladi.

Rinovirus infeksiyasining o'rta og'ir shaklida davolash tartibi.

Bemorlar ko'p suyuqlik ichishi maqsadga muvofiq (mineral suv, soklar, meva sharbatlari, namatak damlamasi, limon, malina, smorodina qaynatmalari).

Vitamanga boy suyuq ovqatlar: sholg'om sho'rva, tovuq qaynatmasi, bulonlar iste'mol qilish maqsadga muvofiq. Bemorlarga simptomatik dori-darmonlar tavsiya etiladi.

Antigrippin 1 tab x 3 mahal 3-5 kun.

Askorutin 1 tab x 3 mahal 5 kun.

Aievit 1 dr x 1 mahal 10 kun.

Septolet, imudon tabletkalarini 1 tab x 3 mahal 5 kun shimish tavsiya etiladi.

Bemorlarda allergiya alomatlari kuzatilsa, Diazolin, Zodak, Anallergin tabletkalarini 1-2 mahal 5 kun mobaynida ichish tavsiya qilinadi.

Rinovirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarga virusga qarshi preparatlar tavsiya qilinadi. Atsiklovir (200, 400) 1 tabletkadan 3 mahal 5 kun.

Aflubin 15-20 tomchidan 2 mahal 5 kun.

Ushbu preparatlar rinoviruslarning o'sish qobiliyatini pasaytiradi, yallig'lanish jarayonining oldini oladi, bemor immunitetini ko'taradi. Og'ir va asoratli kechgan rinovirusli infeksiya bilan kasallangan bemorlar kasalxonalarda davolanadi. Virusli-bakterial assotsiatsiyasi asoratlarni keltirib chiqarishini inobatga olgan holda bemorlarga antibiotiklar qo'llaniladi (tseftriakson, sefotoksin, sefod, rotsefin PEO, penitsillin guruhiga mansub antibiotiklar).

Qiyosiy tashxisot.

Koronavirus Covid-19 infeksiyasi: Koronavirus Covid-19 infeksiyasi yuqori kontagiozli juda tez tarqalish xususiyatiga ega bo'lgan, baland isitma, tumov belgilari bilan kechadigan yuqumli kasallikdir. Koronavirus Covid-19 infeksiyasi o'tkir boshlanadi, bemorlarda yuqori isitma, nafas yo'llarida: yo'tal, aksirish, burun va og'iz bo'shlig'ining yallig'lanishi, mushaklarda, belda og'riq, titrash, og'izda maza bilmaslik, hid bilish qobiliyatining yo'qolishi alomatlari paydo bo'ladi. Yoshi katta va 65 yoshdan katta bemorlarda kasallik og'ir o'tishi pnevmoniya asoratlarning tez va shiddatli paydo bo'lishi bilan muhim qiyosiy diagnostik ahamiyatga ega.

Rinovirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarning qiyosiy tashxisi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu infeksiyani allergik tumov, paragripp, adenovirusli infeksiya, gripp kasalliklari bilan qiyosiy tashxis qilinishi maqsadga muvofiq.

Rinovirus infeksiyasida asosiy klinik belgi tumov, yo'tal, hid bilish qobiliyatining pasayishi xastalikning birinchi kundan boshlab kuzatiladi. Isitma, intoksikatsiya deyarli kuzatilmaydi.

Allergik tumov rinovirusli infeksiya klinikasiga juda o'xshash. Allergik tumov mavsumiy kasallik bo'lib, asosan turli allergenlar ta'sirida sodir bo'ladi. Ko'pincha bahor gullari, terak guli (pux), parrandalar, uy va yovvoyi hayvonlar yungi va hokazo.

Allergik tumov xastaligida isitma, intoksikatsiya belgilari kuzatilmaydi. Bemorlarda uzoq muddatga aksirish, burun qichishi, burun hid bilish qobiliyatining yo'qolishi kabi klinik belgilar kuzatiladi. Mavsum o'tishi va allergik omillar yo'qolishi natijasida allergik tumov alomatlari yo'qoladi.

Gripp va paragripp xastaligida yuqori isitma, intoksikatsiya, nafas yo'lining yallig'lanishi alomatlari birinchi kundan namoyon bo'ladi. Gripp va paragripp

infeksiyalarida laringit, bronxit, traxeit, glassit, pnevmoniya alomatlari kuzatiladi. Ushbu kasalliklar tez tarqaladi, epidemiya shaklida vujudga keladi.

Adenovirus infeksiyasi. Adenovirus infeksiyasida kasallik sekin-asta boshlanadi, intoksikatsiya belgilari kundan-kun ko'paya boradi. Isitma kasallikning birinchi kunlari $37,0^{\circ}\text{C} - 37,8^{\circ}\text{C}$ ko'tariladi.

Bemorlarda ko'z shilliq pardasi yallig'lanadi (kon'yunktivit, kerato-kon'yunktivit), limfa tugunlarning yallig'lanishi, nafas yo'lida yallig'lanish (traxeit, bronxit, bronxiolit, pnevmoniya) oshqozon ichak traktining jarohatlanishi, diareya, limfa tugunlarining yallig'lanishi (mezadenit) jigar va taloqning kattalashishi kuzatiladi. Kasallik 12-17 kun davom etadi.

Qiyosiy tashxisda rinovirus infeksiyasini respirator-sintsitial infeksiyasi, reovirus infeksiyasi YeSNO (tip 10) bilan taqqoslash lozim.

Profilaktikasi. Rinovirus infeksiyasining profilaktikasi boshqa respirator virusli infeksiyalardan farq qilmaydi. Bemorlar uyda davolanadi va alohidalanadi. Uyda bemorlar alohida xonada yotadi. Bemor yotgan xona kuniga 2-3 marta dezinfeksiya moddalari bilan tozalanadi. Bemorlarning oila a'zolari gigiyenik himoya vositalarini (niqoblar) taqishi shart. Bemorga alohida idish-tovoq, bir marta ishlatiladigan gigiyenik selfetkalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bolalar muassasalari va maktablarda bemorlar qayd qilinganida bemorlar alohida izolyatorlarga olib kiriladi va oilaviy shifokorga, hududiy sanitariya-epidemiologiya markazlariga xabar beriladi. Bolalar bog'chalarida, maktab sinflarida bemor kirgan xonalar dezinfeksiya moddalari bilan tozalanadi. Bog'cha tarbiyachilari, sog'lom bolalar va maktab o'quvchilari qo'llari sovunlab yuvilib, dezinfeksiya moddalari bilan artiladi. Bemorlar uy sharoitida 7 kun mobaynida alohidalanadi.

RESPIRATOR – SINSITIAL INFEKSIYA

(RS – virus infeksiya)

Respirator – sintsitial infeksiya (RS – virus infeksiya) o'tkir respirator virusli infeksiya guruhiga mansub xastalik bo'lib, isitma, intoksikatsiya, bronxlar, bronxiolalarning jarohatlanishi bilan kechadigan xastalik. Ushbu infeksiya chaqaloqlar va yosh bolalarda uchraydi. Kattalarda RS – infeksiyasi kuzatilmaydi va umumiy respirator virusli infeksiyalar ichida 15-25% tashkil etadi.

Etiologiyasi. RS – virusi 1956–1957-yillarda virusologlar Morris, Chenok va ularning o'quvchilari tomonidan kashf etilgan. RS – viruslari bemor bolalar

nafas yo‘llaridagi zararlangan epiteliyal hujayralardan ajratib olingan. Zararlangan epiteliylar ichidagi viruslarning bir-biriga yopishib qolish xususiyatiga ega bo‘lganligi va ushbu viruslarning toza holatda ajratib olinganda ham viruslar bir-biriga yopishib turishiga qarab respirator-sintsiyal viruslar deb atala boshlandi.

RS-viruslari RNK – tutuvchi miksoviruslar guruhiga mansub. Viruslar 90-120 nm o‘lchovga ega. odam xujayralarida o‘stirib olinadi.

RS-viruslar tashqi muhitga chidamsiz, harorat 60⁰S va undan ortiq isitilganda tez nobud bo‘ladi. Past haroratda va namlikda uzoqroq saqlanadi. Dezinfeksiya moddalari ta’sirida, ya’ni 0.5% - 1.0% xloramin, xlor suyuqligi ishqorlarida o‘sha zahoti nobud bo‘ladi. RS-virusining 2 ta antigeni mavjud. Antigenlar odam eritrotsitlarini agglyutinatsiya qilish qobiliyatiga ega. Virusning tashqi qobig‘idagi lipidlar, polisaxaridlar toksik xususiyatga ega. Viruslarning tashqi qobig‘idagi lipidlar epiteliyal hujayralar ichiga viruslarning kirib olishini ta’minlaydi.

Epidemiologiyasi. RS-infeksiyasi respirator virusli infeksiyalar guruhiga mansub bo‘lib, havo-tomchi yo‘li orqali yuqadi.

Kasallik qo‘zg‘atuvchisining manbai: Kasallik manbai RS – infeksiyasi bilan kasallangan bemor va virus tashuvchi hisoblanadi. Bemorlar kasallikning birinchi kundan boshlab katta miqdorda RS-viruslarini tashqi muhitga chiqarib turadi. Bemorlar aksirganda va yo‘talganda viruslar tashqi muhitga chiqib boshlaydi. RS-viruslari havo-tomchi holatda, ya’ni burun suyuqligi, og‘izdan tufuk holatida, suyuqlik viruslar aralashmasi holatida tashqi muhitga chiqadi.

Kasallikning yuqish yo‘li. RS – infeksiyasi sog‘lom odamlarga havo-tomchi yo‘li orqali yuqadi. Bemorlar kasallikning og‘irligiga qaramasdan atrofdagilar uchun xavf tug‘diradi. Shuni ta’kidlash kerakki, kasallikni yuqtirishda virus tashuvchilar ham muhim rol o‘ynaydi. Bemorlar kasallikning 5-7 kunlari mobaynida viruslarni tashqi muhitga chiqarib turadi.

Kasallikka bo‘lgan moyillik. RS – infeksiyasiga bo‘lgan moyillik yuqori. Ayniqsa chaqaloqlar va yosh bolalar RS – infeksiyasiga 100% moyil. Ushbu infeksiya bilan bolalar 3-4 yoshgacha kasallanadi. To‘rt yoshdan katta bolalar RS – infeksiya bilan kamdan-kam kasallanadi. Kattalarda esa RS – infeksiyasi subklinik, inapparat shaklda kechadi. Ushbu infeksiya mavsumiylikka ega. RS – infeksiyasi kuz, qish va bahor oylarida qayd etiladi. Kasallikni boshidan o‘tkazgan bemorlarda RS – infeksiyasiga qarshi immunitet shakllanadi va ushbu immunitet 1-2 yil saqlanadi.

Patogenezi. RS – infeksiyasining patogenezida quyidagi bosqichlar qayd etiladi:

- RS – infeksiyasi virusining epitelial hujayralarga kirishi;
- Nafas yo‘llaridagi epiteliy hujayralarning RS – virusi ta’sirida yemirilishi (destruktsiya, deskvomatsiya, nekrotik yemirilish);
- Virusemiya, toksenemiya;
- Virus bakterial assotsiatsiyasi oqibatida o‘pka jarohatlanishi (asoratlar shakllanishi);
- RS – infeksiyaga qarshi antitelolar chiqishi.

RS – infeksiyasini qo‘zg‘atuvchi rinoviruslar burun kataklari va og‘iz bo‘shlig‘idan epiteliy hujayralar ichiga kirib olish xususiyatiga ega. RS – infeksiyasi virusi tashqi qobig‘idan lipidlar va antigenlar yordamida epitelial hujayralarga kiradi. Tarkibida RNK tutuvchi virus epiteliy hujayralar ichida informatsion RNKga aylanib ko‘paya boradi. Natijada epiteliy hujayralarida destruktiv, deskvomatik, nekrotik jarayon sodir bo‘ladi. Intensiv ravishda ko‘paygan viruslar bir-biriga yopishgan holatda bo‘ladi (sintsial yopishish). Yallig‘lanish jarayoni jarohatlangan epiteliylar osti to‘qimasiga o‘tadi, qon tomirlar jarohatlanadi. To‘qimalarda shish (otek), seroz suyuqlik chiqa boshlaydi.

Patogenezning keyingi bosqichida virusemiya, toksonomiya holati vujudga keladi. Yemirilgan epiteliy hujayrasi toksik xususiyatga ega. Patogenezning keyingi bosqichida burun kataklari va nafas yo‘llaridagi jarohatlangan epiteliylar osti to‘qimaga bakteriyalar va viruslar kirib olish qobiliyatiga ega. Ayniqsa chaqaloqlar va yosh bolalar bronxlarida bronxiolalarda va o‘pkada virus-bakterial jarohatlanish kuzatiladi. Bemorlarda virus-bakterial jarohatlanishi natijasida, ayniqsa bemor bolalarda asoratlar shakllanadi (bronxit, bronxiolit, pnevmoniya, nefrit va h.k.). Kasallikning 5-7 kunlari bemor bolalarda RS-infeksiyasiga qarshi maxsus antitelolar chiqadi.

RS – infeksiyasining klinikasi. Inkubatsion davr 3 kundan 7 kungacha davom etadi, o‘rtacha 5 kun. Kasallik sekin-asta boshlanadi. RS – infeksiyasida bir vaqtning o‘zida yuqori nafas yo‘llari va quyi nafas yo‘llari jarohatlanadi. Bemor bolalarda tumov alomati kuzatiladi, burundan avval seroz suyuqlik, keyinchalik seroz-shilimshiq suyuqlik chiqa boshlaydi. Bemorlarda yo‘tal, tovush bo‘g‘ilishi, nafas olishning biroz qiyinlashishi kuzatiladi. Krupp holati kuzatilmaydi. Bemorlarda holsizlik, darmonsizlik, ishtahaning pasayishi kuzatiladi.

Bemorlarda isitma normal yoki subfebril bo'ladi. Ayrim bemorlarda asoratlarni kuzatilsa, isitma 38°S gacha ko'tarilishi mumkin.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda quyi nafas yo'llarining yallig'lanishi 30% - 70% holatda shakllanadi. Ushbu bolalarda ikki taraflama bronxit, bronxeolit, pnevmoniya qayd etiladi. Bir yoshdan katta bolalarda esa quyi nafas yo'lining yallig'lanishi kamroq bo'ladi.

Chaqaloqlarda va 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda bronxiolit og'ir o'tadi. Bolalar nafas olishi qiyinlashadi. Ayniqsa, nafas chiqarishda bola bezovta bo'ladi. Bemor bolalarda, ayniqsa kechasi astma belgisi kuzatiladi.

Bemor bolalarning yuzi qizargan, burun kataklarida shish (otek), burun va lab sohalari ko'kargan. Og'iz bo'shlig'ida qizarish, shish alomatlari kuzatiladi. Og'ir bemor bolalar terisi marmar ko'rinishida bo'ladi. Jag' osti, bo'yin limfa tugunlari biroz shishgan. Bola pulsi tezlashgan, yurak tonlari bo'g'iq, og'ir bemor bolalarda sistolik shovqin eshitiladi. O'pkada auskultativ tekshiruvda ho'l xirillash, abstruksiya alomatlari kuzatiladi. Bolalarda emfizema holati qayd etiladi. Oshqozon ichak traktida aydarlik o'zgarishlar kuzatilmaydi. Bemor bolalarda ishtaha pasayishi, yo'talganda qusish qayd etiladi. Jigar va qora taloq kattalashmaydi.

Xazm qilishning pasayishi natijasida ichaklarda havo ko'payadi.

Bemor bolalarda buyrak faoliyati buzilmaydi, RS – infeksiyasi og'ir va asoratli kechganda siydik kamayishi mumkin. RS – infeksiyasining davomiyligi 3-6 kun. Shundan so'ng klinik belgilar yo'qoladi yoki kamayadi. Rentgenologik tekshiruvda bronxit, bronxeolit, pnevmoniya holati aniqlanadi. Pnevmoniya kichik o'choqli, segmentar, bronx-o'pka yallig'lanishi holatida kechadi. Pnevmoniya RS – infeksiyasida 25% – 30% bolalarda kuzatiladi.

Markaziy asab tizimida kuchsiz intoksikatsiya: holsizlik, darmonsizlik. Ishtahaning pasayishi, kattalarda bosh og'riq, bosh aylanish kuzatiladi. Meningeal belgilar kuzatilmaydi.

Laboratoriya tekshiruvlari. Umumiy qon tahlili: Qonda normatsitoz yoki leykotsitoz, neytrofilez eritrotsitlar cho'kish tezligining oshishi (SOE) kuzatiladi.

Ushbu ko'rsatkichlarning oshishi RS – infeksiyasi bilan kasallangan bemor bolalarda asoratlarni kuzatilayotganligi uchun xarakterlidir.

Umumiy peshob analizida: RS – infeksiyasida aydarlik jiddiy o'zgarishlar kuzatilmaydi. Og'ir va asoratli kechgan bemorlarda siydikda oqsil paydo bo'ladi, ya'ni siydikdaepiteliylar leykotsitlar oshishi mumkin, siydikda oqsil paydo bo'ladi.

Serologik uslublar. RS – infeksiyasini tasdiqlash maqsadida serologik uslublardan foydalanadi.

RS – infeksiyasiga qarshi antitelolarni aniqlash maqsadida komplement bog‘lash uslubi (RSK) va RPGA passiv gemaglyutinatsiya uslubidan foydalaniladi.

RPGA bajarish uchun eritrotsitar antigen diagnostikumi ishlatiladi. Bemor qonida maxsus RS – virusiga qarshi antitelolar aniqlanadi va ushbu antitelolar titri 2-4 marta oshishi mumkin.

RS – virusini burun kataklarida va og‘iz bo‘shlig‘ida aniqlash maqsadida immunoflyuorestsent uslubidan foydalaniladi.

Ushbu uslubni bajarish uchun flyuorestsent antitelolari ishlatiladi (diagnostikum), maxsus flyuorestsent mikroskoplar orqali viruslarni surtmalarda flyuorestsent yorig‘ligi bo‘lganda musbat hisoblanadi (ekspres-uslub hisoblanadi).

Davolash. RS – infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar uy sharoitida davolanadi. RS – infeksiyasi og‘ir va asoratli kechsa shifoxonada davolanish maqsadga muvofiq.

RS – infeksiyasi subklinik va yengil kechganda maxsus dori-darmonlar qo‘llash va davolash shart emas. Bemorlarga suyuqlik ichish, vitamanga boy ovqatlar berish maqsadga muvofiq. Yengil kechayotgan bemorlarda tumov alomati va yo‘tal kuzatilsa, virusga qarshi preparatlar: atsiklovir, aflubin preparatlari tavsiya qilinadi. Ushbu preparatlarni bemor vazniga qarab 2-3 mahal ichish maqsadga muvofiq.

Bemor bolalar 1 yoshdan katta bo‘lsa vitaminlar: pikovit, vitrum, askorbin kislotasi, vitamin “A”, Aievit vitaminlar 10-15 kun mobaynida beriladi. Bemorlar burnidan suvli-seroz suyuqlik oqa boshlasa burunning bitishi kuzatilsa, burun kataklariga oksalin mazi 2 mahal 4-5 kun. Burun kataklariga naftizin, nazoferon, rinazolin, glazolin, protargol tomchilarini 1-2 tomchi x 2-3 mahal 5 kun mobaynida berish maqsadga muvofiq.

RS – infeksiyasi o‘rta og‘ir kechishida bemorlarga ko‘p suyuqlik ichish tavsiya qilinadi (mineral suv, namatak damlamasi, limonli choy va boshqalar).

Vitamanga boy suyuq ovqatlar, tovuq go‘shli qaynatma, mol go‘shli qaynatma, sholg‘om qo‘shilgan suyuq sho‘rvalar beriladi.

Bemorlarga simptomatik dori-darmonlar isitma, intoksikatsiya belgilariga qarab beriladi.

Bolalarga antigrippin 1/2 tab x 3 mahal 5 kun.

Askorutin 1/2 tab x 3 mahal 5 kun.

Imudon kattalarga 1 tab x 3 mahal 5 kun, bolalarga 1/2 tab x 3 mahal 5 kun til ostiga shimish tavsiya etiladi.

Bemor bolalarda allergiya alomatlari va obstruktiv bronxit alomatlari kuzatilsa, diazolin, zodak, fenistil preparatlari bemor vazniga qarab 2 mahal 3-5 kun mobaynida beriladi.

RS – infeksiyasi bilan kasallangan yengil, o‘rta og‘ir va og‘ir shakldagi bemorlarga virusga qarshi preparatlar tavsiya qilinadi.

Bemorlarga atsiklovir, aflubin, leykotsitar interferon preparatlari tavsiya qilinadi.

Atsiklovir 200 preparatini bolalarga 2-3 mahal 5 kun mobaynida ichish tavsiya qilinadi. Kattalarga atsiklovir 400 preparati 1 tab 2 mahal 5 kun mobaynida ichishga beriladi. Aflubin bolalarga 5-8 tomchidan 3 mahal, kattalarga 15-20 tomchidan 3 mahal 5 kun mobaynida ichishga beriladi.

RS – infeksiyasida virusga qarshi preparatlar viruslarning o‘shish qobiliyatini kamaytiradi, yallig‘lanish jarayonining oldini oladi, bemor immunitetini ko‘taradi.

RS – infeksiyasining og‘ir va asoratli kechishini davolash kompleks ravishda olib boriladi. Bemor bolalar shifoxonada davolanadi. Bemor bolalarni virus-bakterial asoratlarning oldini olish maqsadida antibiotiklar bilan davolash maqsadga muvofiq (tseftriakson, sefotoksin sefod, rotsefin, PEO, penitsillin guruhi, merkatsin va boshqa antibiotiklar).

Qiyosiy tashxisot: Koronavirus Covid-19 infeksiyasi. Koronavirus Covid-19 infeksiyasi juda tez tarqalish xususiyatiga ega bo‘lgan, yuqori isitma, respirator belgilari bilan kechadigan yuqumli kasallikdir. Koronavirus Covid-19 infeksiyasi o‘tkir boshlanadi, bemorlarda yuqori isitma, respirator belgilar: yo‘tal, aksirish, burun va og‘iz bo‘shlig‘ining yallig‘lanishi, mushaklarda, belda og‘riq, titrash, og‘izda maza bilmaslik, hid bilish qobiliyatining yo‘qolishi alomatlari paydo bo‘ladi. Yoshi ulug‘ va 65 yoshdan katta bemorlarda kasallik og‘ir o‘tishi, pnevmaniya asoratlarning tez va shiddatli paydo bo‘lishi bilan muhim qiyosiy diagnostik ahamiyatga ega.

RS – infeksiyasini respirator virusli infeksiyalari (O‘RVI) bilan qiyosiy tashxislash maqsadga muvofiq. Qiyosiy tashxis gripp, paragripp, adenovirus infeksiyasi, rinovirus infeksiyalari bilan qilinadi.

Rinovirus infeksiyasi. Rinovirus infeksiyasida asosiy klinik belgilar tumov, yo‘tal, hid bilish qobiliyatining pasayishi kuzatiladi. Ushbu klinik belgilar

xastalikning birinchi kunidan boshlab kuzatiladi. Bemorlarda kardinal simptom rinoreya – burundan tez-tez suv ketishi. Isitma, intoksikatsiya deyarli bo‘lmaydi.

Allergik tumovda – qo‘zg‘atuvchi virus bo‘lmaydi. RS – infeksiyasiga juda o‘xshab ketadi. Allergik tumov mavsumiy kasallik bo‘lib, asosan turli allergenlar ta’sirida sodir bo‘ladi. Ko‘pincha bahor gullari, terak guli (pux), parrandalar pati, hayvonlar yungi, gilam changi, o‘tkir hidli garimdori va boshqalar allergik xususiyatga ega. Allergik tumovda isitma, intoksikatsiya belgilari kuzatilmaydi. Allergik tumovda bemorlarda uzoq muddatda aksirish, burun kataklari, og‘iz shilliq qavatida qichishish, burun hid bilish qobiliyatining yo‘qolishi kabi klinik belgilar kuzatiladi. Mavsum o‘tishi va allergik omillar yo‘qotilishi natijasida allergik tumov alomatlari yo‘qoladi.

Gripp va paragripp xastaligida yuqori isitma, intoksikatsiya, nafas yo‘llarida yallig‘lanish alomatlari kasallikning birinchi kunidan namoyon bo‘ladi. Gripp va paragripp xastaligida laringit, bronxit, traxeit, glossit va pnevmoniya alomatlari kuzatiladi. Gripp infeksiyasi keng tarqalish xususiyatiga ega. Ayrim hollarda epidemiya va pandemiya tarzida tarqalishi kuzatiladi. Paragrippda laringit, soxta krupp, obstruktiv bronxit alomatlari kuzatiladi.

Adenovirus infeksiyasi. Adenovirus infeksiyasida kasallik sekin asta boshlanadi. Isitma va intoksikatsiya belgilari kundun-kun ko‘paya boradi. Isitma kasallikning birinchi kunlari 37°S , keyinchalik 37.8°S va avj olgan davrida 38°S va undan ortiq ko‘tariladi. Bemorlarda ko‘z shilliq pardasi yallig‘lanishi (kon’yunktivit, keratokon’yunktivit) limfa tugunlarning yallig‘lanishi, nafas yo‘llarida yallig‘lanish (traxeit, bronxit, bronxeolit, pnevmoniya) kuzatiladi. Oshqozon-ichak tizimida ham o‘zgarishlar kuzatiladi. Bemorlarda hepatomegaliya, splenomegaliya, mezadenit yallig‘lanishi kuzatiladi. Adenovirus infeksiyasida jarohatlanish barcha organ va tizimlarda kuzatiladi. Ushbu infeksiya 12-17 kun davom etadi. RS – infeksiyasi rinovirus xastaligi, reovirus YeSNO – (tip 10), pnevmokokk pnevmoniyasi xastaliklari bilan qiyosiy tashxis qilinadi.

Profilaktikasi. RS – infeksiyasining profilaktikasi boshqa o‘tkir respirator virusli infeksiyalardan farq qilmaydi. Bemorlar uyda davolanadi va alohidalanadi. Uyda bemorlar alohida xonaga yotqiziladi. Bemor yotgan xona kuniga 2-3 marta dezinfeksiya moddalari bilan tozalanib turiladi. Bemorlar oila a’zolari gigiyenik himoya niqoblari taqib yuradi. Bemorlarning idish-tovoqlari alohida bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bemor qo‘llari bir marta ishlatiladigan gigiyenik salfetkalar bilan tozalanishi maqsadga muvofiq.

Bolalar muassasalari va maktablarda isitmasi chiqqan bemorlar kuzatilsa, kasallar izolyatorga yotqizilib, birinchi yordam ko'rsatiladi, so'ng oilaviy shifokorga va hududiy sanitariya-epidemiologiya markaziga xabar beriladi. Bemorlar qayd etilgan bolalar bog'chalari va maktablar xonalari dezinfeksiya moddalari bilan tozalanadi. Bog'cha tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari va sog'lom bolalar qo'llarini tez-tez sovunlab yuviladi va dezinfeksiya moddalari bilan tozalanadi. Bemor bolalar 7 kun ichida uyda davolanadi.

REOVIRUS INFEKSIYASI (ESNO – 10t)

Reovirus infeksiyasi (ESNO – 10t) o'tkir respirator virusli infeksiyalar guruhiga mansub bo'lib, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi, intoksikatsiya, kuchli bo'lmagan isitma kabi klinik belgilar bilan kechadigan kasallik.

Etiologiyasi. Reovirus YeSNO-10t. 1959 yilda virusolog Seybin tomonidan kashf etilgan. Reovirus YeSNO-10t juda kichik o'lchamga ega (70-80 nm). Tarkibida RNK (ribonuklein kislotasi) tutadi. Tashqi qobig'ida lipid va gemagglyutinin antigeniga ega. viruslar tashqi muhitga ancha chidamli, past haroratda, namgarchilikda uzoq muddat saqlanib turadi (8-10 kun). Yuqori haroratda (600 va undan yuqori) tez nobud bo'ladi. Dezinfeksiya moddalariga (1% xloramin, xlor ishqori) chidamsiz. Hozirgi kunda reovirus YeSNO-10t 3 ta antigen tiplari mavjud. YeSNO-10t virusi epiteliotrop xarakterga ega bo'lib, yuqori nafas yo'llaridagi epiteliyal hujayralarni jarohatlash xususiyatiga ega. Epiteliy hujayralariga kirishni ta'minlaydigan omil viruslarning tashqi qobig'idagi lipidlar, hamda gemagglyutinatsiya qobiliyatiga ega antigenlar hisoblanadi. YeSNO-10t virusi epiteliy hujayralarining sitoplazmasi, endoplazmatik to'ri, metoxondriyalarini jarohatlaydi. Virus RNK si epiteliy hujayralar yadrosining o'z tarkibiy qismlarini ishlab chiqarishini vujudga keltiradi. Jarohatlangan epiteliy hujayralari keyinchalik destruktiv, deskvomatik, nekrotik jarayonlarni keltirib chiqaradi.

Epidemiologiyasi. Reovirus YeSNO-10t infeksiyasi bemorlar va virus tashuvchilardan sog'lom odamga havo-tomchi va fekal-oral yo'li bilan yuqadi.

Kasallik qo'zg'atuvchisining manbai: YeSNO-10t infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar va virus tashuvchilar hisoblanadi. Bemor yo'talganda, aksirganda burun suyuqligi, so'lak tarkibidagi viruslarni tashqi muhitga chiqaradi. YeSNO-10t virusi bemor axlatida ham uchraydi. Shu tufayli kasallik iflos ko'llar orqali sog'lomlarga yuqishi mumkin. Bemorlar aksirganda va

yoʻtalganda chiqqan viruslar 1-2 metr masofada boʻlgan sogʻlom odamlarga yuqishi mumkin.

Yuqish yoʻllari. YeSNO-10t infeksiyasi 2 xil yoʻl bilan yuqadi.

1. Havo-tomchi yoʻli.
2. Fekal-oral yoʻli.

Bemorlar kasallikning avj olgan davrida atrofdagilar uchun xavf tugʻdiradi. Bemorlar kasallikning 3-6 kunlari mobaynida viruslarni tashqi muhitga chiqarib turadi. Shuni taʼkidlash kerakki, YeSNO-10t bilan kasallangan bemorlar axlati bilan viruslarning koʻp miqdori tashqi muhitga chiqib turishi aniqlangan. Shu tufayli YeSNO-10t infeksiyasi fekal-oral yoʻl bilan yuqishi isbotlangan.

Kasallikka boʻlgan moyillik. Ushbu kasallikka boʻlgan moyillik yuqori. Bir yoshgacha boʻlgan chaqaloqlar, yosh bolalar koʻproq kasallanadi. Kattalarda kasallik yengil, subklinik holatda kechadi. YeSNO-10t infeksiyasi mavsumiylikka ega. Kasallik kuz, qish va bahorda koʻproq uchraydi. YeSNO-10t infeksiyasini boshidan oʻtkazgan bemorlarda virusga qarshi immunitet shakllanadi va maxsus antitelolar 1-2 yil saqlanib turadi.

Patogenezi. YeSNO-10t infeksiyasida quyidagi patogenez bosqichlari qayd etiladi:

1. YeSNO-10t viruslarning epitelial hujayraga kirishi.
2. Nafas yoʻllaridagi epiteliy hujayralarining jarohatlanishi (destruktsiya, degeneratsiya, nekroz).
3. Virusemiya, toksenemiya.
4. Virus-bakterial assotsiatsiya asoratlar shakllanishi.
5. YeSNO-10t infeksiyasiga qarshi maxsus antitelolar chiqishi.

1-bosqichda. YeSNO-10t virusi nafas yoʻllaridagi epitelial hujayraning ichiga kirib olish xususiyatiga ega. Virus qobigʻidagi lipidlar va gemaglyutinatsiya xususiyatiga ega antigenlar yordamida nafas yoʻlidagi epiteliy hujayralar membranalarini teshib sitoplazmaga kiradi. YeSNO-10t virusi epiteliy hujayralari tarkibidan sitoplazma, endoplazma toʻri, mitoxondriyalarni jarohatlaydi. Soʻng informatsion RNKga aylanib juda tez koʻpaya boradi. Natijada jarohatlangan epiteliyalarda destruktsiya, degradatsiya va nekroz holati kuzatiladi.

2-bosqichda. YeSNO-10t virusi va jarohatlangan va nekrozga uchragan epiteliy hujayralarning boʻlaklari toksik xususiyatga ega boʻlib, bemor qon tarkibiga oʻtadi va virusemiya, toksenemiya jarayoni kuzatiladi. Bemorlarda isitma chiqishi va intoksikatsiya belgilari kuzatiladi.

3-bosqichda. Jarohatlangan va nekrozga uchragan epiteliy hujayralari ostidagi to'qimada yallig'lanish, qon-tomirlar o'tkazuvchanligining oshishi kuzatiladi. Yallig'langan to'qimaga endogen bakteriyalarning kirib olishi va ko'payishini ta'minlaydi. Virus – bakterial patogenetik jarayon sodir bo'ladi. To'qimalarda yallig'lanish oqibatida asoratlar shakllanadi (bronxit, traxeobronxit, laringit, pnevmoniya). Virus – bakterial assotsiatsiyasi natijasida asoratlar shakllanadi. Patogenezning keyingi bosqichida kasallikning 5-7 kunlari bemorlar qonida YeSNO-10t infeksiyasiga qarshi maxsus (spetsifik) antitelolar titri 2-4 barobar ko'payadi.

YeSNO-10t infeksiyasi klinikasi. Inkubatsion davr 1-3 kun. Ayrim holda 7 kungacha davom etishi mumkin. Kasallik o'tkir boshlanadi. 65% - kasallik nafas yo'lining yallig'lanishi, 35% esa bir vaqtning o'zida nafas yo'lining yallig'lanishi va ich ketish alomatlari kuzatiladi. Kasallik o'tkir boshlanadi. Bemorlarda aksirish, yo'tal, holsizlik, darmonsizlik, tomoq og'rig'i alomatlari kuzatiladi. Bemor isitmasi subfibril 37°C - 37.5°C ko'tariladi. Ayrim bemorlarda isitma ko'tarilmaydi. Bemorlarda oshqozon ichak tizimi jarohatlansa ko'ngil aynash, qusish, tez-tez ich ketishi kuzatiladi. Axlat suyuq, ko'kargan, hidli bo'ladi. Ushbu holatda isitma 38°C gacha ko'tariladi. Bemorlarda ko'z shilliq qavatining yallig'lanishi (kon'yunktivit) kuzatiladi. Bemorlarda jigar kattalashadi, qorinda gaz yig'iladi, og'riq butun qorin bo'shlig'ida kuzatiladi.

Obyektiv ko'rinish: Bemorlarning yuzi qizargan, burun kataklarida yallig'lanish, shish (otek), burun va lab sohalari ko'kargan (tsianoza). Og'iz shilliq qavatida yallig'lanish, qizargan (giperemiya). Bo'yin va jag' osti limfa tugunlari biroz shishgan (limfadenit). Bemorlar pulsi tezlashgan, yurak tonlari bo'g'iq tovush, auskultativ dag'al nafas olish eshitiladi. Bemor o'pkasida dag'al nafas olish, og'ir bemorlarda quruq xirillash kuzatiladi. Bir vaqtning o'zida bemorlarda nafas yo'llarida va oshqozon ichak tizimida yallig'lanish kuzatiladi. Bemorlarda ishtahaning pasayishi, ko'ngil aynash, qusish, qorin sohada og'riq, ich ketish kuzatiladi. Bemor qornida gaz yig'iladi, ich ketish tez-tez kuzatiladi. Ich suyuq, hidli, ayrim holda esa shilimshiqli ich ketish kuzatiladi. Bemorlarda buyrak funksiyasi deyarli buzilmaydi. Ammo tez-tez ich ketishi natijasida bemor siydigi kamayishi kuzatiladi.

Markaziy asab tizimida aytarliq o'zgarishlar kuzatilmaydi. Og'ir bemorlarda holsizlik, darmonsizlik ishtahaning pasayishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi kuzatiladi. Meningeal, enetsefalitik o'zgarishlar kuzatilmaydi.

Laboratoriya tekshiruvlari. Umumiy qon tahlili: periferik qonda normatsitoz yoki sust leykotsitoz, neytrofilez, eritrotsitlar choʻkish tezligining oshishi (SOE) kuzatiladi. YeSNO-10t infeksiyasining ogʻir va asoratli kechishida periferik qonda oʻzgarishlar kuchli namoyon boʻladi (leykotsitoz, neytrofilez monotsitoz, eozinofilez, SOEning oshishi).

Umumiy peshob analizi: YeSNO-10t infeksiyasida siydik analizida aytarliq oʻzgarishlar kuzatilmaydi. Bemorlarda tez-tez ich ketishi kuzatilganda siydik tarkibida oqsil paydo boʻladi. Yassi epiteliylar soni oshadi, leykotsitlar soni ham oshadi. Bemor axlatida oʻzgarishlar kuzatiladi. Axlatda leykotsitlar oshadi, eritrotsitlar paydo boʻladi.

Serologik uslublar: YeSNO-10t infeksiyasini tasdiqlash maqsadida serologik uslublardan foydalaniladi. YeSNO-10t infeksiyasiga qarshi antitelolarni aniqlash maqsadida serologik uslublardan foydalaniladi.

1. Komplement bogʻlash uslubi (RSK)
2. Passiv gemagglutinatsiya uslubi (RPGA).

Komplement bogʻlovchi serologik usulni bajarish uchun maxsus antigenlar yoki antitelolar va komplement ishlatiladi.

RPGA bajarish uchun eritrotsitar YeSNO-10t antigen diagnostikumi ishlatiladi. Bemor qonida maxsus YeSNO-10t virusiga qarshi antitelolar aniqlanadi va ushbu antitelolar titri 2-4 marta oshishi xastalik borligidan darak beradi. YeSNO-10t virusini burun kataklaridan, ogʻiz boʻshligʻidan va bemor axlatidan aniqlash maqsadida immunoflyuorestsent uslubidan foydalaniladi. Ushbu uslub ekspress uslub hisoblanadi. Ushbu uslubni bajarish uchun flyuorestsent YeSNO-10t antitelolaridan foydalaniladi, hamda flyurostsent mikroskoplar qoʻllaniladi.

Agar surtmalarda YeSNO-10t viruslari mavjud boʻlsa, flyurostsent mikroskoplarda yorugʻlik paydo boʻladi va sinama musbat hisoblanadi.

Davolash. YeSNO-10t infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar uy sharoitida davolanadi. Xastalik ogʻir va asoratli kechgan taqdirda bemorlar shifoxonalarda davolanadi. YeSNO-10t infeksiyasi subklinik va yengil kechganda davolash maqsadida maxsus dori-darmonlar qoʻllash shart emas. Bemorlarga koʻp suyuqlik ichish, vitamanga boy suyuq ovqatlar berish maqsadga muvofiq. Yengil kechayotgan bemorlarda tumov alomatlari va yoʻtal, aksirish kuzatilsa virusga qarshi preparatlar qoʻllaniladi.

Virusga qarshi preparatlar: atsiklovir, aflubin bemor vazniga, yoshiga qarab 2-3 mahal 5 kun mobaynida beriladi. Bemorlarga kompleks vitaminlar

(polivitaminlar) vitrum, pikovit, komplevit, revit, undevit, geksavit 10-15 kun mobaynida beriladi. Bemorlar burnidan suvli-seroz suyuqlik oqa boshlasa, burun bitishi kuzatilsa burun kataklariga oksalin mazi 2 mahal 4-5 kun surtiladi. Bemorlarning burun kataklariga naftizin, nazaferon, rinozalin, glazolin, protargol tomchilari 1-2 tomchidan 2-3 mahal 3-5 kun mobaynida tomizish maqsadga muvofiq. YeSNO-10t infeksiyasi o'rta og'ir kechganda ko'p suyuqlik ichish tavsiya qilinadi (mineral suv, namatak dimlamasi, limonli choy va boshqa suyuqliklar). Vitaminga boy suyuq ovqatlar, tovuq go'shtli qaynatma, bulonlar, mol go'shtli qaynatma, sholg'om qo'shilgan suyuq sho'rvalar tavsiya qilinadi.

O'rta og'irlikda kechgan bemorlarga etiotrop, simptomatik dori-darmonlar isitma ko'rsatkichi, intoksikatsiya belgilariga qarab tavsiya qilinadi. Bemorlarga virusga qarshi preparatlar atsiklovir, aflubin preparatlari yoshiga, vazniga qarab 2-3 mahal 5 kun mobaynida beriladi. Bemorlarga antigrippin 1 tab x 3 mahal 3 kun, askorutin 1 tab x 3 mahal 5 kun, imudon (septolet) 1 tab x 3 mahal 5 kun til tagiga shimiladi. Bemorlarda allergik alomatlar kuzatilsa, diazolin, zodak, fenistil preparatlar kuniga 2 mahal 3-5 kun bemor vazniga va yoshiga qarab beriladi. Bemor burni bitib qolganda, tumov alomati kuzatilsa, burun kataklariga nazaferon, nazifin, glazolin, rinazolin preparatlarni kuniga 2-3 marta 2 tomchidan beriladi. YeSNO-10t infeksiyasi asoratli kechganda antibiotiklar qo'llaniladi. Asoratlarning oldini olish maqsadida keng ko'lamda qo'llaniladigan antibiotiklar (tseftriakson, sefotoksin, sefod, rotsefin PEO, penitsillin guruhiga mansub antibiotiklar va boshqa antibiotiklar) beriladi. Bemorlarda ich ketish alomati kuzatilsa, regidron, ORSA, smekta, furazolidon, ertsefuril, stop-diar, lakto "G" va boshqa preparatlar beriladi. Suv, tuz yetishmasligida ringer 200,0, atsesol 200,0, disol 200,0, reosorbilat 200,0 suyuqliklari tomir ichiga yuboriladi. Bemorlarda ko'z shilliq pardasi yallig'lansa, ko'z tomchilari tomiziladi. YeSNO-10t infeksiyasi og'ir va asoratli kechsa bemorlar shifoxonalarda davolanishi maqsadga muvofiq.

Qiyosiy tashxisot: Koronavirus Covid-19 infeksiyasi juda tez tarqalish xususiyatiga ega bo'lgan, yuqori isitma, respirator belgilari bilan kechadigan yuqumli kasallikdir. Koronavirus Covid-19 infeksiyasi o'tkir boshlanadi, bemorlarda yuqori isitma, tumov belgilari: yo'tal, aksirish, burun va og'iz bo'shlig'ining yallig'lanishi, mushaklarda, belda og'riq, titrash, og'izda maza bilmaslik, hid bilish qobiliyatining yo'qolishi alomatlari paydo bo'ladi. Yoshi ulug' va 65 yoshdan katta bemorlarda kasallik og'ir o'tishi pnevmaniya asoratlarning tez va shiddatli paydo bo'lishi bilan muhim qiyosiy diagnostik

ahamiyatga ega. YeSNO-10t infeksiyasini o'tkir respirator virusli infeksiyalar (O'RVI) bilan qiyosiy tashxis qo'yish maqsadga muvofiq. Qiyosiy tashxisda gripp, paragripp, adenovirus infeksiyasi, rinovirus infeksiyalari bilan taqqoslanadi.

Rinovirus infeksiyasi. Rinovirus infeksiyasida asosiy klinik belgilar rinoreya (tumov), hid bilish qobiliyatining pasayishi, yo'tal, aksirish kuzatiladi. Ushbu klinik belgilar xastalikning birinchi kunidan boshlab kuzatiladi. Rinovirus infeksiyasining asosiy belgilari burundan tez-tez seroz suyuqligi chiqib turishi. Isitma va intoksikatsiya deyarli bo'lmaydi.

Gripp va paragripp infeksiyalarida yuqori isitma, intoksikatsiya, nafas yo'lida yallig'lanish alomatlari kasallikning birinchi kunidan boshlab namoyon bo'ladi. Gripp va paragripp xastaliklarida laringit, bronxit, traxeit, glassit va pnevmoniya alomatlari kuzatiladi. Gripp epidemiyasi shaklda keng tarqalish xususiyatiga ega. Ayrim yillarda gripp epidemiyasi hattoki pandemiya tarzida o'tishi mumkin. Paragrippda keng tarqalish bo'lmaydi. Ushbu kasallikda laringit, soxta krupp, glassit, traxeobronxit yallig'lanishlari kuzatiladi.

Adenovirus infeksiyasi. Adenovirus infeksiyasida kasallik sekin-asta boshlanadi. Isitma va intoksikatsiya belgilari kundan-kunga ko'paya boradi. Isitma kasallikning birinchi kunlari 37°C , keyinchalik $37^{\circ}\text{C} - 37.8^{\circ}\text{C}$, avj olgan davrida 38°C va undan ortiq ko'tariladi. Bemorlarda ko'z shilliq pardasining yallig'lanishi (kon'yunktivit, keratokon'yunktivit), limfa tugunlarning biroz kattalashishi, nafas yo'lida yallig'lanish (traxeit, bronxit, bronxeolit, pnevmoniya) kuzatiladi. Bir vaqtning o'zida oshqozon-ichak tizimining yallig'lanishi, bemorlarda gepatomegaliya, splenomegaliya, mezadenit yallig'lanish kuzatiladi. Adenovirus infeksiyasida jarohatlanish barcha organ va tizimlarda kuzatiladi. Kasallik davomiyligi 12-17 kun. YeSNO-10t infeksiyasini o'tkir diareya, alimantar diareya, disbakterioz, rotovirus infeksiyalari bilan qiyosiy tashxis qilinadi.

Profilaktikasi. YeSNO-10t infeksiyalarning profilaktikasi boshqa o'tkir respirator virusli infeksiyalarda qo'llaniladigan chora-tadbirlardan farq qilmaydi. Bemorlar uy sharoitida davolanadi. Bemorlar uyda alohida xonalarga alohidalanadi. Bemor yotgan xona kuniga 2-3 marta dezinfeksiya moddalari bilan tozalanadi. Bemor oila a'zolari gigiyenik himoya niqoblari taqib olishlari shart. Bemorlar ishlatadigan idish-tovoqlar va sochiqlar alohida bo'lishi maqsadga muvofiq. Bolalar muassasalari va maktablarda issig'i chiqqan bemor bolalar kuzatilsa, izolyatsiyaga yotqizilib birinchi yordam ko'rsatiladi, so'ng oilaviy shifokorga va hududiy sanitariya-epidemiologiya markaziga xabar beriladi.

Bemor bolalar va o‘quvchilar qayd etilgan holda bog‘chadagi bolalar xonalari, maktab sinflari dezinfeksiya moddalari bilan 2 mahal tozalanib turiladi. Sog‘lom bolalar va maktab o‘quvchilari, tarbiyachilar, o‘qituvchilar himoya niqoblari taqishlari lozim, qo‘llar tez-tez sovunlab yuviladi. Bemorlar 7 kun ichida uydan tashqariga chiqmasdan davolanadi. Klinik belgilar kuzatilmasa, tashqariga chiqishga ruxsat beriladi.

QISQARTIRILGAN SO‘ZLAR

BJSST	Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti
GEB	Gematoentsefal barer
NE	Nafas yetishmasligi
O‘E	O‘pka yetishmasligi
SO‘V	Sun‘iy o‘pka ventilyatsiyasi
IFN	Interferon
XXR	Xitoy xalq respublikasi
MT	Medsina tashkiloti
O‘NE	O‘tkir nafas yetishmasligi
O‘XI	O‘ta xavfli infeksiya
O‘RVI	O‘tkir respirator virusli infeksiya
O‘RI	O‘tkir respirator infeksiya
O‘RDS	O‘tkir respirator distress-sindrom
O‘RIT	O‘tkir reanimatsion intensiv terapiya
PZR	Polimeraza zanjirli reaksiya
RNK	Ribonuklein kislotasi
RSV	Respirator-sintsial virus
SRO	S – reaktiv oqsil
SK	Septik karaxtlik
OO‘RI	Og‘ir o‘tkir respirator infeksiya
TORS	Og‘ir o‘tkir respirator sindrom
EKG	Elektrokardiografiya
EKMA	Elektrokardiogramma
Covid-19	SARS-COV-2 koronavirus chaqirgan yangi infeksiya
MERS	Kichik osiyo respirator sindromi
MERS-COV	Kichik osiyoda tarqalgan koronavirus infeksiyasi
SARS-COV	Koronavirus chaqirgan og‘ir respirator sindrom
SEOA	Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi agentligi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.X. Zokirxodjaev “Bolalar yuqumli kasalliklari”, Toshkent 2013. 622- bet.
2. S.D. Nosov “Bolalar yuqumli kasalliklari” Moskva 1974. 416-bet.
3. Covid-19 pandemiya davrida cheklash tadbirlarini qo‘llanishi sharoitida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risidagi vaqtinchalik sanitariya qoida va me‘yorlari 0.372-20 son SanQ va M. Toshkent – 2020-y. 31-bet.
4. Sergoventsev L.A. va mualliflar. Yangi koronavirus Covid-19 ning diagnostikasi, davolash, profilaktikasi (metodik qo‘llanma) Moskva – 2020-y. 48-bet.
5. Filds B. va mualliflar. Virusologiya 3-tom. 491-bet. Moskva “Mir” 1989-yil.
6. Yangi koronavirus Covid-19 infeksiyasining laboratoriya tashxisini tashkil qilish (metodik qo‘llanma) – 2020-yil №161/7/629. Moskva 24-yanvar.
7. Yangi koronavirus Covid-19 ning tashxisi, davolash va profilaktikasi. Vaqtincha metodik qo‘llanma 5-versiya. 2.04.2020-yil Moskva.
8. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) koronavirus Covid-19 ga shubha qilingan og‘ir respirator infeksiyalarini davolash mezonlari (BVSS - (SOV) Vaqtincha qo‘llanma, iyul 2020-yil.
9. Yangi koronavirus Covid-19 infeksiyasini nurlar bilan tekshirishni (diagnostika), tashkillashtirish, metodologiya va interpretatsiyasi №SDT–2020y. (S.P.Morozov, D.N.Protsenko, S.V.Smetanina va boshqalar) 2020-yil, Moskva, 60-bet.
10. Rossiya Federatsiyasi Qurolli kuchlar qo‘shinlariga yangi koronavirus Covid-19 kirib kelishi, tarqalishi, oldini olish tadbirlari (Rossiya Federatsiyasi Mudofaa Vazirligi tomonidan tasdiqlangan) 17-mart 2020-yil.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiy tarmoqlarga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2020-yil 19-mart, PF5969-sonli.
12. Al-Tawfiq J.A., Memish Z.A. Update on therapeutic options for Middle East Respiratory Syndrome Coronavirus (MERS-CoV) // Expert review of anti-infective therapy. 2017. 15. № 3. C. 269-275.
13. Assiri A. et al. Middle East respiratory syndrome coronavirus infection during pregnancy: a report of 5 cases from Saudi Arabia // Clin Infect Dis. 2016. № 63. pp. 951-953.

14. Alserehi H. et al. Impact of Middle East respiratory syndrome coronavirus (MERS-CoV) on pregnancy and perinatal outcome // BMC Infect Dis. 2016. № 16, p.105.
15. Bassetti M. The Novel Chinese Coronavirus (2019-nCoV) Infections: challenges for fighting the storm <https://doi.org/10.1111/eci.13209> URL: <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/eci.13209>
16. Behzadi M.A., Leyva-Grado V.H. Overview of Current Therapeutics and Novel Candidates Against Influenza, Respiratory Syncytial Virus, and Middle East Respiratory Syndrome Coronavirus Infections // Frontiers in microbiology. 2019. № 10. p. 1327.
17. Blaising J. et al. Arbidol as a broad-spectrum antiviral: An update. Antiviral Res. 2014;107:84-94. doi:10.1016/j.antiviral.2014.04.006.
18. Canada.ca. 2019 novel coronavirus: Symptoms and treatment The official website of the Government of Canada URL: <https://www.canada.ca/en/public-health/services/diseases/2019-novel-coronavirus-infection/symptoms.html>
19. CDC. 2019 Novel Coronavirus URL: <https://www.cdc.gov/coronavirus/2019-ncov/index.html>
20. Chen N. et al. Epidemiological and clinical characteristics of 99 cases of 2019 novel coronavirus pneumonia in Wuhan, China: a descriptive study // Lancet. 2020. doi: 10.1016/S0140-6736(20)30211-7
21. Chong Y.P. et al. Antiviral Treatment Guidelines for Middle East Respiratory. Syndrome // Infection & chemotherapy. 2015.47.№3 pp. 212-222.
22. Cinatl J. et al. Treatment of SARS with human interferons // Lancet, 2003. 362. № 9380. pp. 293-294.
23. Clinical management of severe acute respiratory infection when Middle East respiratory syndrome coronavirus (MERS-CoV) infection is suspected: Interim Guidance. Updated 2 July 2015. WHO/MERS/Clinical/15.1
24. Commonwealth of Australia/Department of Health. Novel coronavirus (2019-nCoV) URL: <https://www.health.gov.au/health-topics/novel-coronavirus-2019-ncov>
25. Corman V.M. et al. Detection of 2019 novel coronavirus (2019-nCoV) by real-time RT-PCR //Eurosurveillance. – 2020. – T. 25. - № 3. – 25(3). doi: 10.2807/1560-7917.ES

26. Coronavirus.URL: <https://multimedia.scmp.com/widgets/china/wuhanvirus-/?fbclid=IwAR2hDHZpZEh5Nj360i2O%201ES78rXRFymAaFaUK6ZG4m0UTC V1xozulxX1jio>
27. Dayer M.R. et al. Lopinavir: A Potent Drug against Coronavirus Infection: Insight from Molecular Docking Study//Arch Clin Infect Dis. 2017; 12(4): e13823. doi: 10.5812/archcid.13823
28. Dyllal J. et al. Middle East Respiratory Syndrome and Severe Acute Respiratory Syndrome: Current Therapeutic Options and Potential Targets for Novel Therapies // Drugs. 2017. 77. № 18. C. 1935-1966.
29. European Commission. Novel coronavirus 2019-nCoV URL: https://ec.europa.eu/health/coronavirus_en
30. FDA. Novel coronavirus (2019-nCoV) URL: <https://www.fda.gov/emergency-preparedness-and-response/mcm-issues/novel-coronavirus-2019-ncov>
31. Federal Ministry of Health. Current information on the coronavirus URL: <https://www.bundesgesundheitsministerium.de/en/en/press/2020/coronavirus.htm>
32. Gorbalenya A. E. et al. Severe acute respiratory syndrome-related coronavirus: The species and its viruses – a statement of the Coronavirus Study Group, 2020. doi:<https://doi.org/10.1101/2020.02.07.937862>
33. Hart B.J. et al. Interferon- β and mycophenolic acid are potent inhibitors of Middle East respiratory syndrome coronavirus in cell-based assays // The Journal of general virology. 2014. 95. Pt 3. C. 571-577.
34. Huang C. et al. Clinical features of patients infected with 2019 novel coronavirus in Wuhan, China // Lancet. 2020 doi: 10.1016/S0140-6736(20)30183-5. [Epub ahead of print]
35. Ji W. et al. Homologous recombination within the spike glycoprotein of the newly identified coronavirus may boost cross-species transmission from snake to human // Journal of Medical Virology. – 2020.
36. Jeong S.Y. et al. MERS-CoV Infection in a Pregnant Woman in Korea. J Korean Med Sci. 2017 Oct;32(10):1717-1720. doi:10.3346/jkms.2017.32.10.1717.
37. Junqiang L. et al. CT Imaging of the 2019 Novel Coronavirus (2019-nCoV) Pneumonia <https://doi.org/10.1148/radiol.2020200236> URL: <https://pubs.rsna.org/doi/10.1148/radiol.2020200236>

38. Khamitov R.A. et al. Antiviral activity of arbidol and its derivatives against the pathogen of severe acute respiratory syndrome in the cell cultures. *VoprVirusol.* 2008;53:9-13.
39. Li Q et al. Early Transmission Dynamics in Wuhan, China, of Novel Coronavirus-Infected Pneumonia *N Engl J Med.* 2020 Jan 29. doi: 10.1056/NEJMoa2001316
40. Li X et al. Potential of large 'first generation human-to-human transmission of 2019-nCoV. *J Med Virol.* 2020 Jan 30. doi: 10.1002/jmv.25693. [Epub ahead of print]
41. Lu H Drug treatment options for the 2019-new coronavirus (2019-nCoV). *Biosci Trends.* 2020 Jan 28. doi: 10.5582/bst.2020.01020. [Epub ahead of print]
42. Mandell L.A. et al. Infectious Diseases Society of America/American Thoracic Society consensus guidelines on the management of community-acquired pneumonia in adults//*Clinical infectious diseases.* – 2007. – T.44. - №. Supplement_2.-pp. S27-S72.
43. Ministère des Solidarités et de la Santé Coronavirus: questions-réponses URL: <https://solidarites-sante.gouv.fr/soins-et-maladies/maladies/maladies-infectieuses/coronavirus/coronavirus-questions-reponses>
44. Mo Y., Fisher D.A. review of treatment modalities for Middle East Respiratory Syndrome // *The Journal of antimicrobial chemotherapy.* 2016. 71. № 12. pp.3340-3350.
45. Momattin H. et al. Therapeutic options for Middle East respiratory syndrome coronavirus (MERS-CoV) --possible lessons from a systematic review of SARS-CoV therapy. *Int J Infect Dis.* 2013 Oct;17(10):e792-8
46. National Health Commission of the Peoples Republic of China. URL: <http://en.nhc.gov.cn>
47. NHS. Coronavirus (2019-nCoV) URL: <https://www.nhs.uk/conditions/wuhan-novel-coronavirus/>
48. Omrani A.S. et al. Ribavirin and interferon alfa-2a for severe Middle East respiratory syndrome coronavirus infection: a retrospective cohort study//*The Lancet Infectious Diseases.* 2014. T. 14. №. 11. pp. 1090-1095.
49. Outbreak of acute respiratory syndrome associated with a novel coronavirus, China: first local transmission in the EU/EEA – third update URL: https://www.ecdc.europa.eu/sites/default/files/documents/novel-coronavirus-risk-assessment-china-31-january-2020_0.pdf

50. Park M.H. et al. Emergency cesarean section in an epidemic of the Middle East respiratory syndrome: a case report *Korean J Anesthesiol*, 69 (2016), pp.287-291, doi: 10.4097/kjae.2016.69.3.287
51. Pecheur E-l. et al. The Synthetic Antiviral Drug Arbidol Inhibits Globally Prevalent Pathogenic Viruses. *J.Virol.* 2016;90:3086-92. doi: 10.1128/JVI.02077-15
52. Phan L.T. et al. Importation and Human-to-Human Transmission of a Novel Coronavirus in Vietnam //*New England Journal of Medicine*. – 2020.
53. Phylogeny of SARS-like betacoronaviruses including novel coronavirus (nCoV). URL: <https://nextstrain.org/groups/blab/sars-like-cov>
54. Public Health England. Investigation and initial clinical management of possible cases of novel coronavirus (2019-nCoV) infection URL: <https://www.gov.uk/government/publication-and-initial-clinical-management-of-possible-cases-of-wuhan-novel-coronavirus-wn-cov-infection>
55. Royal Pharmaceutical Society of Great Britain Trading as Royal Pharmaceutical Society. Wuhan novel coronavirus URL: <https://www.rpharms.com/resources/pharmacy-guides/wuhan-novel-coronavirus>
56. The State Council The Peoples Republic Of China URL: <https://english.www.gov.cn/>
57. The Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Interim guidance for healthcare professionals on human infections with 2019 novel coronavirus (2019-nCoV). URL: <https://www.cdc.gov/coronavirus/2019-nCoV/hcp/index.html>
58. Upchurch C.P. et al. Community-acquired pneumonia visualized on CT scans but not chest radiographs: pathogens, severity, and clinical outcomes //*Chest*. – 2018. – T. 153. - №.3. - pp. 601-610.
59. Wang Z. et al. Clinical characteristics and therapeutic procedure for four cases with 2019 novel coronavirus pneumonia receiving combined Chinese and Western medicine treatment. *Biosci Trends* 2020. doi:10.5582/bst.2020.01030.
60. World health organization. Managing Ethical Issues in Infectious Disease Outbreaks. Publication date: 2016. URL: <https://www.who.int/ethics/publications/infectious-disease-outbreaks/en/>
61. Wu P. et al. Real-time tentative assessment of the epidemiological characteristics of novel coronavirus infections in Wuhan, China, as at 22 January 2020

//Eurosurveillance, 2020. T. 25. №3. doi: 10.2807/1560-7917.ES.2020-25.3.2000044

62. Zhang L, Liu Y. Potential Interventions for Novel Coronavirus in China: J Med Virol 2020. doi:10.1002/jmv.25707.

63. Zhang J. et al. Therapeutic and strategies for 2019 novel coronavirus disease in fever clinics. Lancet Respir Med 2020. doi:10.1016/S2213-2600(20)30071-0.

64. Zumla A. et al. Coronaviruses – drug discovery and therapeutic options // Nature reviews. Drug discovery. 2016. 15. № 5. C. 327-347.


65. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/03/18/zf-vaccine/>

66. <https://www.dw.com/ru/vakcina-ot-koronavirusa-biontech-pfizer-sputnik-v-i-drugie/a-56174812>

67. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ЦЕНТР РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ
СЛУЖБА САНИТАРНО-ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКОГО
БЛАГОПОЛУЧИЯ И ОБЩЕСТВЕННОГО ЗДОРОВЬЯ
ТАШКЕНТСКАЯ МЕДИЦИНСКАЯ АКАДЕМИЯ
ООО «KRISTAL MED SERVIS»

«УТВЕРЖДАЮ»

Вр.и.о. начальника
управления науки и
образования МЗ Р Уз
 Махмудов А.Т.
«21» июня 2021 г.
Протокол № 3


«СОГЛАСОВАНО»

Директор Центра
развития медицинского
образования МЗ Р Уз
 Ягиева Н.Р.
«21» июня 2021 г.
Протокол № 6

COVID-19 И ОСТРЫЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ВИРУСНЫЕ ИНФЕКЦИИ

(учебно-методическое пособие)

Это учебно-методическое пособие предназначено для врачей инфекционистов, эпидемиологов, пульмонологов, реаниматологов, врачей общей практики, студентов медицинских вузов, магистров, клинических ординаторов и медицинских сестёр.



«Renessans press»

Тошкент

2021

СОСТАВИТЕЛИ:

1. **Туйчиев Л.Н.** – доктор медицинских наук, профессор. Заведующий кафедрой инфекционных заболеваний Ташкентской медицинской академии.
2. **Юсупалиев Б.К.** – доктор медицинских наук, начальник Республиканской службы санитарно-эпидемиологического благополучия и общественного здоровья.
3. **Миртазаев О.М.** – доктор медицинских наук, профессор кафедры эпидемиологии Ташкентской медицинской академии.
4. **Валиев А.Г.** – доктор медицинских наук, профессор.
5. **Маликов О.М.** – доктор медицинских наук, сотрудник кафедры гематологии, трансфузиологии и лабораторного дела Ташкентской медицинской академии.
6. **Курбанов Б.Д.** – кандидат медицинских наук, заместитель начальника Республиканской службы санитарно-эпидемиологического благополучия и общественного здоровья.
7. **Жумамуродов С.Т.** – ассистент кафедры микробиологии, вирусологии и иммунологии Ташкентской медицинской академии.

Рецензенты:

1. **Шарапов Махмуд Бакиханович** – доктор медицинских наук, профессор. Офис СДС, США в Узбекистане.
2. **Матназарова Гульбахор Султановна** – доктор медицинских наук, заведующая кафедрой эпидемиологии Ташкентской медицинской академии.

Учебно-методическое пособие рассмотрено на центральном методическом совете Ташкентской медицинской академии.

Протокол № 7 “9” марта 2020 год.

Учебно-методическое пособие рассмотрено и утверждено на Ученом Совете Ташкентской медицинской академии. Протокол № 8. “24” март 2021 год.

Секретарь Ученого Совета
доктор медицинских наук, профессор

Г.А. Исмаилова

ОГЛАВЛЕНИЕ

Аннотация	138
Covid-19.....	139
Краткие исторические данные.	139
Этиология.....	141
Патогенез.....	142
Патологическая анатомия.....	143
Эпидемиология Covid-19.....	144
Стандартное определение случая заболевания Covid-19.....	148
Эпидемиологический надзор за Covid-19.....	149
Клинические особенности Covid-19	152
Диагностика и алгоритм обследования пациента с подозрением на Covid-19.....	156
Лечение Covid-19.....	161
Санитарно-противоэпидемические (профилактические) мероприятия... ..	179
Приложения.....	191
Острые респираторные вирусные инфекции.....	194
Грипп.....	198
Аденовирусная инфекция.....	222
Парагриппозная инфекция.....	230
Респираторно- синцитиальная инфекция.....	233
Риновирусная инфекция.....	235
Реовирусная инфекция.....	236
Респираторная микоплазменная инфекция.....	238
Инфекция, вызываемые энтеровирусами.....	240
Список использованных сокращений.....	249
Список использованной литературы.....	250

А Н Н О Т А Ц И Я

В 2020 году по всему миру наблюдалось распространение коронавирусной инфекции COVID-19. За короткий срок пандемия охватила Азию, Америку, Европу, Африку, Австралию.

COVID-19 не обошёл и Узбекистан. Эта инфекция в Узбекистане стала регистрироваться с марта 2020 года. Первые сообщения о новой коронавирусной инфекции пришли из Китая в декабре 2019 года (в городе Ухань провинции Хубэй), где возникла вспышка инфекционного заболевания, вызванного неизвестным ранее вирусом.

Международный комитет по таксономии вирусов присвоил новому вирусу наименование SARS-CoV-2 (коронавирус тяжелого острого респираторного синдрома-2). 11 февраля 2020 г ВОЗ объявила о присвоении данному заболеванию названия «COVID-19».

Перед министерством здравоохранения, Санитарно-эпидемиологической службой, врачами, медицинскими сёстрами стояла задача: как определить диагноз, лечение и профилактику новой инфекции «COVID-19».

В настоящее время ученые с мировым именем, ведущие специалисты и опытные врачи изучают эпидемиологию, патогенез, клинику, лабораторную диагностику этого заболевания. Специалисты всего мира преподносят всё новые и новые сведения об этой инфекции.

Учебно-методическое пособие подготовлено на основе анализа мировой литературы, опубликованной по этой теме, а также на основании практического опыта работы с COVID-19 узбекских ученых: вирусологов, эпидемиологов, инфекционистов, реаниматологов, пульмонологов, гематологов и др.

В учебно-методическое пособие включены материалы эпидемиологического мониторинга заболеваемости COVID-19 по всему миру, а также по Узбекистану, предоставленные врачом-эпидемиологом Центрального штаба по борьбе с коронавирусной инфекцией в Узбекистане Азизом Нишоновым.

